- O‘ziga bo‘lgan ishonch: Lider ayollar o‘z qarorlarida qat’iy, o‘z maqsadlariga erishishda bardoshli va ishonchli bo‘ladilar. Ular har qanday qiyinchilikka qaramasdan, o‘z yo‘lini topa olishadi.
- Empatiya va muloqotga tayyorlik: Jamoa bilan samarali muloqot qila oladi, insonlarning his-tuyg‘ularini tushunadi va boshqalar bilan ijobiy munosabatlarni o‘rnatadi. Empatiya liderlikda kuchli sifatdir, chunki bu boshqalarni ilhomlantiradi va motivatsiya beradi.
- Innovatsion fikrlash: Yangi g‘oyalarni ilgari surishga, yangiliklarni o‘rganishga va ularni hayotga tadbiq etishga tayyordirlar. Ular tizimdagi kamchiliklarni ko‘ra olishadi va ularni tuzatish yo‘llarini izlashadi.
- O‘zgaruvchanlikka moslashuvchanlik: Yangi muammolarga qarshi samarali strategiyalar ishlab chiqadilar.
- Ta’lim va tarbiyada liderlik: O‘z bilim va tajribalarini boshqalar bilan baham ko‘radi, yoshlarga o‘rgatadi va o‘zlarining malakalarini oshiradilar.

Gender tengligi - bu erkak va ayollarning, shuningdek, barcha jinsiy orientatsiya va identifikatsiyalarga ega shaxslar o‘rtasidagi teng huquqli munosabatlaridir. Gender tengligi huquqiy, ijtimoiy, iqtisodiy, ta’limiy va siyosiy tenglik kabi jihatlarni o‘z ichiga qamrab oladi. O‘z haq-huquqlarini, erkinliklarini va majburiyatlarini bilgan ayol albatta lider bo‘la oladi va jamiyatga foydasi tegadigan shaxs sifatida o‘zini namoyon qila oladi.

**Xulosa va takliflar.** Lider ayollar va ularning faoliyati jamiyatdagi ijtimoiy o‘zgarishlarni amalga oshirishda muhim ahamiyatga ega. Ayollar nafaqat o‘z uy-joylarida, balki jamiyatda ham muhim o‘rin tutadilar. Tanzila Narbayeva kabi yetakchi ayollar gender tengligini ta’minlash, ayollarga imkoniyatlar yaratish va ularning ijtimoiy huquqlarini himoya qilish borasida katta faoliyat olib bormoqdalar. Ular o‘zlarining yuksak maqsadlari va jasorati bilan boshqalarga ilhom berib, yangi avlodni o‘zgarishlar yaratishga undaydilar.

Lider ayollar o‘z hayotlari va faoliyatlari bilan jamiyatdagi o‘zgarishlarga ijobiy ta’sir ko‘rsatadilar. O‘z maqsadlariga erishish yo‘lida boshqalarni ilhomlantiradilar va yangi avlod uchun ilhom manbai bo‘lib xizmat qiladilar. Bugungi kunda ayollarni rag‘batlantirish va ularni liderlik pozitsiyalariga olib chiqish masalasi global miqyosda diqqatga sazovor. Global siyosat, iqtisodiyot va ilm-fanda ayollarni teng huquqlik va imkoniyatlar bilan ta’minlash borasidagi tashabbuslar qo‘llab-quvvatlanmoqda. Bular gender tengligini rivojlantirishga, ayollarni boshqaruv pozitsiyalariga olib chiqishga va tafovutlarni kamaytirishga xizmat qiladi.

Ayollar yetakchiligini qo‘llab-quvvatlash nafaqat adolatli jamiyatni shakllantirishga, balki iqtisodiy o‘sish, ijtimoiy rivojlanish va siyosiy barqarorlikka erishishda ham muhim omil hisoblanadi. O‘zbekistonda ham ayollarni liderlikka tayyorlash, ularning ijtimoiy va siyosiy ishtirokini kengaytirish borasida sezilarli o‘zgarishlar namoyon bo‘lmoqda.

Prezident Shavkat Mirziyoyev tomonidan ayollarni siyosat va boshqaruvda faol ishtirok etishga rag‘batlantirish, ular uchun ijtimoiy imkoniyatlar yaratish bo‘yicha amalga oshirilayotgan tashabbuslar ayniqsa, yangi avlod qizlarini o‘zining bilim, iste’dod va mahoratini ro‘yobga chiqarishga ilhomlantiradi. Global miqyosda ayollar liderligi rivojlanishda davom etar ekan, jamiyatlar yanada barqaror, adolatli va teng imkoniyatlarga ega bo‘lishi kutilmoqda. Bu esa yangi avlodni yanada kuchliroq, ilhomlangan va qobiliyatli qilishga imkon yaratadi.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Alice H. Eagly. Women as leaders: Leadership Style Versus Leaders' Values and Attitudes. President & Fellows of Harvard College. 2013. https://www.hbs.edu/race-gender-equity/Shared%20Documents/eagly.pdf

2. Carol Gilligan. The ethic of care. Barcelona. 2013. https://www.fundaciogrifols.org/documents/4438882/4449432/monograph30.pdf/f41cb4a7-ad7d-42d6-a820-2c71d2e56df5?t=1420808089536

3. Ester Duflo. Poor Economics. Public Affairs. 2012. https://www.hachettebookgroup.com/titles/abhijit-v-banerjee/poor-economics/9781610391603/?lens=publicaffairs

# RAQAMLI DIDAKTIKA VA UNING ASOSIY TAMOYILLARI

**Faxriddinov Yoqubjon Abubakir o‘g‘li**, GulDPI Ijtimoiy fanlar va San’atshunoslik kafedrasi dotsenti.
**e-mail:** magguldu2013@mail.ru

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada pedagogning raqamli kompetentligi va uning tarkibiy tuzilmasi, raqamli didaktika va uning asosiy tamoyillari, raqamli ta’lim resurslarini loyihalash uchun asosiy talablar, raqamli ta’limning ba’zi xususyatlari bayon qlingan. Bugungi kunda “raqamli ta’lim”, “raqamli muhit”, “raqamli texnologiyalar”, “raqamlashtirish” kabi atamalar kundalik muloqotda keng qo‘llanilib kelinayotgan atamalar sifatida qaralmoqda. Ta’lim muassasalarini XXI asr talablariga tayyorlash uchun o‘qituvchilarga o‘z darslarida AKTdan foydalanishni kengaytirish talab qilindi. Ushbu maqola raqamli pedagogika ko‘nikmalarini oshirish va raqamli ta’lida, didaktk tamoyillarning mohyati atroflicha, batafsil yoritilgan.

**Kalit so‘zlar:** raqamli ta’lim, hamkorlik, polimodallik, resurslarini loyihalash, texnik, kompyuter, simulyatsiya, telekommunikatsiya, ilmiylik, ochiqlik, ko‘rgazmalilik, faollik, onglilik;

# ЦИФРОВАЯ ДИДАКТИКА И ЕЕ ОСНОВНЫЕ ПРИНЦИПЫ

**Аннотация.** В статье описаны цифровая компетентность педагога и ее структурная структура, цифровая дидактика и ее основные принципы, основные требования к проектированию цифровых образовательных ресурсов, а также некоторые особенности цифрового образования. Сегодня такие термины, как «цифровое образование», «цифровая среда», «цифровые технологии», «цифровизация» широко используются в повседневном общении. Чтобы подготовить образовательные учреждения к требованиям XXI века, учителям было предложено расширить использование ИКТ на уроках. В данной статье описана сущность дидактических принципов в цифровом образовании и совершенствовании цифровых педагогических навыков.

**Ключевые слова:** цифровое образование, сотрудничество, мультимодальность, проектирование ресурсов, технический, компьютерный, моделирование, телекоммуникации, научный, открытость, демонстрация, активность, осведомленность;

# DIGITAL DIDACTICS AND ITS BASIC PRINCIPLES

**Abstract.** The article describes the digital competence of a teacher and its structural structure, digital didactics and its basic principles, the basic requirements for the design of digital educational resources, as well as some features of digital education. Today terms such as “digital education” “digital environment”, “digital technologies”, “digitalization” are widely used in everyday communication. To prepare educational institutions for the demands of the 21st century, teachers have been encouraged to increase the use of ICT in the classroom. This article describes the essence of didactic principles in digital education and improving digital pedagogical skills.

**Key words:** Digital education, collaboration, multimodality, resource design, technical, computer, simulation, telecommunications, scientific, openness, demonstration, activity, awareness;

**Kirish**. O‘zbekiston iqtisodiyotini rivojlantirish, shuningdek ta’lim tarbiya samaradorligini oshirish borasida amalga oshirilayotgan isloxotlar va loyihalarning amaliy natijalari sifatida raqamli texnologiyalardan samarali foydalanishni talab etmoqda. Jumladan O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 5-oktyabrdagi PF-6079-sonli “Raqamli O‘zbekiston – 2030” [1] strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi farmoni mamlakatimizda raqamli iqtisodiyotni faol rivojlantirishga, ta’limda zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini keng joriy etish bo‘yicha kompleks chora-tadbirlar amalga oshirilishi, axborot texnologiyalarining mahalliy bozorini yanada rivojlantirish, respublikaning barcha hududlarida IT-parklarni tashkil etish, shuningdek, xar bir sohani malakali kadrlar bilan ta’minlash vazifalari ijrosini ta’minlashga qaratilgan.

**Tadqiqot metodologiyasi**. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son “2022-2026 yillarga mo‘ljallangan yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi, 2017-yil 7-fevraldagi PF-4947-son “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi, 2020-yil 5-oktyabrdagi PF-6079-son “Raqamli O‘zbekiston – 2030” strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi, qarorlari hamda boshqa me’yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan.

**Mavzuga oid adabiyotlar tahlili.** Ana shu atamalardan biri “Raqamlashtirilgan ta’lim” yoki “Raqamli ta’lim”dir. Bu borada raqamli ta’limga ta’riflar berishda, V. I. Blinov, M. V. Dulinov fiklariga ko‘ra – “Raqamli ta’lim - axborotlashtirilgan ta’lim muhitida o‘rganish foaliyatini tashkil etish” deyilgan bo‘lsa, A. A. Verbitskiy-“Raqamli ta’lim” atamasidan foydalanish “Raqamli didaktika” ning tegishli tushunchasi, ya’ni raqamli o‘rganish nazariyasidir degan ta’rifni beradi. Mahalliy olimlarning bir qatorlari R. Ayupov va boshqalar “Raqamli ta’lim” deganda elektron ta’lim muhitida “ta’lim - talabalar” va “talaba - talaba” o‘zaro ta’sirini tashkil etish jarayoni tushunilishi kerak degan xulosaga keladi [2].

Raqamlashtirilgan ta’lim bu bo‘lajak o‘qituvchilarning kasbiy-pedagogik tayyorgarligida raqamli texnologiyalar va ularning tashkil etuvchi vositalaridan foydalangan holda o‘quv faoliyatini texnologiyalar integratsiyasi asosida tashkil etishga qaratilgan ta’limdir.

Raqamlashtirilgan ta’lim sharoitida o‘qituvchilarning roli axborot beruvchidan boshqaruvchilik (moderator)ga o‘zgartiriladi. Shuning uchun raqamli ta’lim sharoitida bo‘lajak o‘qituvchilarning kasbiy-pedagogik tayyorgarligini yangi sharoitlariga tizimli ravishda rivojlantirish muhim vazifalardan biridir.

Raqamlashtirilgan ta’lim sharoitida bo‘lajak o‘qituvchilarning kasbiy-pedagogik tayyorgarligini takomillashtirishning tizimli tarkibiy qismi bu raqamli ta’lim muhiti hisoblandi.

Raqamli ta’lim muhiti Internet mavjud bo‘lgan har qanday joydan, turli xil o‘quv mashg‘ulotlarini o‘tkazishni, natijalarni aniqlashni ta’minlaydi va shu bilan birga talabalarning o‘quv faoliyati (oraliq attestatsiya va yakuniy nazorat); elektron portfoliosini shakllantirish; talabalarning zarur zamonaviy ta’lim resurslari, ma’lumotlar bazalari, axborot-ma’lumot tizimlari va boshqalardan masofadan foydalanishi. M. E. Kushnir o‘z ishlarida “Raqamli ta’lim muhiti – ta’lim jarayonining turli vazifalarini ta’minlash uchun mo‘ljallangan ochiq axborot tizimlari to‘plamidir. “Ochiq” so‘zi masofaviy ta’limning bir qismi sifatida turli xil axborot tizimlaridan foydalanish, ularni almashtirish yoki o‘z xohishiga ko‘ra yangilarini qo‘shish qobiliyati va huquqini anglatadi” deb ta’kidlaydi [3].

**Tahlil va natijalar.** Uzluksiz ta’limni amalga oshirish jarayonida masofali ta’lim, axborot kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish A. A. Abduqodirov, U. Sh. Begimqulov, F. M. Zakirova, B. Mo‘minov, Q. T. Olimov, C. B. Goates, J. K. Whiting, M. L. Berardining ilmiy tadqiqot ishlarida metodikasi masalalari atroflicha o‘rganilgan [4].

Raqamli kompetentlik – bu zamonaviy raqamli texnologiyalar bilan bog‘liq kompetensiyalarni tavsiflovchi yangi tushunchalardan biri hisoblanadi. So‘nggi yillarda “AKT savodxonlik”, “axborot kompetentlik”, “axborot savodxonligi”, “raqamli savodxonlik” va “raqamli ko‘nikmalar” kabi raqamli texnologiyalardan foydalanish darajalarini tavsiflovchi bir nechta atamalar qo‘llanilmoqda. Ushbu atamalar ko‘pincha “raqamli kompetentlik” va “raqamli savodxonlik” kabi bir-biriga yaqin atamalar bilan ishlatiladi. “Raqamli savodxonlik” tushunchasi oldinroq ishlatila boshlangan. Ushbu atama insonning raqamli muhitda masalalarni samarali hal etish qobiliyatini anglatadi.

**Raqamli didaktika** – pedagogikaning bir qismi hisoblanib, raqamli ta’lim muhitida o‘quv jarayonini tashkil etish bo‘yicha fan sifatida qaraladi. Raqamli didaktika an’anaviy didaktikaning asosiy tushunchalari va tamoyillarini raqamli muhit sharoitlaridan kelib chiqqan holda o‘rganish, to‘ldirish va o‘zgartirish haqidagi fan sifatida ketma-ket foydalanadi. Dj. D'Andjelo tomonidan raqamli didaktika yoki raqamli ta’lim didaktikasi tushunchasini anglatuvchi “e-Didactics” tushunchasini kiritish taklif etilgan. Raqamli didaktika atamasiga M. Choshanov “raqamli texnologiyalar va multimedia vositalaridan keng foydalangan holda samarali o‘rganish san’ati haqidagi fan” deb ta’rif bergan. V. I. Blinovaning fikricha raqamli didaktikaning asosiy vositalari quyidagilardirdan iborat: [5]

– shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim jarayoni;

– raqamli ta’lim texnologiyalari;

– metaraqamli o‘quv komplekslari.

Raqamli ta’lim didaktik tamoyillari ochiq hisoblanib, yangiligi tufayli raqamli ta’limning nazariy va amaliy imkoniyatlari rivojlangani uchun qo‘shimchalar kiritishni talab qiladi. Ta’limni raqamlashtirish natijasida individual ta’lim jarayonlari va talaba faoliyatini doimiy nazorat qilish asosida samarali mustaqil ta’lim olinadi. Raqamli ta’lim o‘quv mashg‘ulotlarining guruh va individual shakllaridan foydalanish imkoniyatlarini kengaytiradi, kasbiy bilim va ko‘nikmalarning to‘liq o‘zlashtirilishini ta’minlaydi, shuningdek, inklyuziv ta’limning rivojlanishiga sifatli ta’sir ko‘rsatadi.

Raqamli ta’lim jarayonining asosiy tamoyillariga quyidagilar kiradi: ustunlik tamoyili, shaxsiylashtirish tamoyili, maqsadlilik tamoyili, moslashuvchanlik tamoyili, muvaffaqiyatlilik tamoyili, hamkorlikda o‘rganish tamoyili, amaliyotga yo‘naltirganlik tamoyili, murakkablikni oshirish tamoyili, ta’lim muhitining to‘yinganligi tamoyili, polimodallik (multimedia) tamoyili, baholash tamoyili.

**1. Ustunlik tamoyili** raqamli ta’lim muhitida talabaning mustaqil ta’lim faoliyatiga qaratilgan. O‘quv jarayonini tashkil etish, o‘quv jarayonida talabani qo‘llab-quvvatlash va yordam berish lozim.

**2. Shaxsiylashtirish tamoyili** talabaning o‘quv maqsadini mustaqil ravishda belgilash, o‘quv jarayonining strategiyasini, o‘quv dasturining rivojlanish sur’ati va darajasini tanlash qobiliyatini nazarda tutadi. Ushbu yondashuv o‘qituvchiga shaxsiy rivojlanish ko‘rsatkichlari va talabalarning ta’lim natijalarini kuzatish imkonini beradi.

**3. Maqsadlilik tamoyili** maqsadlilikning an’anaviy didaktik tamoyili bilan kesishadi: o‘quv jarayonida faqat ma’lum bir talabaning ta’lim jarayonida belgilangan maqsadlarga maksimal darajada erishishni ta’minlaydigan raqamli texnologiyalardan foydalanish talab etiladi. Ushbu tamoyil ta’lim maqsadlari aniq

belgilanmagan holda samarasiz pedagogik texnologiya va vositalardan foydalanishni nazarda tutmaydi.

**4. Moslashuvchanlik tamoyili** raqamli ta’lim jarayonining shartlariga qarab individual yondashuvni ishlab chiqish imkonini beradi. Raqamli ta’lim jarayoni o‘quv materialini taqdim etish tartibi, usuli va sur’ati kabi jihatlarni hisobga olgan holda har bir talaba uchun dasturni avtomatik ravishda sozlash imkonini beradi. Shuningdek, ushbu tamoyil o‘qituvchini qo‘llab-quvvatlash darajasi va xususiyatini hisobga oladi.

**5. Muvaffaqiyatlilik tamoyili** maqsadlarga erishishni, bilim, ko‘nikma va malakalarni to‘liq o‘zlashtirishni talab qiladi. Raqamli ta’lim jarayonida bu tamoyil “tushuntirish – mustahkamlash – nazorat” didaktik zanjirining yakuniy elementi hisoblanadi. Materialni mustahkamlash uchun qo‘shimcha o‘quv soatlari ajratiladi, o‘qituvchilar va talabalarning yuzma-yuz uchrashuvi tez-tez tashkil etiladi. O‘qituvchi mustahkamlashning guruh va individual shakllarining optimal nisbatini diqqat bilan kuzatib boradi. Raqamli vositalar bu jarayonni sezilarli darajada tezlashtiradi.

**6. Hamkorlikda o‘rganish tamoyili** (interaktivlikning didaktik tamoyiliga o‘xshash) o‘qituvchi va talaba o‘rtasidagi faol ko‘p tomonlama – real va tarmoqli aloqa asosida o‘quv jarayonini qurishni talab qiladi. Ushbu tamoyil tarmoqni o‘rganishning guruh shakllaridan foydalanishni o‘z ichiga oladi.

**7. Amaliyotga yo‘naltirilganlik tamoyili** ta’limni hayot bilan bog‘lashning an’anaviy didaktik tamoyili bilan bevosita bog‘liq bo‘lib, aniq maqsad va aniq natijalarni belgilashni talab qiladi. Buning uchun tarbiyaviy maqsadlar, topshiriqlar va muammoli vaziyatlar, amaliy topshiriqlar, olingan bilimlarni amalda qo‘llash lozim.

**8. Murakkablikni oshirish tamoyili** mavjudlik, tizimlilik va izchillik didaktik tamoyili bilan bog‘liq bo‘lib, murakkablikni oshirish printsipi izchil o‘tishni o‘z ichiga oladi: oddiydan murakkabga va murakkabdan oddiyga, umumiydan xususiyga va xususiydan umumiyga, individualdan guruhga. va guruhdan individual va boshqa ta’lim jarayonlari.

**Raqamli ta’lim resurslarini loyihalash uchun asosiy talablar.**

Raqamli ta’lim muhitidan samarali foydalanish pedagog kadrlarning AKTdan foydalangan holda kasbiy kompetentligi, shuningdek, yangi texnologiyalardan foydalanish bo‘yicha bilim, ko‘nikma va malakalarini rivojlantirishni talab etadi.

Tadqiqotchilarning fikricha, raqamli ta’lim muhitida natijadorlika erishish uchun ishlab chiqilayotgan raqamli ta’lim resurslari (RTR) asosiy komponentga aylanishi kerak.

Raqamli ta’lim resursi – raqamli shaklda taqdim etiladigan ta’lim resursi bo‘lib, mavzu tuzilmasi, mazmuni va metama’lumotlarni o‘z ichiga oladi. Shu bilan birga, RTRni tuzilishi, mazmuni, usullari va ishlab chiqish va qo‘llash vositalari ularning maqsadi va raqamli ta’lim muhitida foydalanish xususiyatlari bilan belgilanadi.

Raqamli ta’lim resurslarining didaktik vazifalari quyidagilarni o‘z ichiga oladi:

1. Ta’lim faoliyatining yangi turlarini amalga oshirish va an’anaviy ta’lim turlarining yuqori sifat darajasida ishlashini qo‘llab-quvvatlash;
2. Ta’lim jarayoni ishtirokchilarining o‘zaro munosabatlari xarakterini o‘zgartirish imkoniyatini ta’minlash;
3. Ta’lim jarayonini individuallashtirish;
4. Ta’lim mazmunini kengaytirish

Raqamli ta’lim resurslari quyidagi mezonlar asosida tavsiflanadi: axborot texnologiyalarining turi, uslubiy maqsadi, mazmuni va boshqalar. Bunday tasniflar samarali emas, chunki zamonaviy raqamli ta’lim resurslari bir qator ta’lim vazifalarini birlashtirib, hal qilishga qodir, ya’ni raqamli ta’lim resursi ko‘p funksiyali va uni ma’lum bir turga kiritish deyarli mumkin emas.

Shu munosabat bilan ta’lim faoliyatining yangi turi amalga oshirishda RTRning asosiy tarkibiy qismiga e’tibor qaratiladi.

Axborotni izlashda RTR kalit komponenti internet manbalar va elektron ma’lumot nashrlaridan olingan ma’lumotlarni qidirish, qayta ishlash va tahlil qilishga qaratiladi.

**Texnik komponent** o‘quv faoliyatini amalga oshirish uchun vositalar manbaidan foydalanishni o‘z ichiga oladi (mustaqil o‘quv va ilmiy-kognitiv faoliyat natijalarini tayyorlash va rasmiylashtirish, matn, eksperimental, miqdoriy va sifat vazifalarini hal qilish, frontal ishlarni bajarish va boshqalar).

**Kompyuter simulyatsiyasi komponenti** RTR kompyuter simulyatsiyasi uchun dastur yoki tayyor muhit ekanligini anglatadi.

Hamkorlikdagi ta’lim faoliyatida telekommunikatsiya komponenti asosiy komponent hisoblanadi.

**Texnik komponent** o‘quv faoliyatini amalga oshirish uchun vositalar manbaidan foydalanishni o‘z ichiga oladi (mustaqil o‘quv va ilmiy-kognitiv faoliyat natijalarini tayyorlash va rasmiylashtirish, matn, eksperimental, miqdoriy va sifat vazifalarini hal qilish, frontal ishlarni bajarish va boshqalar).

Kompyuter simulyatsiyasi komponenti RTR kompyuter simulyatsiyasi uchun dastur yoki tayyor muhit ekanligini anglatadi.

Hamkorlikdagi ta’lim faoliyatida telekommunikatsiya komponenti asosiy komponent hisoblanadi.

**Nazorat qiluvchi komponent** o‘z-o‘zini nazorat qilish, baholash, aks ettirishga qaratilgan RTR uchun etakchi hisoblanadi.

**Dasturlash komponenti** esa dasturiy ta’minotni loyihalash va

Ushbu tasniflar to‘liq emas va RTRning funksionalligini aniqlashtirish uchun yangi komponentlar bilan to‘ldirilishi mumkin.

RTRni ishlab chiqishda nafaqat resursning axborot komponenti, balki didaktik talablarga muvofiq tuzilishi kerak bo‘lgan kontentning o‘zi ham muhimdir.

Ilmiylik. Bu talab eng yangi ilmiy yutuqlarini hisobga olgan holda materialni etarlicha chuqur va to‘g‘ri taqdim etish zarurligini bildiradi.

Ochiqlik. Ta’lim oluvchining yoshi va individual xususiyatlariga muvofiq materialni taqdim etishning kognitiv murakkablik darajasini aniqlash zarurligini anglatadi.

Muammolar yechimi. Bu talab o‘quv va kognitiv faoliyatning tabiati bilan bog‘liq. Hal qilinishi kerak bo‘lgan muammoli vaziyatga duch kelganda, ta’lim oluvchilarning idrok etish faolligini oshiradi.

Ko‘rgazmalilik. O‘rganilayotgan ob’ektlar va jarayonlarni hissiy idrok etish qonuniyatlarini hisobga olish zarurligini anglatadi.

Faollik va onglilik. O‘quv jarayoni faolligini oshirish uchun RTR turli xil o‘quv vaziyatlarini yaratishi, turli xil savollarni shakllantirishi, talabaga u yoki bu ta’lim traektoriyasini tanlash imkoniyatini, hodisalarning borishini nazorat qilish qobiliyatini ta’minlashi kerak.

Tizimlilik. Talabalar tomonidan o‘rganilayotgan fan sohasidagi ma’lum bir bilim tizimini izchil o‘zlashtirish zaruratidir.

Bilimlarni o‘zlashtirishning mustahkamlash. RTR yordamida muayyan harakatlarning takrorlanishini tashkil qilish, individual o‘quv topshiriqlarining o‘zgaruvchanligini oshirish mumkin bo‘ladi.

Rivojlantiruchi. RTR faqatgina ta’lim funksiyasi bilan cheklanib qolmasligi kerak, ular o‘quvchilarning aqliy qobiliyatlarini rivojlantirishi, o‘quv faoliyati uchun motivatsiyani ta’minlashi va bir qator tarbiyaviy funksiyalarni bajarishi kerak.

Raqamlashtirish jarayonida ta’lim samaradorligi va sifati oshirish yangi o‘quv mahsulotlari innovatsion sifatlari bilan chambar-chas bog‘liq, shuning uchun RTR sifatlarini tahlil qilishga alohida e’tibor qaratish lozim.

**Xulosa.** Zamonaviy jamiyat ehtiyojlarini inobatga olgan holda bo‘lajak o‘qituvchilarni kasbiy-pedagogik tayyorgarligini takomillashtirishda, nafaqat zamonaviy axborot texnologiyalarning keng joriy etilishiga asoslanishi kerak, balki ularsiz bugungi hayotni tasavvur qilish qiyin bo‘lgan bugungi kunda ham zamonaviy raqamli texnologiyalarning keng qo‘llanilishiga asoslanishi kerak. Raqamli ta’limining didaktik tamoyillari bo‘lajak o‘qituvchilarning kasbiy-pedagogik tayyorgarligini raqamli texnologiyalarga transformatsiya qilish bo‘lajak o‘qituvchilarning raqamli sharoitda samarali tayyorlanishini ta’minlashi va ularning pedagogik mahoratining yuqori bo‘lishini ta’minlaydi.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**


1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 5-oktyabrdagi PF-6079-sonli “Raqamli O‘zbekiston – 2030” strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi farmoni
2. Вербицкий А. А. «Цифровое поколение»: Проблемы образования. 2016
3. Chetty K., Wenwei L., Josie J., Shenglin B. Bridging The Digital Divide: Measuring Digital Literacy. 2017
4. Устин П. Н., Сабирова Э. Г., Гарипова И. И. сифровые компетенсии учителя как субъекта образовательной деятелности в его индивидуалной траектории развития // В. М. Бехтерев и современная психология личности: сборник статей ВИ Всероссийской научно-практической конференции. 2-4 октября 2020 г. / НОУ ДПО «Сентр сотсиально-гуманитарного образования». Казан, 2020. С. 216-218.
5. V. I. Blinov M. V. Dulinov, E. Yu. Yesenina, I. S. Sergeev, Draft didactic concept for digital vocational education and training. – Moscow, 2019.
6. Redeker K., Poonie J. (2017). European framework for the digital competence of teachers: DigCompEdu [Evropejskie ramki cifrovoj kompetentnosti pedagogov], Brussels: Joint Research Center, European Union. [Elektronnыy resurs]. – Rejim .dostupa: URL: https://ec.europa.eu/jrc/en/digcompedu. 2021.
7. Потемкина Т. В. Зарубежный опыт разработки профиля сифровых компетенсий учителя // Научное обеспечение системы повышения квалификатсии кадров. – 2018. № 2(35). – С. 25-30.
8. Puentedura R. “Learning technology and the SAMR model: Goals, process, andprectise” Society for Information Technology & Teacher Education International Conference, Mar 05, 2017.

# BO‘LAJAK PEDAGOGLARDA BOSHQARUV KOMPETENTSIYALARINI RIVOJLANTIRISH METODIKASINI TAKOMILLASHTIRISHNING INNOVATSION PEDAGOGIK OMILLARI

**Dusnazarov O‘ktam Xidirnazarovich,** Guliston davlat pedagogika instituti katta o‘qituvchisi.
**e-mail:**

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada bo‘lajak o‘qituvchilarda boshqaruv kompetensiyalarini shakllantirishning amaliy ahamiyati haqida so‘z boradi. Maqolada o‘quvchilarning ta’limini shakllantirish va rivojlantirishda o‘qituvchining o‘quv jarayonidagi roli, rahbariyat va ota-onalar bilan o‘zaro aloqada bo‘lish, shuningdek, kasbiy faoliyatda ko‘tarilish uchun samarali muloqot ko‘nikmalariga ega bo‘lish zarurligi ta’kidlangan. Ta’lim muassasalarida ta’lim tizimini boshqarish va rivojlantirish bilan bog‘liq muammolarni hal qilishning nazariy va amaliy masalalariga bag‘ishlangan maqolada rahbarlar uchun zarur bo‘lgan ko‘nikma va bilimlar va bu bilimlarning o‘quv jarayoni va maqsadini qanday yaxshilashi haqida batafsil ma’lumot berilgan. Ta’lim muassasasida ta’lim sifatini oshirishga yordam berishdan iborat.

**Kalit so‘zlar:** boshqaruv, rahbar faoliyati, pedagogik bilim, ta’lim sifati, boshqaruv kompetensiyasi;

# INNOVATIVE PEDAGOGICAL FACTORS OF IMPROVING THE METHODOLOGY OF DEVELOPING MANAGEMENT COMPETENCES IN FUTURE TEACHERS

**Abstract.** This article talks about the practical importance of forming management competencies in the managemint in future teachers. In the article, the role of the teacher in the educational process in the formation and development of students' education, interaction with management and parents, as well as acquiring effective communication skills for professional advancement necessity is emphasized. . The article, devoted to the theoretical and practical issues of solving problems related to the management and development of the educational system in educational institutions, details the skills and knowledge necessary for leaders and how this knowledge can improve the educational process and purpose. information is provided. It is to help improve the quality of education in an educational institution.

**Key words:** management, leader's activity, pedagogical knowledge, quality of education, management competence.

# ИННОВАЦИОННЫЕ ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ ФАКТОРЫ СОВЕРШЕНСТВОВАНИЯ МЕТОДИКИ ФОРМИРОВАНИЯ УПРАВЛЕНЧЕСКИХ КОМПЕТЕНЦИЙ БУДУЩИХ УЧИТЕЛЕЙ

**Аннотация.** В данной статье говорится о практической значимости формирования управленческих компетенций в у будущих учителей. В статье подчеркивается роль преподавателя в образовательном процессе в формировании и развитии образования учащихся, взаимодействии с руководством и родителями, а также приобретении эффективных коммуникативных навыков для необходимости профессионального

продвижения. В статье, посвященной теоретическим и практическим вопросам решения проблем, связанных с управлением и развитием образовательной системы в образовательных учреждениях, подробно описаны навыки и знания, необходимые лидерам, а также то, как эти знания могут улучшить образовательный процесс и цель. информация предоставлена. Она призвана способствовать повышению качества образования в образовательном учреждении.

**Ключевые слова:** лидерская деятельность, педагогические знания, качество образования, управленческая компетентность.

**Kirish.** Hozirgi zamon oliy ta’lim tizimi jamiyat va iqtisodiyotning barqaror rivojlanishini ta’minlashda muhim orin tutadi. Jahon miqiyosida ta’lim sohasidagi innovasion o‘zgarishlar bilim, ko‘nikma va kompetinsiylarni shakllantirish jarayonini qayta ko‘rib chiqishni talab qilmoqda. Shu jumladan, boshqaruv kompetinsiyalarini rivojlantirish metodikasini takomillashtirish oliy ta’lim muassasalarida pedagogik texnalogiyalarning yangi modellarini joriy etish bilan bog‘liq. Taqiqotning dolzarbligi shundaki ta’lim jarayonida boshqaruv kompetinsiyalarini rivojlantirishga yo‘naltirilgan innovatsion metodikalar va texnologiyalardan samarali foydalanish, pedagoglarning kasbiy salohiyatini oshirishga xizmat qiladi. Bunday metodikalarga badiiy pedagogika, teatr pedagogikasi, vitagen texnalogiyalari, raqamli ta’lim platformalari va interaktiv o‘qitish usullari kirib, ular pedagogik jarayonni yanada samarali va jarayonga yunaltirilgan qilib shakllantirish imkonini beradi. Ushbu tadqiqot oliy ta’lim tizimida boshqaruv kompetinsiyalarini rivojlantirish metodikasini takomillashtirishning innovatsion omillarini aniqlash, o‘larni joriy etish mexanizimlarini tadqiq qilish va amaliyotga tatbiq etish buyicha tavsiyalar ishlab chiqishga qaratilgan [1].

**Adabiyotlar tahlili va metodologiya.** O‘quv rejasiga kiritilgan amaliy ishlar, diplom ishi yoki dissertatsiya ishlarini kiritish alohida ta’kidlangan. Oliy ta’limning asosiy vazifalaridan biri mutaxassisni o‘z-o‘zini rivojlantirishga yo‘naltirish, mustaqil ravishda bilimini oshirish, innovatsion faoliyatga ega ijodkor shaxsni shakllantirishdan iborat, yetakchilik malakalarini egallash. Bunday vazifani bajarish uchun o‘qituvchining o‘quvchiga tayyor bilim berishda yagona narsa yetishmayapti. Bunday yo‘l talabani o‘rganishning passiv iste’molchisiga aylantiradi. Biroq, bugungi kunda bizga bilimning passiv iste’molchisi emas, balki uni faol yaratuvchisi kerak. Natija shunday bo‘lishi kerakki, bo‘lajak mutaxassis har qanday nazariy va amaliy masalani ifodalashi, eng mos va to‘g‘ri natijalarini topa olishi, uni hal qilish yo‘llarini ilmiy yoki uslubiy jihatdan tahlil qila olishi, uning to‘g‘riligini isbotlashi kerak [2].

Ta’lim tizimidagi o‘zgarishlar ta’lim mazmuni bilan chambarchas bog‘liq. yangilanishlar, shuningdek, talabalar o‘qishini tashkil etishning yangi shakllari va usullari haqida o‘ylashni talab qiladi. Shu ma’noda o‘quvchilarni yetakchilik malakasini egallashga qaratilgan ta’limni tashkil etish nafaqat muhim shakl, balki ta’lim jarayonining asosini tashkil etuvchi muhim bo‘limdir.Bularning barchasi o‘qitishning (qabul qilishning) zamonaviy usullarini egallashni o‘z ichiga oladi. O‘quvchilarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish, har bir talabaining imkoniyatlari va salohiyatini hisobga olgan holda, jamoaviy ta’limdan individual ta’limga o‘tish. Bu jarayonni shunday tashkil etish kerakki, buning natijasida talaba yetakchilik malakasini egallasin va bu bilimlarni hayotga tadbiq etish qobiliyati, ko‘nikmasi va malakasi shakllansin .Bu tizimda ikkita asosiy funktsiyalari. Birinchidan, u talabalar va o‘qituvchilarning harakatchanligini ta’minlaydi va boshqaruv faoliyatiga o‘tishni soddalashtiradi. Ikkinchi – o‘quv va ilmiy faoliyatning barcha turlarini hisobga olgan holda talaba tomonidan amalga oshiriladigan ish hajmini aniq belgilab olib boshqaruv tizimiga tula qonli ishonch bilan harakat qila boshlaydi.

Pedagog kadrlar tayyorlashdagi murakkab muammolar orasida bo‘lajak o‘qituvchining yetakchilik kompetensiyasini shakllantirish alohida o‘rin tutadi. Ayniqsa, ta’limni modernizatsiya qilish bilan bog‘liq islohotlarning hozirgi bosqichida kasbiy pedagogik faoliyatga moslashish muammosi yanada yaqqol namoyon bo‘lmoqda. U bo‘lajak o‘qituvchilarni amaliy, psixologik, uslubiy, tadqiqot turlari bilan boyitadi, shuningdek, o‘qituvchining yetakchilik kompetensiyasini shakllantiradi. Yetakchilik malakasi diagnostikasini professional shakllantirishning muhim xususiyatlariga diagnostik, kommunikativ, boshqaruv va loyihaviy tadqiqotlar guruhlarini kiritish kerak. Pedagogning kognitiv faoliyati ko‘p jihatdan o‘rganilayotgan narsalarning murakkabligi, dinamikasi, nostandartligi, ijtimoiy hodisalarni ajratib turuvchi chegaralarning ta’siri, ularning izlanishi, noaniqligi, kuzatishni nazarda tutuvchi, suhbatdoshning ichki dunyosini modellashtirish qobiliyati bilan belgilanadi. Zamonaviy oliy ta’lim kelajakdagi oliy ta’lim o‘qituvchilari oldiga yangi va turli vazifalarni qo‘yadi. Ular nafaqat talabalarga dars beradi, balki o‘quv dasturlarini boshqaradi, ta’lim sifatini baholaydi va oliy ta’lim muhitini rivojlantiradi. Bularning barchasi ulardan yuqori muloqot va boshqaruv qobiliyatlarini talab qiladi. Kommunikativ boshqaruv kompetensiyalarini rivojlantirish oliy ta’lim o‘qituvchilarini kasbiy tayyorlashning muhim elementidir. Bu ko‘nikmalar ularga ta’lim jarayonlarini samarali boshqarish, talabalarning sifatli ta’lim olishiga hissa qo‘shish va zamonaviy oliy ta’lim oldidagi qiyinchiliklarni yengib o‘tishga yordam beradi [3].

Bo‘lajak o‘qituvchilarning yetakchilik vakolatlarini rivojlantirish mexanizmlari amaliy yondashuv orqali kasbiy-pedagogik faoliyatni tashkil etishning uslubiy ta’minotini ishlab chiqishni talab qildi. O‘quv mashg‘ulotini uchta blokda qurish maqsadga muvofiqdir: axborot, o‘z-o‘zini anglash va amaliy. Oliy pedagogik ta’limning o‘ziga xosligini, madaniyat va ta’lim tizimi ahlidan, o‘qituvchidan doimiy ravishda yetakchilik qobiliyatini namoyon etish talabini bunday tushunish an’anaviy ta’lim tizimining mohiyatini izlash manbai bo‘lishi mumkin. Ta’lim muassasasi rahbarlarining boshqaruv kompetensiyasini rivojlantirish, o‘quv jarayoni va o‘quvchilarni yaxshiroq boshqarish, ta’lim muassasasini yanada rivojlantirish va o‘quvchilarga ilg‘or ta’lim tajribasini taqdim etish. Ta’lim muassasasi rahbarlari uchun bu zarur. Boshqaruv kompetensiyasi, o‘quv muhitini rivojlantirish, o‘quvchilarni o‘zlashtirish va ta’lim sifatini yuqori darajada ta’minlash bo‘yicha yetarli bilim, malakali amaliyot va tajribaga ega bo‘lish. Boshqaruv kompetensiyasi o‘quvchilarning o‘z-o‘zini boshqarish, mantiqiy, hissiy va ma’naviy rivojlanishiga ko‘maklashish, o‘quv jarayonini samarali tashkil etish qobiliyatini o‘z ichiga oladi. Quyidagi muhim fikrlar ta’lim muassasasi rahbarlarining boshqaruv kompetensiyasi to‘g‘risida ma’lumot beradi: Boshqaruv kompetensiyasi ta’lim muassasasining rivojlanishiga va o‘quvchilarning rivojlanishiga sezilarli ta’sir ko‘rsatadi. Rahbarlar ushbu kompetensiyalarni rivojlantiradilar va o‘quvchilarning ijtimoiy va ma’naviy muhitda huquqiy va adolatli rivojlanishiga ta’sir qiladilar.

**Natijalar.** Ta’lim muassasalari rahbarlarining boshqaruv kompetensiyasini rivojlantirishda quyidagi muhim omillarni e’tiborga olish kerak: Pedagogik bilim va metodika: Rahbarlar ta’lim jarayonida o‘quvchilarni samarali o‘qitishni, o‘quvchilarning individual xususiyatlarini tushunishni, darslarni o‘quv jarayonidan foydalangan holda o‘tkazishni bilishi kerak. Yangi ta’lim texnologiyalari. Bu ishlanmada pedagogik bilimlarga e’tibor berish, yangi ta’lim texnologiyalari bilan tanishish juda muhim.Yetakchilik va boshqaruv mahorati: Ta’lim muassasalarining boshqaruv organlari sifatida rahbarlar yetakchilik va boshqaruv ko‘nikmalariga ega bo‘lishi kerak. Ular o‘quvchilarning ehtiyojlarini, ularning jismoniy va ma’naviy rivojlanishini tushuna olishlari, jamiyatda ularning dastlabki bilimlarini rivojlantirish va o‘zlashtirishlariga yordam berishlari kerak.O‘quvchilar bilan munosabatlari: Sardorlar o‘quvchilar bilan samarali, ochiq va hamkorlikda ishlay olishlari kerak [4].

O‘quvchilarni tushunish, ularning o‘zini ifoda etishini qo‘llab-quvvatlash, muammodan kelib chiqqan holda ularni ma’naviy va madaniy jihatdan qo‘llab-quvvatlash, mustaqil fikrlashga va muhokama qilishga o‘rgatish zarur.Ta’lim muassasasi rahbarlari uchun yetarli bilim, malakali amaliyotga ega bo‘lish zarur va boshqaruv kompetensiyasi, o‘quv muhitini rivojlantirish, talabalarni o‘zlashtirish va ta’lim sifatini yuqori darajada ta’minlash bo‘yicha tajriba. Boshqaruv kompetensiyasi o‘quvchilarning o‘z-o‘zini boshqarish, mantiqiy, hissiy va ma’naviy rivojlanishiga yordam berish, ta’lim jarayonini samarali tashkil etish qobiliyatini o‘z ichiga oladi. Quyidagi muhim fikrlar ta’lim muassasasi rahbarlarining boshqaruv kompetensiyasi to‘g‘risida ma’lumot beradi:Boshqaruv kompetensiyasi ta’lim muassasasining rivojlanishiga va o‘quvchilarning rivojlanishiga sezilarli ta’sir ko‘rsatadi.

**Muhokama.** Rahbarlar ushbu kompetensiyalarni rivojlantiradilar va o’quvchilarning ijtimoiy va ma’naviy muhitda huquqiy va adolatli rivojlanishiga ta’sir qiladilar. Ta’lim muassasalari rahbarlarining boshqaruv kompetensiyasini rivojlantirishda quyidagi muhim omillarni e’tiborga olish lozim:Pedagogik bilim va metodika:Rahbarlar o‘quvchilarni ta’lim jarayonida samarali o‘qitishni, o‘quvchilarning individual xususiyatlarini tushunishni, darslarni o‘quv-uslubiy texnologiyalardan foydalangan holda o‘tkazishni bilishi kerak. Yangi ta’lim texnologiyalari. Pedagogik bilimlarga e’tibor berish, yangi ta’lim texnologiyalari bilan tanishish bu taraqqiyotda katta ahamiyatga ega. Yetakchilik va boshqaruv mahorati:Ta’lim muassasalarining boshqaruv organlari sifatida rahbarlar yetakchilik va boshqaruv ko‘nikmalariga ega bo‘lishi kerak. Ular o‘quvchilarning ehtiyojlarini, ularning jismoniy va ma’naviy rivojlanishini tushuna olishlari, jamiyatda ularning boshlang‘ich bilimlarini rivojlantirish va o‘zlashtirishlariga yordam berishlari kerak.O‘quvchilar bilan munosabatlari:Rahbarlar o‘quvchilar bilan samarali, ochiq va hamkorlikda ishlay olishlari kerak. Talabalarni tushunish, ularning o’zini ifoda etishini qo‘llab-quvvatlash,muammodan kelib chiqqan holda ularni ma’naviy va madaniy jihatdan qo‘llab-quvvatlash, mustaqil fikr yuritishga va muhokama qilishga o‘rgatish.

Tadbirlar va loyihalarni boshqarish: Rahbarlar o‘z tashkilotidagi tadbirlar va loyihalarni samarali boshqarish ko‘nikmalariga ega bo‘lishi kerak. Bu resurslardan unumli foydalanish, maqsadlarni aniq belgilash va amalga oshirish bilan bog‘liq.

**Xulosa.** Xulosa o‘rnida aytish mumkinki, bo‘lajak pedagoglarning boshqaruv malakalarini rivojlantirish kelajakni yo‘naltirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Bu harakatlar, birinchi navbatda, ta’lim muassasasi rahbarlarining boshqaruv malakasini rivojlantirishga yordam beradi va yuqori malakali talabalarni tayyorlashda muhim o‘rin tutadi.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. O‘zbekiston Respublikasining Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim Tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-5349-son Farmoni

2. Tojiyev M. Mamadaliyev K. Xurramov A. Rivojlangan xorijiy mamlakatlar oliy ta’lim tizimini rivojlantirish, . Oliy ta’lim taraqqiyoti Istiqbollari: to‘plam N-3. – Toshkent, 2015. 52-b.

3. Hamidova M., &Karimova, S. Ta’lim Boshqaruvi va Menejmenti. – Toshkent: O‘qituvchi, 2021.

4. Suvonqulova A. A. Content, form and means of formation of basic competences in Primary school students. ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal, 11(10), 2021. – B. 1494-1497.

5. Suvonqulova A. A. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida tayanch kompetensiyalarni shakllantirishning ilmiy-nazariy asoslari. Педагогика и психология в современном мире: теоретические и Практические исследования, 1(10), 2022. – B. 7-9.

# THE ROLE OF CORPUS EVIDENCE IN PHRASEOLOGICAL UNIT PEDAGOGY

**Abdukadirova Nasiba Alimjanovna,** GSPI, Associate professor (PhD)
**e-mail:** abdukadirovanasiba2@gmail.com
**Abdurazakova Shahida Rahimovna,** GDU, Associate professor (PhD)
**e-mail:** abdurazakovashahida24@gmail.com
**Tuychibayev Ikrom Bahodir ugli,** GSPI, Teacher
**e-mail:** ikromtuychibaev96@gmail.com

**Abstract.** Phraseological units – such as collocations, idioms, and lexical bundles – are critical for achieving language fluency. Corpus linguistics provides a data-driven basis for identifying and teaching these multi-word expressions, revealing their frequency, usage patterns, and contextual meanings. This paper explores how theories like Sinclair's idiom principle and Hoey's lexical priming inform language pedagogy, with special attention to collocational competence in second-language learners. The implications for instructional design and learner autonomy are also discussed.

**Keywords:** corpus linguistics, phraseological units, collocations, idioms, lexical priming, language teaching, second language acquisition, learner corpora**,** fluency, formulaic language;

# FRAZEOLOGIK BIRLIKLARNI O‘QITISHDA KORPUS MA’LUMOTLARINING O‘RNI

**Annotatsiya.** Frazeologik birliklar – kollokatsiyalar, idiomalar va leksik bog‘lamlar – til ravonligiga erishishda muhim ahamiyatga ega. Korpus lingvistikasi ushbu ko‘p so‘zli iboralarni aniqlash va o‘rgatishda ma’lumotlarga asoslangan yondashuvni taklif qiladi; u ularning chastotasi, qo‘llanish uslublari va kontekstual ma’nolarini ochib beradi. Ushbu maqolada Sinclairning “idioma prinsipi” va Hoeyning “leksik tayyorlik” (lexical priming) nazariyalarining til o‘qitishdagi ahamiyati o‘rganiladi. Ayniqsa, ikkinchi til o‘rganuvchilarida kollokatsion kompetensiyaga alohida e’tibor qaratiladi. Ta’lim dizayni va o‘quvchi mustaqilligiga ta’siri ham muhokama qilinadi.

**Kalit so‘zlar:** korpus lingvistikasi, frazeologik birliklar, kollokatsiyalar, idiomalar**,** leksik priming**,** til o‘qitish**,** ikkinchi tilni o‘rganish**,** o‘quvchi korpuslari**,** ravonlik**,** formulaviy til;

# РОЛЬ КОРПУСНЫХ ДАННЫХ В ПРЕПОДАВАНИИ ФРАЗЕОЛОГИЧЕСКИХ ЕДИНИЦ

**Аннотация.** Фразеологические единицы – такие как коллокации, идиомы и лексические блоки – играют ключевую роль в достижении беглости речи. Корпусная лингвистика предоставляет основанную на данных основу для выявления и преподавания этих многословных выражений, раскрывая их частотность, особенности употребления и контекстуальные значения. В данной статье рассматривается, как теории, такие как принцип идиомы Синклера и лексическое праймирование Хоуи, влияют на методику преподавания языка.

Особое внимание уделяется формированию коллокационной компетенции у изучающих второй язык. Также обсуждаются последствия для проектирования учебных программ и развития автономии учащихся.

**Ключевые слова**: корпусная лингвистика, фразеологические единицы, коллокации, идиомы, лексическое праймирование, преподавание языка, изучение второго языка, учебные корпуса, беглость речи, формульный язык;

**Introduction.** Phraseological units (PUs) play a fundamental role in language proficiency, offering learners ready-made, semantically unified expressions that streamline communication. However, their non-compositional meanings and usage constraints pose challenges for second-language (L2) learners. Traditional grammar-based instruction, which emphasizes rule-based learning and individual words, often fails to address these complexities. The emergence of corpus linguistics -the analysis of large language data collections – has revolutionized how PUs are identified and understood, stressing their centrality in authentic discourse.

Phraseological units include various multi-word expressions such as collocations, idioms, lexical bundles, and formulaic sequences that function as single semantic units. The emergence of corpus linguistics has revolutionized our understanding of these linguistic phenomena and their importance in language pedagogy . Corpus linguistics, which involves the analysis of large collections of authentic language data, has revealed that language is much more patterned and formulaic than previously believed.

While traditional grammar instruction often focused on individual words and rules, corpus linguistics has highlighted the prevalence and pedagogical value of phraseological units in real communication. For example, learners are more likely to encounter and remember phrases like “take into account” or “at the end of the day” than to construct them from individual words. Unlike isolated vocabulary items, phraseological units carry pragmatic and cultural meanings, often making them difficult to translate directly. In comparison to more analytic approaches, corpus-informed methods offer a more realistic model of how language is used in context. This shift emphasizes the need for language teaching to incorporate more natural and frequent multi-word expressions, moving beyond sentence-level grammar to discourse-level competence.

According to Wray, formulaic language makes up between 30% and 50% of discourse, highlighting the central role of phraseology in language use. This understanding has profound implications for language teaching, as traditional word-by-word approaches fail to address the ubiquitous nature of phraseological units in authentic communication.

This research carries important implications for language teaching, as traditional approaches that focus on individual words and grammatical rules often fail to reflect how language is used authentically. Emphasizing phraseological units in teaching not only enhances learners’ fluency and communicative competence but also bridges the gap between classroom language and real-world usage. Therefore, incorporating these units into instructional practices is essential for more effective and realistic language acquisition.

The theoretical framework underpinning corpus-informed approaches to teaching phraseological units draws from several complementary perspectives:

Sinclair’s idiom principle posits that language users have available to them a large number of semi-preconstructed phrases that constitute single choices in the lexicon. This contrasts with the open-choice principle, which views language production as a series of slots to be filled with individual words.

John Sinclair proposed two fundamental principles to explain how language is structured and processed: *the idiom principle* and *the open-choice principle*. These concepts are central to corpus linguistics and the study of phraseology.

*The idiom principle* asserts that fluent language users frequently rely on a mental repository of semi-preconstructed phrases – also known as formulaic sequences or multi-word expressions – that are treated as single units of meaning and usage. These include collocations, idioms, lexical bundles, and other recurrent word combinations. According to Sinclair, speakers do not construct every utterance from scratch but instead retrieve these ready-made units, which speeds up processing and enhances communicative efficiency. These phrases are not always idiomatic in the traditional sense (e.g., "kick the bucket") but may be regular and transparent combinations (e.g., "make a decision," "in the middle of").

The idiom principle reflects the chunking nature of language use, where prefabricated segments are employed rather than word-by-word construction. This principle is strongly supported by corpus-based evidence showing that natural discourse is highly patterned and repetitive.

In contrast, *the open-choice principle* conceptualizes language as a slot-and-filler system, in which grammatical structures offer open slots that can be filled by any word class that is syntactically appropriate. This approach assumes a more generative and compositional model of language, emphasizing flexibility and creativity.

While the open-choice principle is necessary to account for novel utterances and syntactic variation, Sinclair argued that it is secondary to the idiom principle in actual language use. In practice, speakers default to the idiom principle, especially in fluent and spontaneous communication, because it reduces cognitive load and enhances fluency.

These principles have significant *implications* for:

- **Language Teaching:** Instruction should focus more on teaching chunks and collocations, not just isolated vocabulary and grammar.
- **Lexicography:** Dictionaries must include common phraseological patterns, not just single-word entries.
- **Natural Language Processing (NLP):** Algorithms for machine translation and language modeling benefit from incorporating phraseological units for greater accuracy.

Hoey's theory of lexical priming suggests that words become "primed" to occur in particular contexts and co-occurrences through repeated exposure. This explains why certain word combinations sound natural while others, though grammatically correct, may sound odd to native speakers.

Collocations are words that frequently co-occur with statistical significance. Nation classifies them along a continuum from free combinations to restricted collocations. Corpus research by Nesselhauf has shown that even advanced learners struggle with collocational competence, particularly with combinations that are semantically transparent but lexically restricted.

Nadja Nesselhauf investigates how second language (L2) learners – especially those at advanced levels – deal with *collocational competence*. Collocations refer to combinations of words that frequently co-occur in natural language, and these combinations are often *semantically transparent* (i.e., their meaning is clear from the individual words) but lexically restricted (i.e., only specific words can be used together). Nesselhauf's research sheds light on the difficulties L2 learners face when acquiring such combinations.

Collocations are often classified into several categories, such as:

**Adjective + Noun** (e.g., strong coffee, heavy rain)

**Verb + Noun** (e.g., make a decision, take a risk)
**Noun + Noun** (e.g., traffic jam, data analysis)
**Adverb + Adjective** (e.g., deeply concerned, highly motivated)

For native speakers, the use of these combinations feels *natural* and intuitive, as they have been learned through extensive exposure to the language. However, for L2 learners, mastering collocations can be challenging because of the lexical restrictions involved. Even if a learner understands the individual meanings of the words involved, they may still struggle with knowing which words can be combined together naturally. For instance, in English, it is common to say *strong coffee*, but it would sound odd to say *powerful coffee,* even though strong and *powerful* are synonyms in some contexts.

Nesselhauf's corpus-based research has shown that even advanced L2 learners often struggle with collocational competence, particularly when dealing with combinations that are semantically transparent but lexically restricted. This finding is significant because it challenges the assumption that advanced learners have acquired full fluency in collocations by the time they reach higher proficiency levels.

The research suggests that while advanced learners may have a solid grasp of grammar and vocabulary, they still face considerable difficulty in using collocations accurately. This is because collocations are not simply a matter of combining words based on their individual meanings but also involve *linguistic intuition* about which words naturally occur together in a particular language. This intuition is shaped by repeated exposure to language in context and cannot be easily acquired through explicit learning of individual words or grammatical rules.

One of the main issues identified in Nesselhauf's work is the phenomenon of overuse of non-native collocations, where learners mistakenly produce word combinations that may be grammatically correct but do not reflect the authentic usage patterns of native speakers. For example, a learner might say do a mistake instead of the correct make a mistake, or strong tea instead of weak tea, despite understanding the individual meanings of strong and weak.

Additionally, advanced learners may fail to recognize that some collocations have a preference for particular lexical items, even when alternative words are semantically close. For instance, learners might be aware that strong can be used in contexts such as strong argument or strong opinion, but might not know that powerful is a more natural choice in other contexts, like powerful speech or powerful influence.

Nesselhauf's research highlights the usefulness of corpus linguistics in identifying these patterns. By analyzing large, authentic corpora of learner language, Nesselhauf was able to uncover the specific areas where advanced learners struggle with collocations and identify the most frequent errors. This approach allowed her to pinpoint particular lexical pairs that learners often misuse, which can then be targeted in language teaching.

For instance, in a corpus of learner language, a phrase like make a photo might appear frequently, even though native speakers would typically say take a photo. Such insights are valuable for both lexical acquisition and teaching methodologies.

Nesselhauf's findings have significant implications for language pedagogy:

*Collocation Instruction:* Teaching collocations should go beyond isolated vocabulary lists and grammar rules. Learners need to be exposed to frequent word combinations in context to develop their collocational competence

*Corpus-Based Pedagogy:* The use of learner corpora can provide teachers with real data on the types of errors learners make and the most problematic areas in their use of collocations. Teachers can then design targeted activities to address these issues.

Authentic Input: Teachers should expose learners to authentic language input, such as spoken corpora or real-world texts, to provide examples of how collocations are used naturally.

Phraseological units (PUs) – which include idioms, collocations, fixed expressions, and phrasal verbs – play a vital role in mastering a language. They convey figurative meaning, social tone, and cultural references. However, learners often struggle with acquiring these units due to their non-literal meanings and usage restrictions. Corpus-informed teaching offers a solution by providing real, context-rich examples from authentic language data. Using corpora helps learners understand how PUs function in everyday discourse, improving both receptive and productive skills.

Phraseological units are multi-word expressions whose meanings cannot always be deduced from their individual components. For instance, the idiom:

*"Kick the bucket"*

This phrase does not literally mean to kick a bucket. In corpus examples, it appears in sentences such as:

*"He finally kicked the bucket last winter after a long illness."*

Here, the idiom means to *die.* Corpus data shows it is typically used informally and often appears in narratives or humorous contexts. Teaching this through a corpus makes learners aware of its connotative tone, frequency, and contexts where it's appropriate or inappropriate.

Corpora highlight how certain words naturally occur together, a feature known as collocation. For example:

*"Make a decision" vs. "Do a decision"*

The corpus shows that "make a decision" occurs far more frequently than "do a decision," which is rare or unnatural. Learners benefit from understanding:

*"The board made a decision to cut funding."*

This helps reinforce correct usage. Without corpus data, learners may rely on logical assumptions, leading to errors.

By displaying multiple corpus lines with the same idiom, learners can see its grammatical flexibility and typical use. Consider:

*"Spill the beans"*

*Corpus lines may show:*

*"He accidentally spilled the beans about the surprise party."*

*"Don't spill the beans before the announcement!"*

Learners notice that the verb form changes, but the idiom retains its meaning – to reveal a secret. They also observe that the idiom is often used in informal or spoken contexts.

Corpora allow teachers to show how the usage of PUs varies across genres. For instance:

*"In hot water"*

*"The minister found himself in hot water after the controversial decision."*

The phrase means to be in trouble. Corpus data shows it is frequent in journalistic writing about public figures. Thus, learners understand not only meaning but who typically uses it and where.

High-frequency PUs should be prioritized in teaching. Corpus tools provide ranked lists of idioms and collocations based on usage frequency. Consider:

*"Take into account"*

*"We must take into account all possible outcomes."*

Corpus data shows this is much more frequent than alternatives like "consider into," which do not exist in natural usage. Presenting this data helps learners focus on real, productive expressions.

Some PUs allow for variation, while others are fixed. Corpus use clarifies this:

*"Hit the nail on the head"*
*"You really hit the nail on the head with that analysis."*

This idiom is very fixed in structure. Corpus evidence shows that changes like *"hit the hammer on the nail"* are virtually nonexistent and would confuse listeners. Understanding this helps learners avoid incorrect rewording.

Some idioms carry cultural meaning that corpus examples help decode. For instance:

*"Bite the bullet"*
*"I finally bit the bullet and went to the dentist."*

The idiom originates from historical wartime practices but is now used metaphorically to mean endure something painful. Corpus usage shows it is often employed in first-person narratives and with tasks people avoid.

Allowing learners to explore corpus examples themselves (e.g., via tools like COCA or BNC) builds analytical skills. Students can:

- Identify which verb forms co-occur with an idiom.
- Note collocational partners (e.g., "strong tea" vs. "powerful tea").
- Distinguish formal vs. informal expressions.

This leads to discovery-based learning, where students become active participants in the process of language acquisition.

**Conclusion:**

Corpus linguistics, through its empirical analysis of authentic language data, provides a reliable foundation for identifying frequent and contextually appropriate phraseological patterns. Sinclair's idiom principle and Hoey's lexical priming theory offer valuable insights into how language is cognitively processed and stored, affirming the psychological and functional reality of formulaic sequences in fluent discourse. In contrast to the open-choice principle, which presumes syntactic freedom and compositional creativity, these corpus-based theories reveal that real-world language use heavily relies on prefabricated chunks that facilitate processing efficiency and ease of communication.

The evidence presented, particularly from Nesselhauf's studies, highlights that even advanced second language (L2) learners encounter persistent difficulties with collocational competence, especially in managing semantically transparent but lexically restricted combinations. This indicates that lexical knowledge alone is insufficient without a deep familiarity with authentic usage patterns. Collocational errors, such as do a mistake instead of make a mistake, reflect learners' overgeneralization based on grammatical logic rather than exposure to conventionalized usage.

These findings carry significant pedagogical implications. First, they call for a shift in instructional focus from individual word teaching to the teaching of frequent and contextually relevant word combinations. Second, they support the integration of corpora both general and learner-specific into the language classroom to provide learners and instructors with data-driven insights into authentic usage. Such integration enables the identification of common learner errors and supports the development of targeted teaching materials that reflect actual language use.

In sum, corpus-informed pedagogy offers a powerful framework for enhancing the teaching and acquisition of phraseological units. By aligning instruction with the realities of language as it is used, rather than as it is traditionally taught, this approach fosters greater fluency, accuracy, and appropriateness in learner production. As language education continues to evolve, the incorporation of corpus-based methodologies represents not merely an innovation, but a necessary progression toward more effective and realistic models of language learning.

Corpus-informed approaches to teaching phraseological units bridge the gap between theory and practice by showing how language is used in real communication. Rather than teaching idioms or collocations as isolated phrases, corpora reveal their frequency, register, grammatical behavior, and discourse functions. This allows learners to acquire phraseology that is natural, fluent, and appropriate for various contexts. Through consistent exposure to authentic usage, learners develop not only linguistic competence but also pragmatic and cultural sensitivity.

**References:**


1. Mc Enery T., & Hardie A. Corpus linguistics: Method, theory and practice. Cambridge University Press, 2012.
2. Sinclair J. Corpus, concordance, collocation. Oxford University Press, 1991.
3. Wray A. Formulaic language and the lexicon. Cambridge University Press, 2002.
4. Sinclair J. Trust the text: Language, corpus and discourse. – Routledge, 2004.
5. Hoey M. Lexical priming: A new theory of words and language. – Routledge.
6. Nesselhauf N. Collocations in a learner corpus. John Benjamins, 2005.
7. Rasulova M. Korpus lingvistikasi: nazariya va amaliyot asoslari. – Toshkent: Fan va texnologiya nashriyoti, 2020.
8. Bozorov F. Tilshunoslikda frazeologik birliklarni o‘rgatish metodikasi. – Samarqand: SamDU nashriyoti, 2019.
9. Juraev N. Ingliz tili o‘qitishda kollokatsiyalarni o‘rgatishning zamonaviy yondashuvlari. O‘zbekiston filologiyasi ilmiy jurnali, №3, 2021. – B. 45-52.
10. Xudoyberganova, D. Leksik birliklar va ularning korpus asosida tahlili. Filologiya masalalari, №1, 2018. – B. 63-70.

# O‘QUV JARAYONIDA RAQAMLI TA’LIM RESURSLARIDAN FOYDALANISHNING O‘ZIGA XOS JIXATLARI

**Niyozov Muhammad Baxronovich,** Guliston davlat pedagogika instituti “Aniq fanlar” kafedrasi dotsenti, p.f.f.d. (PhD)
**e-mail:** niyozov_info@bk.ru
**Husanova Dilrabo Kurbanbayevna,** Guliston shahar 2-umumta’lim maktabda Informatika fani o‘qituvchisi
**e-mail:** dilrabohusanova00@gmail.com

**Annotatsiya.** Maqolada o‘quv jarayonida o‘quvchi-talabalar uchun axborot-ta’lim muhiti ko‘lami kengayib borayotgan davrda zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalariga asoslangan ta’lim olish vositalarini yaratish va ulardan samarali foydalanish zarurligi hozirgi kunning asosiy talablaridan biri ekanligi, ta’lim jarayonida raqamli ta’lim resurslaridan foydalanishning o‘rni, ahamiyati va imkoniyatlari keltirilgan. Raqamli ta’lim resurslarini yaratish va undan foydalanish uchun axborot-kommunikatsiya texnologiyalari bo‘yicha bilim va ko‘nikmalar talab etiladi. Raqamli ta’lim resurslari o‘quv jarayonida foydalanish natijasida, o‘quvchi-talabalarga qo‘shimcha axborot resurslari bilan ta’minlanganligi hamda dars jarayonida va darsdan tashqari vaqtlarda foydalanishlari haqida qisqacha mazmuni yoritilgan.

**Kalit so‘zlar:** o‘quv jarayoni, raqamli ta’lim resurslari, masofali o‘qitish, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, o‘quv-uslubiy materiallar.

# ОСОБЕННОСТИ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ ЦИФРОВЫХ ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ РЕСУРСОВ В ПРОЦЕССЕ ОБУЧЕНИЯ

**Аннотация:** В статье показано, что в эпоху расширения сферы применения информационно-образовательной среды для обучающихся в образовательном процессе, необходимость создания и эффективного использования образовательных средств на основе современных информационно-коммуникационных технологий является одним из основных требований современности, а также представлены роль, значение и возможности использования цифровых образовательных ресурсов в образовательном процессе. Для создания и использования цифровых образовательных ресурсов необходимы знания и умения в области информационно-коммуникационных технологий. В результате использования цифровых образовательных ресурсов в образовательном процессе обучающиеся обеспечиваются дополнительными информационными ресурсами и кратко рассматривается их использование во время и вне занятий.

**Ключевые слова:** образовательный процесс, цифровые образовательные ресурсы, дистанционное обучение, информационно-коммуникационные технологии, учебно-методические материалы.

# SPECIFIC ASPECTS OF USING DIGITAL EDUCATIONAL RESOURCES IN THE LEARNING PROCESS

**Annotation:** The article shows that in the era of expanding the scope of the information and educational environment for students in the educational process, the need to create and effectively use educational tools based on modern information and communication technologies is one of the main requirements of the present day, and the role, importance and opportunities for using digital educational resources in the educational process are presented. Knowledge and skills in information and communication technologies are required to create and use digital educational resources. As a result of using digital educational resources in the educational process, students are provided with additional information resources and their use during and outside of class is briefly discussed.

**Keywords:** educational process, digital educational resources, distance learning, information and communication technologies, educational and methodological materials.

**Kirish.** Ta’lim - bu insonning tizimlashtirilgan bilim, ko‘nikma va qobiliyatlarni o‘zlashtirishi, dunyoqarashi va bilim jarayonlarini shakllantirish jarayoni va natijasi. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining jadal rivojlanishi va Internetdan keng foydalanish butun dunyoda qo‘llaniladigan pedagogik texnologiyalarning sifat jihatidan o‘zgarishiga olib keldi. Yaratilayotgan tizimlarning tobora murakkablashib borishi va ishlab chiqarish muhiti talablarining sifat jihatidan o‘zgarishi (raqamli ishlab chiqarishga o‘tish) kadrlarni tayyorlash bo‘yicha o‘quv faoliyatini qayta ko‘rib chiqish zarurligiga olib keladi. Mehnat muhitining ushbu yangi xususiyatlari elektron o‘quv resurslari tarkibining muvofiqligini ta’minlash uchun kitoblardan raqamli ta’lim resurslariga o‘tishni talab qiladi.

Ma’lumki, Respublikamizning barcha ta’lim muassasalari o‘quv jarayonida o‘qitishning zamonaviy shakllari va uslullarini qo‘llash, ta’lim tizimida axborot va pedagogik texnologiyalardan unumli foydalanish, ular yordamida ta’lim tizimini talab darajasiga etkazish ustida bir qancha ishlar olib borilmoqda. O’quv jarayonida o‘qitishning zamonaviy shakllari va usullarini qo‘llash, axborot texnologiyalaridan unumli foydalanish, masofali o‘qitish texnologiyalarini joriy qilish masalalari dolzarb muammolardan biri hisoblanadi.

O’quv jarayoni uchun yaratilgan raqamli ta’lim resurslari o‘quv jarayoni mobaynida namoyish etish vositasi, kompyuter sinflarida tashkil etiladigan mustaqil ishlash mashg‘ulotlarida repititor, mustaqil ta’lim olishga vosita, amaliy va laboratoriya ishlarini bajarish mobaynida uslubiy yordamchi, o‘quvchilar tomonidan bilimlarni o‘zlashtirishini nazoratchisi, amaliy va laboratoriya mashg‘ulotlari uchun masala va mashqlar bilan ta’minlovchidir.

Raqamli ta’lim resurslari o‘quvchilarga axborotni o‘qish, ma’ruzalarni eshitish, amaliy va laboratoriya mashg‘ulotlariga mo‘ljallangan vazifalarni bajarish, o‘z bilimlarini tekshirish va zarur hollarda ularni to‘ldirish, o‘z-o‘zini nazorat qilish kabi bilim shakllarini tavsiya etishi mumkin.

Raqamli ta’lim resurslari o‘z ichiga trenajyorlar, amaliy va laboratoriya mashg‘ulotlari uchun vazifalar, test topshiriqlari, bir vaqtning o‘zida bilim berish va ularni o‘zlashtirish jarayonini nazorat qiluvchi dasturiy ta’minotlarni qamrab oladi. Boshqacha aytganda u o‘quv predmetlarining asosiy axborotli qismini bayon etuvchi, olingan bilimlarni mustahkamlashga mo‘ljallangan mashqlar, o‘quvchilarning bilimlarini baholash imkoniyatini beradigan test texnologiyalaridan tashkil topadi.

O‘quv jarayoniga mo‘ljallangan raqamli ta’lim resurslari quyidagi imkoniyatlarga ega bo‘lishi kerak:

- Teskari aloqani ta’minlash;
- Kerakli axborotlarni tez topishga yordam berish;

- Gipermatnli tushuntirishlarga ko‘p marta murojaat qilishda vaqt hisobini e’tiborga olish;
- Ekranga ma’lumotlarni chiqarishda kompyuterning multimediali imkoniyatlaridan foydalanish;
- Predmetning har bir bo‘limi bo‘yicha o‘quvchilarning o‘zlashtirish darajalariga mos holda bilimlarini baholay olish;
- Predmetning o‘quv axborot bazalarini yangilash imkoniyatini yaratish.

Ta’lim tizimida o‘quv jarayoniga axborot-kommunikatsiya texnologiyalari qo‘llanilsa ta’lim-tarbiya jarayoni jadallashtiriladi. Ta’lim-tarbiya jarayonini jadallashtirishning asosiy omillari qatoriga quyidagilarni keltirish mumkin:

- maqsadga yo‘naltirilganlik;
- o‘quvchilarning motivatsiyasini kuchaytirish;
- ta’lim mazmunining axborotli hajmini kengaytirish;
- o‘quvchilarning o‘quv-bilish faoliyatini faollashtirish;
- o‘quvchilarning o‘quv-amaliy darajasini mustahkamlash va boshqalar.

Raqamli ta’lim resurslarini o‘quv jarayonida mustaqil ta’lim mashg‘ulotlarini samarali tashkil qilishda ahamiyati juda katta hisoblanadi. Raqamli ta’lim resurslaridagi kompyuterning dasturiy vositalari asosida yaratilgan o‘quv-uslubiy materiallar va elektron darsliklardan foydalanishdan asosiy maqsad zamonaviy axborot – ta’lim uslubini shakllantirish, zamonaviy axborot-pedagogik, axborot va kompyuter texnologiyalarini qo‘llash orqali ta’lim jarayonining samaradorligi, sifati va unimdorligini oshirish, uzluksiz ta’lim tizimida zamonaviy o‘quv manbalari elektron o‘quv darsliklarini keng qo‘llash, ularning ma’lum ma’noda kutubxonalarini tashkil etish, ta’limning masofadan o‘qitish usullarini amalda joriy etish va umumjahon elektron o‘quv tizimiga kirishdan iborat.

Kompyuter va telekommunikatsiya texnologiyalari orqali masofali o‘qitish jarayonini tashkil qilishda raqamli ta’lim resurslari, elektron darsliklar va virtual stendlarning yaratilishiga alohida e’tibor berish kerak. Raqamli ta’lim resurslari va unda joylashgan multimediali elektron darsliklar asosida o‘quv jarayonini tashkil qilish, an’anaviy o‘qitishga nisbatan o‘zining bir qancha afzallik tomonlari borligini ko‘rsatadi. Ularga quydagilarni keltirish mumkin:

- O‘qituvchiga o‘quv materiallarini ta’lim oluvchilarga etkazib berishda birmuncha engillashtirilishi;
- Dars jarayonida berilayotgan o‘quv materiallarning takroriy holda namoyish qilish imkoniyatining mavjudligi;
- Ta’lim oluvchilar o‘zlashtirish darajasining yuqori bo‘lishiga erishish;
- Multimediali elektron darsliklar tarkibida ko‘rgazmali virtual stendlar tashkil qilish imkoniyati;
- Amaliy va laboratoriya mashg‘ulotlarini video, audio va animatsiyali vositalar orqali qiziqarli tashkil qilish imkoniyati;
- Tavsiya qilingan o‘quv materiallaridan ommaviy tarzda foydalanish, ya’ni tarmoq texnologiyalari yordamida bir yoki bir nechta auditoriyada va guruhlarda foydalanish imkoniyatining mavjudligi;
- O‘quv materiallari ma’lumotlar bazasini tezkor ravishda o‘zgartirib, yangi axborot zaxiralarini kiritish imkoniyatining mavjudligi;
- Amaliy va laboratoriya mashg‘ulotlari mobaynida ma’ruza materiallariga o‘tish imkoniyatining yaratilishi;
- Masofadan o‘qitish uchun asosiy vositalardan biri sifatida foydalanish imkoniyati;
- Ta’lim oluvchilarning individual bilimlarini baholash, nazorat qilish va boshqalar.

Bunday imkoniyatlarga ega bo‘lgan o‘quv materiallarini masofali o‘qitishga tadbiq etish, bir vaqtning o‘zida ta’lim oluvchilarga o‘quv materiallarini ko‘rish, o‘qish, eshitish, mulohaza qilish va qayta-qayta takrorlab o‘z bilimlarini oshirish imkoniyatlarini yaratadi. Axborot texnologiyalarini o‘quv jarayoniga qo‘llanilishi, ayniqsa multimediali vositalardan foydalanish o‘quv jarayoninig didaktiv ko‘rinishda tasvirlash uchun juda katta imkoniyatlar yaratadi.

Raqamli ta’lim resurslaridagi mustaqil ta’lim mashg‘ulotlari uchun yaratilgan elektron o‘quv-uslubiy materiallar avtomatlashtirilgan dasturiy vositalar yordamida faoliyat olib boradi. Avtomatlashtirilgan o‘quv-uslubiy materiallar ta’lim oluvchilarga kerakli mavzular bo‘yicha ma’lumotlarni tavsiya etadi va bilimlarni nazorat qiladi. Bilimlarning nazorati natijasiga qarab ta’lim oluvchilarga turli saviyadagi topshiriqlar tavsiya qilinadi. Avtomatlashtirilgan o‘quv-uslubiy ta’lim vositalari yordamida ta’lim oluvchilar o‘qituvchining yordamisiz ham o‘z bilimlarini oshirib takomillashtirib borishi mumkin

O‘quv jarayonida raqamli ta’lim resurslaridan foydalanishning afzalliklari quyidagilardan iborat:

- ta’lim jarayonida berilayotgan materiallarni chuqurroq va mukammalroq o‘zlashtirish;
- ta’lim olishning yangi shakllarini joriy qilish;
- dars jarayonida bilim olish vaqtining qisqarishi natijasida vaqtni tejash imkoniyati;
- olingan bilimlar kishi xotirasida uzoq muddat saqlanib qolinishi va uni amaliyotda qo‘llash mumkinligi.
- o‘quvchilarda ma’lum malakalarni shakllantirish vaqti qisqaligi;
- mashg‘ulotlarda bajariladigan topshiriqlar sonining oshishi;
- kompyuter tomonidan faol boshqarishni talab qilinishi natijasida o‘quvchi ta’lim sub’ektiga aylanishi;
- o‘quvchilar kuzatishi, mushohada qilishi qiyin bo‘lgan jarayonlarni modellashtirish va bevosita namoyish qilish imkoniyatining hosil bo‘lishi va boshqalar.

O‘quv jarayonini avtomatlashtirish, masofali o‘qitishning asosiy vositalaridan biri bo‘lgan o‘quv-uslubiy ta’minotni yaratish va ularni takomillashtirish muammolarini hal qilish bo‘yicha barcha iqtisodiy rivojlangan mamlakatlar kabi respublikamizda ham turli yo‘nalishdagi ilmiy tadqiqot ishlari olib borilmoqda. Shu jumladan, Guliston davlat pedagogika instituti talabalari uchun https://mk.gspi.uz/ raqamli ta’lim resursi yaratilgan va undagi axborot resurslardan dars jarayonida va darsdan tashqari vaqtlarda talabalar foydalanib kelishmoqda.

**Xulosa.** o‘rnida shuni aytish mumkinki raqamli ta’lim resurslarini tahlil qilish orqali biz o‘quv jarayoniga internet muhiti tomonidan taqdim etilgan imkoniyatlardan foydalanishimiz zarur, degan xulosaga kelishimiz mumkin. Bu barcha talabalarni o‘quv jarayoniga faol jalb qilish, o‘qish motivatsiyasini va shunga mos ravishda ta’lim sifatini oshirishga imkon beradi.

## Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Abduqodirov A. A., Toshtemirov D. E. Ta’lim muassasalarida axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish metodikasi. // Monografiya. – Guliston: Universitet, 2019. – B. 232.

2. Niyozov M. B. O‘quv jarayonida web texnologiyalar va ulardan foydalanish metodikasi // Monografiya. – Toshkent: Bookmany Print, 2023. 124-b.

3. Niyozov M. B., Niyozova G. B. O‘quv jarayonida elektron ta’limning imkoniyatlaridan foydalanish // Pedagogik va psixologik tadqiqotlar ilmiy-amaliy jurnal 1-son, yanvar, 2023, – B. 146-152.

4. Niyozov M.B. Ta’lim jarayonida raqamli texnologiyalardan foydalanishning afzalliklari // “Uzluksiz ta’lim tizimida raqamli va innovatsion texnologiyalarning dolzarb muammolari” mavzusida xalqari ilmiy-amaliy anjuman materiallari 1-qism, 2024-yil 22-23-noyabr, Guliston-2024, – B. 248-251.

5. Toshtemirov D. E., Niyozov M. B., Yuldashev U. A., Irsaliev F. Sh. Resource support of distance course information educational environment // Journal of Critical Reviews ISSN- 2394-5125 Vol 7, Issue 5, 2020, pp. 399-400

# MEDIATA’LIM: ZAMONAVIY AXBOROT JAMIYATIDA O‘RNI VA AHAMIYATI

**Xudayberdiyev Abdumadjid Abdujalilovich,** Guliston Davlat pedagogika instituti mustaqil tadqiqotchisi
**e-mail:** Abdumajid85@inbox.uz
**Raxmanberdiyev IlxamAnarbayevich,** GulDPI Ijtimoiy fanlar fakulteti yoshlar bilan ishlash bo‘yicha dekan o‘rinbosari
**e-mail:** ilxomrahmonberdiyev@gmail.com

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada mediata’limning zamonaviy axborot jamiyatidagi o‘rni va ta’lim tizimidagi ahamiyati tahlil qilingan. Axborot texnologiyalarining tezkor rivojlanishi sharoitida yosh avlodda tanqidiy fikrlash, axborot xavfsizligi va raqamli savodxonlikni shakllantirish zarurati ortib bormoqda. Shu jihatdan mediata’lim nafaqat ta’lim tizimining ajralmas qismi, balki fuqarolik ongini shakllantirish vositasi sifatida ham qaraladi. Maqolada mediata’limni ta’lim jarayoniga joriy etish usullari, o‘qituvchilar tayyorgarligi va interaktiv metodlarning ahamiyati yoritilgan.

**Kalit so‘zlar:** mediata’lim, axborot jamiyati, tanqidiy fikrlash, axborot xavfsizligi, raqamli savodxonlik, ta’lim tizimi, o‘qituvchi malakasi, zamonaviy texnologiyalar;

# МЕДИАОБРАЗОВАНИЕ: МЕСТО И ЗНАЧЕНИЕ В СОВРЕМЕННОМ ИНФОРМАЦИОННОМ ОБЩЕСТВЕ

**Аннотация.** В статье анализируется роль медиаобразования в современном информационном обществе и его значение в системе образования. В условиях стремительного развития информационных технологий возрастает необходимость формирования критического мышления, информационной безопасности и цифровой грамотности у подрастающего поколения. В этой связи медиаобразование рассматривается не только как неотъемлемая часть системы образования, но и как средство формирования гражданственности. В статье освещаются методы внедрения медиаобразования в образовательный процесс, значение подготовки учителей и интерактивных методов.

**Ключевые слова:** медиаобразование, информационное общество, критическое мышление, информационная безопасность, цифровая грамотность, система образования, квалификация учителей, современные технологии;

# MEDIA EDUCATION: ITS PLACE AND IMPORTANCE IN THE MODERN INFORMATION SOCIETY

**Abstract**. This article analyzes the role of media education in the modern information society and its importance in the education system. In the context of the rapid development of information technologies, the need to form critical thinking, information security and digital literacy in the younger generation is increasing. In this regard, media education is considered not only an integral part of the education system, but also a means of forming civic consciousness. The article highlights the

methods of introducing media education into the educational process, the importance of teacher training and interactive methods.

**Keywords:** media education, information society, critical thinking, information security, digital literacy, education system, teacher qualifications, modern technologies;

**Kirish.** XXI asrda insoniyat jamiyati raqamli texnologiyalar va ommaviy axborot vositalari ta’sirida tubdan o‘zgarib bormoqda. Axborot oqimi har soniyada ortib borayotgan bir paytda, odamlar, ayniqsa yosh avlod, turli xil manbalardan kelayotgan ma’lumotlarni tezda qabul qiladi, qayta ishlaydi va ularga munosabat bildiradi. Bunday sharoitda ta’lim tizimi oldida turgan eng muhim vazifalardan biri – shaxsda axborot madaniyati, tanqidiy fikrlash va raqamli savodxonlikni shakllantirishdan iboratdir. Aynan shu jihatlar mediata’lim tushunchasi bilan bevosita bog‘liq bo‘lib, u nafaqat pedagogik, balki ijtimoiy va madaniy muammo sifatida ham dolzarblik kasb etmoqda.

**Mediata’lim –** bu nafaqat OAVdan foydalanish ko‘nikmalarini rivojlantirish, balki axborot manbalariga nisbatan tanqidiy yondashuv, axborotlarni tahlil qilish va baholash, shuningdek, axborotni ongli ravishda yaratish qobiliyatlarini shakllantirishga yo‘naltirilgan tizimli ta’limiy faoliyatdir. UNESCO (United Nations Educational, Scientific and Cultural Organization) tomonidan mediata’lim global ta’lim siyosatining ajralmas qismi sifatida ko‘rilmoqda. Tashkilotga ko‘ra, mediata’lim demokratiya, inklyuzivlik va axborotga teng imkoniyatlarni ta’minlash vositasi sifatida xizmat qiladi [1].

Zamonaviy axborot jamiyatida yoshlar ko‘plab raqamli platformalar – ijtimoiy tarmoqlar, bloglar, veb-saytlar, video va podkast xizmatlari orqali uzluksiz axborot iste'molchisiga aylanmoqda. Ularning ongli qarorlar qabul qilishi, feyk (soxta) yangiliklardan saqlanishi, shaxsiy ma’lumotlarni himoya qilishi – bevosita mediata’lim saviyasiga bog‘liq. Shu sababli, mediata’lim bugungi ta’lim siyosatida shunchaki qo‘shimcha dars emas, balki muhim strategik yo‘nalish sifatida qaralmoqda.

Maqolada mediata’limning zamonaviy axborot makonidagi o‘rni, uni ta’lim tizimiga integratsiyalash usullari va yosh avlodning axborot madaniyatini shakllantirishdagi ahamiyati chuqur tahlil qilinadi.

**Ilmiy adabiyotlar tahlili va metodologiya.**

Mediata’lim konsepsiyasi ilk bor XX asrning ikkinchi yarmida G‘arb davlatlarida shakllana boshlagan bo‘lib, uning nazariy asoslari Kanada, AQSh, Buyuk Britaniya va Avstraliya olimlarining tadqiqotlarida keng yoritilgan. Ayniqsa, mashhur olim Marshall McLuhanning “medium is the message” (vosita – bu xabarning o‘zi) degan g‘oyasi mediata’lim nazariyasining poydevoriga aylangan. Unga ko‘ra, axborot manbai va uni etkazish usuli inson tafakkuriga xabar mazmunidan ko‘ra ko‘proq ta’sir ko‘rsatadi (McLuhan, 1964).

UNESCO tomonidan 1982-yilda Parijda qabul qilingan “Media education declaration”da mediata’limning global o‘rni va ta’lim siyosatidagi ahamiyati **ilk bor** rasmiy ravishda tan olingan. Keyinchalik 2011-yilda ishlab chiqilgan “Media and Information Literacy Curriculum for Teachers” nomli UNESCO hujjatida pedagoglar uchun mediata’lim asoslari bo‘yicha metodik qo‘llanmalar tavsiya etilgan. Ushbu hujjatda mediata’lim ta’lim tizimining barqaror tarkibiy qismi sifatida ko‘rilgan.

Rossiya olimlaridan A. V. Fedorov mediata’limni “mediamahsulotlar bilan ishlash orqali insonda estetik, axloqiy, ijtimoiy, psixologik va kommunikativ kompetensiyalarni shakllantirish” deb tariflaydi. Uning tadqiqotlarida maktab va oliy ta’lim muassasalarida mediata’limni integratsiyalash tajribalari, ayniqsa vizual axborot vositalarining o‘quvchilarga ta’siri keng yoritilgan.

O‘zbekiston tajribasiga to‘xtaladigan bo‘lsak, hozirgi kunda mediata’lim hali to‘liq shakllanmagan bo‘lsa-da, bu boradagi dastlabki qadamlar tashlangan. Xususan, 2023-yilda O‘zbekiston Respublikasi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi hamda Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi tomonidan “Media va axborot savodxonligi bo‘yicha o‘quv-uslubiy tavsiyalar” ishlab chiqildi. Ushbu hujjatlarda o‘qituvchilar uchun mediata’lim elementlarini o‘quv jarayoniga qo‘shish bo‘yicha tavsiyalar keltirilgan.

Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, mediata’lim o‘quvchilarda tanqidiy fikrlash (critical thinking), axborotlarni saralash va noto‘g‘ri ma’lumotlarni farqlash ko‘nikmalarini kuchaytiradi. Masalan, 2019-yilda “Journal of Media Literacy Education” jurnalida chop etilgan tadqiqotda mediata’lim kurslarini o‘tagan o‘quvchilar orasida yolg‘on xabarlarni aniqlash qobiliyati 34% ga yuqori bo‘lgani aniqlangan.

Shuningdek, psixologik tadqiqotlar mediata’limning yoshlarning emotsional salomatligiga ham ijobiy ta’sir ko‘rsatishini ko‘rsatmoqda. AQShda olib borilgan izlanishlarga ko‘ra, media mazmunini tahlil qilishni o‘rgangan talabalar orasida ijtimoiy tarmoqlarga bog‘liqlik darajasi past bo‘lib, ular ko‘proq vaqtni intellektual faoliyatga sarflashga moyil bo‘lgan.

O‘zbekistonda ko‘plab olimlar, professor ustozlar mediata’limga oid ilmiy ishlar qilishgan, kitoblar yozishgan. Ulardan Mirkamol Alimov [2]

- “Ta’lim jarayonida mediata’limni joriy etishda o‘qituvchining roli”: Ushbu maqolada o‘qituvchilarning mediata’limni ta’lim jarayoniga integratsiyalashdagi o‘rni va ahamiyati tahlil qilingan.
- “Informatika va axborot texnologiyalari fanini o‘qitishda mediata’limni tashkil etish”: Maqolada informatika va axborot texnologiyalari fanini o‘qitishda mediata’limning samaradorligini oshirish usullari ko‘rib chiqilgan.
- “Mediata’lim sohasida interaktiv multimedia xizmatlaridan foydalanish samaradorligini oshirish”: Ushbu tadqiqotda mediata’limda interaktiv multimedia vositalarining o‘rni va ularning ta’lim samaradorligiga ta’siri tahlil qilingan.

Farxod Fayzullayev: “Tanqidiy fikrlashni mediata’lim vositasida rivojlantirish”: Maqolada mediata’lim vositalari orqali tanqidiy fikrlashni rivojlantirish usullari va metodlari ko‘rib chiqilgan [3].

Mavluda Urazaliyeva; “Yangi O‘zbekistonda media ta’lim”: Ushbu maqolada O‘zbekistonda mediata’limning hozirgi holati va istiqbollari tahlil qilingan.

Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan nashr etilgan o‘n jildlik kitoblar. Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 2020-yilda jurnalistika va mediata’limga bag‘ishlangan o‘n jildlik kitoblar nashr etilgan. Ushbu asarlarda mediata’limning turli jihatlari, jumladan, onlayn jurnalistika, audiovizual jurnalistika, media tilshunoslik va tahririyat kabi mavzular yoritilgan. Mualliflar guruhi orasida O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti va O‘zbekiston jurnalistika va ommaviy kommunikatsiyalar universiteti professor-o‘qituvchilari hamda yosh tadqiqotchilar ishtirok etgan [4].

Ushbu tadqiqotda mediata’limning zamonaviy axborot jamiyatidagi o‘rni, uni ta’lim tizimiga joriy etish zarurati va uning amaliy natijalari chuqur tahlil qilindi. Ilmiy izlanishlar quyidagi metodologik yondashuvlar asosida olib borildi:

**1. Tizimli yondashuv.**

Mediata’lim murakkab ijtimoiy-pedagogik hodisa sifatida qaralib, uning tarkibiy qismlari – o‘quvchi, o‘qituvchi, axborot vositalari, pedagogik texnologiyalar – bir butun tizim sifatida tahlil qilindi. Bu yondashuv mediata’limning ta’lim jarayoniga integratsiyalanishida qanday o‘zaro bog‘liqliklar mavjudligini aniqlash imkonini berdi.

**2. Tahliliy (analitik) usul.**

Tadqiqot davomida milliy va xalqaro miqyosda mediata’lim bo‘yicha yozilgan ilmiy maqolalar, monografiyalar, davlat dasturlari va UNESCO kabi tashkilotlarning me’yoriy hujjatlari o‘rganildi. Bu usul orqali mediata’limning kontseptual asoslari, maqsadlari, vazifalari va yondashuvlari aniqlashtirildi.

**3. Taqqoslash (komparativ) usuli.**

O‘zbekiston tajribasi boshqa rivojlangan davlatlar, xususan, Finlyandiya, Estoniya, Kanada va Rossiyadagi mediata’lim dasturlari bilan solishtirildi. Bu yondashuv O‘zbekistonda mediata’limni takomillashtirishda qanday xalqaro tajribalardan foydalanish mumkinligini ko‘rsatdi. Tadqiqotda mediata’limning mohiyati, uning afzalliklari, hozirgi holati va istiqbollari tizimli tarzda izohlanib, nazariy tushunchalar asosida yoritildi. Ushbu yondashuv mavzuni keng qamrab olish imkonini berdi. Tadqiqotda raqamli savodxonlik, axborot oqimlarining psixologik ta’siri, ijtimoiy tarmoqlardagi xatti-harakatlar kabi murakkab, chuqur tahlilni talab qiluvchi mavzular sifatli tadqiqotlar asosida o‘rganildi.

Metodologik asoslar quyidagi manbalarga tayangan:

- UNESCO, EU, Common Sense Media kabi xalqaro tashkilotlarning mediata’lim bo‘yicha dasturiy hujjatlari.
- O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi va Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan tasdiqlangan o‘quv-uslubiy materiallar.
- Mirkamol Alimov, F. Fayzullayev, M. Asqarxo‘jaeva kabi mahalliy olimlarning mediata’limga oid ilmiy maqola va tadqiqotlari.
- Finlyandiya va Rossiya tajribalari asosidagi xalqaro tadqiqotlar.

**Tadqiqot tahlili va natijalari.**

Tadqiqot davomida O‘zbekiston ta’lim tizimida mediata’limning joriy etilishi holati, mavjud muammolar, xalqaro tajriba va talabalar hamda pedagoglarning unga bo‘lgan munosabati o‘rganildi. Quyidagi asosiy yo‘nalishlarda chuqur tahlillar olib borildi:

1. Mediata’limga bo‘lgan ehtiyoj darajasi. So‘rovnoma natijalariga ko‘ra, oliy ta’lim muassasalari talabalarining 78 foizi internetdagi axborot manbalariga har kuni murojaat qilishini bildirgan. Shundan 65 foizi axborotning ishonchliligini baholash mezonlariga ega emasligini tan olgan. Bu esa talabalar orasida mediata’lim bo‘yicha savodxonlikning yetarli darajada emasligini ko‘rsatadi.

O‘qituvchilar orasida o‘tkazilgan intervyular esa shuni ko‘rsatdiki, ularning aksariyati (taxminan 70%) mediata’limni umumiy tushunchalar doirasida biladi, biroq uni darslarga metodik jihatdan qo‘shish bo‘yicha amaliy tajribaga ega emas.

**2. Talim jarayonida mediata’lim elementlarining qo‘llanilishi.**

Kuzatuv va tahlil jarayonida aniqlanishicha, ayrim oliy ta’lim muassasalarida (masalan, Jurnalistika va ommaviy kommunikatsiyalar universiteti, Toshkent axborot texnologiyalari universiteti) mediata’lim elementlari individual pedagog tashabbusi bilan darslarga kiritilmoqda. Xususan, “Axborot madaniyati”, “Internet jurnalistikasi”, “Axborot xavfsizligi” kabi modullarda mediata’limga oid komponentlar mavjud.

Biroq bunday yondashuvlar tizimli emas va umummilliy dastur bilan uyg‘unlashmagan. Shu sababli, talabalarning raqamli tafakkur, tanqidiy axborot tahlili va ommaviy axborot vositalariga nisbatan mustaqil pozitsiyani shakllantirish darajasi pastligicha qolmoqda.

**3. Xalqaro tajriba tahlili.**

Finlyandiya, Estoniya va Kanada kabi davlatlarda mediata’lim maktab darajasidan boshlab o‘quv dasturiga kiritilgan. Masalan, Finlyandiyada har bir fan o‘quvchilarga axborotni tanqidiy o‘rganish, feyk (soxta) yangiliklarni farqlash va shaxsiy ma’lumotni himoya qilish kompetensiyalarini berishni maqsad qiladi.

O‘zbekiston tajribasi bilan solishtirganda, xorijiy davlatlarda mediata’lim davlat siyosati sifatida qaralib, unga doimiy o‘quv dasturlar, tayyor o‘qituvchi kadrlar va moliyaviy-resurs ta’minoti birlashtirilgan. Bu esa O‘zbekiston uchun o‘z tajribasini yanada boyitish uchun muhim asos bo‘la oladi.

**4. Mediata’limning psixologik-ta’limiy ta’siri**

Tahlillar shuni ko‘rsatdiki, mediata’lim elementlarini darslarga kiritgan o‘qituvchilar guruhidagi talabalar orasida:

- Tanqidiy fikrlash ko‘nikmasi oshgan;
- Ijtimoiy tarmoqlardagi xatti-harakatlarda mas’uliyatli yondashuv kuchaygan;
- Internetdagi yolg‘on ma’lumotlarni aniqlash salohiyati sezilarli oshgan.

Mediata’lim nafaqat axborotni to‘g‘ri qabul qilishni o‘rgatadi, balki yoshlarning raqamli tafakkurini, axloqiy mezonlarini va fuqarolik pozitsiyasini shakllantirishda muhim vosita bo‘lib xizmat qiladi. Bugungi globallashuv sharoitida media maydoni axborot tahdidlari, yolg‘on xabarlar, manipulyatsiyalar bilan to‘la. Shunday vaziyatda yosh avlodning axborot savodxonligi darajasini oshirish ta’lim tizimining strategik maqsadlaridan biri bo‘lishi zarur. Mediata’lim hozirgi davrda nafaqat ta’lim tizimining bir bo‘lagi, balki jamiyatning axborot bilan ishlash madaniyatini shakllantiruvchi fundamental ijtimoiy zaruratga aylangan. Tadqiqot natijalari asosida shuni aytish mumkinki, O‘zbekiston ta’lim tizimida mediata’lim hali to‘liq shakllanmagan, biroq unga bo‘lgan ehtiyoj sezilarli darajada ortib bormoqda.

**Muhokama.**

Bugungi kunda axborot oqimlari cheksiz darajada ko‘paydi. Raqamli muhitda yolg‘on axborotlar, manipulyatsion kontent, ijtimoiy tarmoqlar orqali tarqalayotgan destruktiv g‘oyalar yoshlar tafakkuriga kuchli ta’sir o‘tkazmoqda. Shunday sharoitda mediata’lim:

- axborotni tanqidiy tahlil qilish,
- uning ishonchliligini baholash,
- axborotga asoslangan mustaqil qarorlar qabul qilish,

kabi kompetensiyalarni shakllantiradi. Bu esa yoshlarning mediafazo orqali ongiga ta’sir qiluvchi tashqi kuchlar qarshisida mustahkam “axborot immuniteti”ni hosil qiladi.

Tadqiqot davomida o‘rganilgan xalqaro tajribalar, xususan Finlyandiya, Kanada va Estoniya kabi mamlakatlardagi mediata’lim tizimlari shuni ko‘rsatmoqdaki:

- Mediata’lim darslik darajasidan emas, balki davlat siyosati darajasida qaraladi;
- Har bir fan doirasida mediakompetensiyalar (axborotni baholash, multimedia vositalari bilan ishlash, ijtimoiy tarmoqlarda axloqiy xatti-harakat) bo‘yicha aniq yondashuvlar ishlab chiqilgan;
- O‘qituvchilar uchun doimiy tayyorgarlik kurslari, treninglar tashkil etilgan va bu tizimiy tus olgan.

O‘zbekistonda esa mediata’lim asosan faqat jurnalistika yo‘nalishida o‘qitilmoqda, umumta’lim tizimida esa bu tushuncha endi-endi shakllanmoqda. Bu farqdan kelib chiqib, ta’lim strategiyalarini xalqaro amaliyotlar asosida, lekin mahalliy mentalitetga moslashtirish zarur. Mediata’lim – zamonaviy jamiyatda shaxsni axborotdan himoya qilish, uni axborot vositalaridan ongli foydalanishga o‘rgatish va ayni vaqtda uni axborot jamiyatining faol ishtirokchisiga aylantirish uchun zarur bo‘lgan asosiy vositadir. Tadqiqotda aniqlangan faktlar va raqamlar mediata’limni keng ko‘lamda, davlat siyosati va ta’lim strategiyasining muhim elementi sifatida joriy etish zarurligini tasdiqlaydi.

**Xulosa.** XXI asrda axborot texnologiyalari va raqamli vositalarning jadal rivojlanishi natijasida insoniyat yangi turdagi jamiyat — axborot jamiyatiga qadam qo‘ydi. Bunday sharoitda mediata’lim shunchaki pedagogik tushuncha emas, balki shaxsning axborotga asoslangan qaror qabul qilish, tanqidiy fikrlash, ijtimoiy mas’uliyatni his qilish kabi muhim ijtimoiy-ko‘nikmalarini shakllantiruvchi strategik

kompetensiyaga aylandi. Mediata'lim shuningdek, axborot xavfsizligi, shaxsiy ma'lumotlarni muhofaza qilish, ijtimoiy tarmoqlardagi madaniyat, sun'iy intellekt bilan muloqot madaniyati kabi dolzarb masalalarni hal etishda ham beqiyos vosita hisoblanadi.

Xulosa qilib aytganda, O'zbekistonda mediata'limni faqat fakultativ yoki tor sohaga tegishli fan sifatida emas, balki umumiy fuqarolik kompetensiyasi darajasidagi majburiy bilim sohasiga aylantirish va bu yo'lda ilg'or xalqaro tajribalarni mahalliy sharoitga moslashtirish zarur. Bu nafaqat ta'lim sifati, balki axborot jamiyatida yosh avlodning ongli ishtirokini ta'minlaydi.

**Takliflar.** 1. Mediata'limni umumta'lim va oliy ta'lim tizimiga tizimli ravishda joriy etish:

- Boshlang'ich sinflardan boshlab axborot madaniyati va media savodxonlik asoslari o'rgatiladigan fanlar kiritilishi lozim;
- Oliy ta'limda esa barcha yo'nalishlar uchun "Mediakompetensiyalar asoslari" fani kiritilishi tavsiya etiladi.

2. O'qituvchilar uchun malaka oshirish kurslari tashkil etish:

- Mediata'lim bo'yicha o'qituvchilarga mo'ljallangan metodik qo'llanmalar, onlayn kurslar va amaliy mashg'ulotlar ishlab chiqilishi zarur.

3. Davlat darajasida milliy mediata'lim konsepsiyasini ishlab chiqish:

- Vazirlik va mutasaddi idoralar ishtirokida mediata'limni rivojlantirish bo'yicha alohida konsepsiya va strategik reja ishlab chiqilishi kerak.

4. Mahalliy va xalqaro hamkorlikni kuchaytirish:

- UNESCO, EU, va boshqa xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlikda mediata'lim bo'yicha o'quv dasturlarini joriy etish mumkin;
- Chet el tajribasini mahalliy sharoitga moslashtirgan holda qo'llash lozim.

## Foydalanilgan adabiyotlar:


1. UNESCO. Media and Information Literacy Curriculum for Teachers. – Paris: United Nations Educational, Scientific and Cultural Organization.
2. Alimov M. Mediama'rifat: yoshlar uchun axborot xavfsizligi va media savodxonlik asoslari. – Toshkent: "O'zbekiston" nashriyoti, 2020.
3. Fayzullayev F. Media va zamonaviy jamiyat: metodik yondashuvlar. – Toshkent: TDYU nashriyoti, 2021.
4. Asqarxo'jaeva, M. Axborot madaniyati va zamonaviy ta'lim. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2019.
5. Adilova S. Multimedia vositalari va ularni ta'lim jarayonida qo'llash. Pedagogik ta'lim. 2001. – B. 20-21.
6. Xudayberdiyev A. A. "Media savodxonlik va axborot madaniyati fanini o'qitishda kompyuter texnologiyalari hamda innovatsion texnologiyalardan foydalanish" Pedagoglar malakasini oshirishning axborot-ta'lim muhitini tashkil etish: muammo va yechimlar xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya materiallari. – Guliston, 2023-yil.
7. Xudayberdiyev A. A "Media ta'limni o'quv jarayonidagi o'rni va ahamiyati". – Guliston: "Sayhun ilmiy axborotnomasi", 2023-yil 3-son.
8. Xudayberdiyev A. A "Talabalar o'rtasida axborot madaniyatini oshirish va media savodxonlikka o'rgatish" Ta'lim tizimini rivojlantirishning zamonaviy tendensiyalari: ilg'or tajribalar va rivojlanish istiqbollari mavzusidagi Respublika ilmiy-amaliy anjuman materiallari. – Guliston, 2023-yil.
9. Xudayberdiyev A. Zamonaviy axborot muhitida yoshlarning mediasavodxonlik darajasini oshirish muammolari va yechimlari. O'zMU xabarlari, – Toshkent, 2025-yil.

# “PODKAST” - YANGICHA DARS O‘TISH METODI.

**Mavlyanov Muminjon Akramovich,** Guliston Davlat pedagogika instituti “Aniq fanlar” kafedrasi o‘qituvchisi
**e-mail:** muminjonmavlyan@gmail.com
**Mamatov Jo‘rabek Saydullayevich,** Guliston davlat universiteti katta o‘qituvchisi
**e-mail:** jurabekmamatov2525@gmail.com

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada zamonaviy ta’limda podkastlardan foydalanish g‘oyasi va uning talaba-yoshlar uchun qanday imkoniyatlar yaratishi muhokama qilinadi. Xususan, “Sun’iy intellekt ta’limda: O‘qituvchi yoki robot?” mavzusi misolida darsning podkast shaklida tashkil etilishi, rollarga bo‘lingan guruhlar ishtiroki, talabalarning savol-javob asosidagi tahliliy yondashuvi va suhbat orqali bilimlarni chuqurlashtirish jarayoni yoritiladi. Shuningdek zamonaviy dars strukturasi tashkil etishda raqamli texnologiyalarni to‘la qonli foydalanish istiqbollari haqida so‘z boradi. Bugungi kunda zamonaviy dars mashg‘ulotlarini tashkil etish orqali talaba va o‘quvchilarni darslarda ishtirok etish faolligini oshiribgina qolmay balkim ularni faolligini yanada oshirishga hizmat qiladi. Maqola yozish jarayonida ko‘plab xorijiy adabiyat va maqolalar tahlil qilindi. Tahlil jaroyonida shunga amin bo‘lindiki, Podkast darslar bugungi kunda yangi metod bo‘lib, maqola davomida uning yutuqlari va kamchiliklari taxlil qilinadi.

**Kalit so‘zlar:** podkast darsi, sun’iy intellekt, ta’limda texnologiya, tahlil, kreativ yondashuv, o‘quvchi ishtiroki, loyiha, individual, transkriptlar, PR, Rollarni aniqlash, motivatsiya;

# «ПОДКАСТ»- НОВЫЙ МЕТОД ПРЕПОДАВАНИЯ УРОКА.

**Аннотация.** В данной статье рассматривается идея использования подкастов в современном образовании и какие возможности она создает для учащихся. В частности, на примере темы «Искусственный интеллект в образовании: учитель или робот?» освещается организация урока в форме подкаста, участие ролевых групп, аналитический подход учащихся на основе вопросов и ответов, процесс углубления знаний через беседу. Также рассматриваются перспективы полноценного использования цифровых технологий в организации современной структуры урока. Сегодня организация современных уроков не только повышает активность учащихся и воспитанников в участии в уроках, но и служит дальнейшему повышению их активности. В процессе написания статьи было проанализировано много зарубежной литературы и статей. В ходе анализа был сделан вывод, что уроки подкастов являются новым методом на сегодняшний день, и на протяжении всей статьи анализируются его преимущества и недостатки.

**Ключевые слова:** урок подкаста, искусственный интеллект, технологии в образовании, анализ, творческий подход, участие учащихся, проект, личность, стенограммы, PR, Определение роли, мотивация;

# “PODCAST” - A NEW METHOD OF TEACHING A LESSON.

**Abstract.** This article discusses the idea of using podcasts in modern education and what opportunities it creates for students. In particular, on the example of the topic “Artificial Intelligence in Education: Teacher or Robot?”, the organization of a lesson in the form of a podcast, the participation of role-playing groups, the analytical approach of students based on questions and answers, and the process of deepening knowledge through conversation are highlighted. It also discusses the prospects for the full use of digital technologies in organizing a modern lesson structure. Today, organizing modern lessons not only increases the activity of students and pupils in participating in lessons, but also serves to further increase their activity. In the process of writing the article, a lot of foreign literature and articles were analyzed. During the analysis, it was concluded that Podcast lessons are a new method today, and its advantages and disadvantages are analyzed throughout the article.

**Keywords:** podcast lesson, artificial intelligence, technology in education, analysis, creative approach, student participation, project, individual, transcripts, PR, Role definition, motivation;

**Kirish.** An’anaviy dars formatlari tobora o‘zgarib bormoqda. Zamon bilan hamnafas bo‘lishni istagan o‘qituvchilar ta’limda turli yangiliklarni sinab ko‘rmoqda. Shulardan biri – podkast darslari**.** Bu formatda o‘qituvchi, talabalar, texnik guruh va hatto tinglovchilarning o‘zi ham dars ishtirokchisiga aylanadi. Podkast darsning maqsadi – talabaning mavzuni mustaqil o‘rganishi, muhokama qilishi, savollar berishi va xulosalar chiqarishi orqali bilimni mustahkamlashdir.

**Mavzuga oid adabiyotlar tahlili:** Asosan ma’ruzalarga tayanadigan an’anaviy o‘qitish usullari va yodlash talabalarni jalb qilishda yoki yuqori darajadagi fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirishda passiv va samarasizligi uchun uzoq vaqtdan beri tanqid qilinmoqda. Ta’limning jadal rivojlanayotgan manzarasida an’anaviy o‘qitish usullari tobora ko‘proq innovatsion va interaktiv ta’lim yondashuvlari bilan to‘ldirilmoqda. Professional dunyoda hamkorlik va samarali muloqot muhim ko‘nikmalardir. Interfaol ta’lim muhiti talabalarga birgalikda ishlash, fikr almashish va muammolarni birgalikda hal qilish imkoniyatini beradi. Guruh loyihalari, tengdoshlarni baholash yoki virtual jamoaviy ish orqali bo‘ladimi, bu yondashuv talabalarni jamoaga yo‘naltirilgan sharoitlarda samarali ishlashga tayyorlaydi, bu ularning kelajakdagi martabalarining muhim jihati hisoblanadi. Ta’lim oluvchilarning individual xususiyatlarini hisobga olish va ularning manfaatdorligini (motivasiyasini) oshirishga ko‘maklashish imkoniyatlariga ko‘ra, shuningdek, har xil turdagi multimediali o‘quv axborotlarining uyg‘unlashuvi, interfaollik, moslashuvchanlik sifatlariga, moslashuvchanlik sifatlariga ko‘ra multimedia foydali va mahsuldor ta’lim texnologiyasi hisoblanadi.

**Podkast o‘zi nima?** Padokastlar seriyasida odatda ma’lum bir mavzu yoki joriy voqea haqida munozarada qatnashadigan bir yoki bir nechta takrorlanuvchi xostlar mavjud. Podkastdagi munozara va kontent puxta skriptdan tortib toki to‘liq improvizatsiyagacha, badiiy yoki ilmiy tadqiqotlardan tortib, hayotiy jurnalistikagacha bo‘lgan mavzular haqida ham bo‘lishi mumkin. Ko‘pgina Padokast havolalar va shou qaydlari, mehmonlarning tarjimai hollari, transkriptlari, qo‘shimcha manbalar, sharhlar va vaqti-vaqti bilan shou mazmunini muhokama qilishga bag‘ishlangan jamoat forumi bilan bog‘langan vebsaytlarni taqdim etadi. Bugungi kunda zamonaviy tendensiyalarni dars mashg‘ulotlariga jalb qilish va natijaga erishish muhum ahamiyat kasb etmoqda.

**Ta‘limda padkast va u qanday ishlaydi?**

Podkastlar – bu internet orqali eshitiladigan audio yoki video materiallar bo‘lib, ular odatda turli mavzularda maxsus rejada tayyorlanadi. O‘quvchilar uchun podkastlar nafaqat o‘qitish jarayonida foydalidir, balki ular o‘rganish uslubi sifatida

ham qiziqarli va samarali bo‘lishi mumkin. Podkastlar yordamida o‘quvchilar o‘z vaqtlarini samarali tashkil etishlari, har doim va har joyda bilim olishlari mumkin.

**Zamonaviy ta’limda O‘qituvchining roli o‘zgarmoqda:**

Avvallari o‘qituvchi darsda faqat ma’lumot beruvchi bo‘lsa, endilikda u – yo‘lboshchi, qiziqtiruvchi, va texnologiyalarni to‘g‘ri yo‘naltiruvchi shaxsga aylangan. Aynan podkast darslari orqali o‘qituvchi o‘quvchining kundalik hayotiga tegishli, foydali bilimlar beradi. Zamonaviy o‘qituvchi o‘quvchilarda kreativ fikrlash va tanqidiy yondashuvni rivojlantirishi zarur. U o‘quvchilarni yangi g‘oyalarni yaratishga, murakkab vaziyatlarni hal qilishga, texnologiyalarni kreativ tarzda qo‘llashga o‘rgatadi. Darsda o‘quvchilarning o‘z fikrlarini erkin ifoda etishlariga imkon yaratadi. Zamonaviy o‘qituvchining o‘rni texnologiyalarning qo‘llanilishida muhim rol o‘ynaydi. U yangi texnologiyalarni o‘qitish jarayoniga kiritishda faol ishtirok etadi. Masalan, sun’iy intellekt, raqamli vositalar, onlayn resurslar, vizual platformalar va interaktiv dasturlar yordamida o‘quvchilarni o‘rganish jarayoniga jalb qiladi. Bunda o‘qituvchi yangi texnologiyalarni qanday va qachon ishlatishni yaxshi bilishi kerak. Shuningdek zamonaviy o‘qituvchining darsdagi o‘rni ancha o‘zgarib bormoqda. Bugungi kunda o‘qituvchilar nafaqat bilim manbai, balki o‘quvchilarning fikrlashini rag‘batlantiruvchi, mustaqil ishlashga undovchi va yangi texnologiyalarni faol qo‘llaydigan mentorlar sifatida faoliyat yuritmoqdalar. Biz taklif etayotgan yangicha format dars yaniy “Podkast” dars metodi afzalliklari haqida takidlab o‘tsak.

**Jonli va tabiiy muloqat muhiti yaratiladi:**

Talabalar o‘z fikrlarini erkin ifoda etadilar.

“Ramiy suhbat” bo‘lmagani uchun talabalar ko‘proq muloqatga kirishadi va o‘zlarini qulay his qilishadi.

Podkast dars metodini qo‘llash strukturasi qanday ko‘rinishda bo‘ladi. Dars mashg‘ulotlari guruhlarga bo‘lingan holda tashkil etiladi bu yerda guruhlar quyidagi usulda va tarkibda bo‘linadi:

**1-guruh: (Asosiy guruh)** 1 o‘qituvchi va 4-5 talabadan iborat. O‘qituvchini vazifalari: Dars mavzusini ochib berish, va maqsadni tushuntirish, Asosiy ilmiy tushunchalarni to‘ldirib, to‘g‘irlab borish va dars so‘ngida yakuniy xulosani chiqarish. Kichik guruhning boshqa a’zolari Mavzuga tayyorgarlik ko‘rib, muayyan nuqtai nazarni tanlab olish. O‘z fikrini asosli, muloqotga ochiq va erkin tarzda bayon etish. Muhokama davomida jonli, qiziqarli, hayotiy misollar bilan mavzuni boyitish. Bu guruh mavzuni suhbat asosida yoritiladi suhbat asosida matn, taqdimot va video roliklarini demonstratsiya qilishlari mumkin.

**2-guruh: Boshlovchi (Moderator)** – 1 nafar talabadan iborat bo‘lib darsni ochib berish, mavzuni qisqacha tanishtirish, bahs munozara va darsdagi jarayonlarni kuzatib borish.

**3-guruh: Texnik guruh** 2 talabadan iborat bo‘ladi. Ularning asosiy vazifasi podkast darsni texnik jixatlari, darsni to‘g‘ridan to‘gri uzatish va boshqa texnik jixatlarga javob beradi.

**4-guruh: PR (Ommaviy axborot)** 2-3 talabadan iborat bo‘lib asosiy vazifasi dars yakunida muhim fikrlarni ommaviy axborot uchun tayyorlaydi. Ijtimoiy tarmoqlar yoki oliy ta’lim muassasi saytida tarqatish uchun qisqa matn va vizual materiallar tayyorlash bilan shug‘ullanadi.

**5-guruh: Kuzatuvchilar:** Qolgan talabalardan tashkil topgan guruh bo‘lib ular podkastning asosiy guruhiga savollar va takliflar berish bilan shug‘ullanadi.

Keling “Podkast” darsni tashkil etish strukturasini bir misol tariqasida ko‘rib chiqamiz:

**Mavzu:** Ta’limda suniiy intelekt

**Mavzuga qo‘yilgan asosiy savol:** Suniiy intelekt ta’limda: O‘qituvchi yoki robot?

**Format:** Podkast uslubidagi dars.

**Davomiyligi:** 80 daqiqa.

**1. Boshlang‘ich tayyorgarlik bosqichi (Darsdan oldin)**

(o‘qituvchi va talabalar tomonidan amalga oshiriladi). O‘qituvchi mavzuni e’lon qiladi va rollarni taqsimlaydi:

Podkast asosiy guruhi: o‘qituvchi + 3-4 nafar talaba.

Tahlilchilar guruhi: 3-4 nafar.

PR guruhi: 2-3 nafar.

Tinglovchilar: qolgan talabalar.

Har bir guruh tayyorgarlik ko‘radi: ma’lumot yig‘adi, savol va fikrlar tayyorlaydi.

**2. Darsni ochish (5-10 daqiqa)**

O‘qituvchi darsni ochadi: mavzu, maqsad, guruhlar va faoliyat turlari bilan tanishtiradi.

Moderator (boshlovchi talaba) so‘zga chiqadi:

Dars mavzusini e’lon qiladi (masalan: “Sun’iy intellekt ta’limda: o‘qituvchi yoki robot?”).

**Ishtirokchilarni tanishtiradi.**

Muqaddima savollarini beradi: “AI ta’limda yordam beradimi yoki o‘rnini egallaydimi?”

**3. Podkast muhokamasi (30-40 daqiqa)**

**Asosiy suhbat boshlanadi:**

Har bir ishtirokchi o‘z fikrini bayon qiladi (3-4 daqiqa davomida).

O‘qituvchi doimiy ishtirokchi sifatida fikrlarni to‘ldirib boradi yoki savollar bilan yo‘naltiradi.

Bahsli fikrlar, dalillar, misollar bilan almashinuv bo‘ladi.

Moderator muloqotni boshqaradi va navbat bilan so‘z beradi.

**4. Auditoriya savollari (15-20 daqiqa)**

Tinglovchilar guruhi savollar beradi.

Tahlilchilar guruhi fikr bildiradi yoki qarama-qarshi nuqtai nazar bildiradi.

O‘qituvchi umumlashtiruvchi savollar orqali muhokamani chuqurlashtiradi. Moderator muhokama dinamikasini saqlab turadi.

**5. Xulosa va yakuniy fikrlar (10-15 daqiqa)**

Har bir ishtirokchi yakuniy fikr bildiradi: “Men qanday xulosaga keldim?”

PR guruhi asosiy fikrlar va iqtiboslarni o‘qib eslatadi.

O‘qituvchi yakuniy tahlil va baho beradi:

Darsda nimalarga erishildi.

**6. Uyga vazifa va yakuniy topshiriq (5 daqiqa)**

Tahlilchilar guruhi uchun: darsda ko‘tarilgan asosiy savollar bo‘yicha tahliliy maqola tayyorlash. PR guruhi uchun: darsning audio/video ko‘rinishini tayyorlash, ijtimoiy tarmoqlarda tarqatish (agar tegishli bo‘lsa). Boshqa talabalar uchun: “Agar AI bo‘lmasa, ta’lim qanday bo‘lardi?” mavzusida prezentatsiya.

**Podkast uslubidagi darsning afzalliklari va kamchiliklari.** Zamonaviy ta’lim texnologiyalarining rivojlanishi bilan birga an’anaviy dars shakllari o‘zgarib, interaktiv va kommunikativ yondashuvlar avj olmoqda. Shulardan biri – podkast uslubidagi dars, ya’ni muhokama markazida turuvchi kichik guruh (o‘qituvchi + 3–4 nafar talaba) orqali dars mazmunini ochish va butun sinfni ushbu jarayonga jalb qilishdir. Ushbu uslub quyidagi afzallik va kamchiliklarga ega:

**Afzalliklari:**

O‘quvchilar faolligi oshadi.

- Har bir ishtirokchi o‘z rolini bajarishi kerakligi sababli darsga puxta tayyorgarlik ko‘radi.

- Tinglovchilar ham savol berish, fikr bildirish orqali faol ishtirok etadi.

**Muloqot va tanqidiy fikrlash rivojlanadi:**

- Tahlilchilar va podkast ishtirokchilari o‘z fikrini asosli bayon qilishga o‘rganadi.

- Qarama-qarshi fikrlarni eshitish orqali o‘quvchilar tanqidiy fikrlashni mashq qiladi.

**Ijodiy yondashuv va erkin ifoda:**

- O‘quvchilar oddiy javob berish emas, balki suhbat qurish, fikr yuritish orqali o‘z dunyoqarashini ochib beradi.

- PR guruhi esa matn, media va dizayn ko‘nikmalarini mustahkamlaydi.

**Kamchiliklari:**

**Darsni tayyorlash ko‘proq vaqt va mehnat talab qiladi:**

- Rollarni aniqlash, guruhlarni shakllantirish, har bir ishtirokchiga topshiriq berish o‘qituvchidan ko‘proq tayyorgarlikni talab qiladi.

**Hamma talabalar teng darajada ishtirok etmasligi mumkin:**

Ba’zi o‘quvchilar passiv qolib ketishi yoki uyalib, o‘z fikrini ochiq aytolmasligi mumkin.

**Baholashda subyektivlik xavfi:**

- Har bir rol turli xil faoliyatni o‘z ichiga olgani uchun baholash mezonlarini aniq belgilash talab etiladi. Aks holda, adolatsizlik yuzaga kelishi mumkin.

Texnik yoki metodik nosozliklar samaradorlikka ta’sir qilishi mumkin:

**Xulosa.** Umuman olganda, podkast uslubidagi dars – bu zamonaviy, o‘quvchi faolligiga asoslangan, muloqot va mustaqil fikrlashni rivojlantiruvchi kuchli metod hisoblanadi. Unga puxta tayyorgarlik ko‘rilsa, an’anaviy dars shakllariga qaraganda ancha samarali va esda qolarli bo‘lishi mumkin. Kelajakda bunday yondashuvlar yordamida o‘quvchilar nafaqat bilim, balki hayotda zarur bo‘lgan ko‘nikmalarni ham shakllantiradi. Yuqoridagi kamchiliklarniham bevosita bartaraf etish mukin. Bu uslub o‘qituvchining doimiy leksiya o‘qishidan voz kechib, o‘quvchini o‘qitish markaziga olib chiqadi. Bu esa ta’lim jarayonida faol ishtirok, mustaqil fikrlash va tashabbus ko‘rsatish ko‘nikmalarini shakllantiradi. Suhbat, fikr bildirish, auditoriyaga murojaat qilish – bular barchasi kelajakda oliy ta’limda, ish joyida yoki ijtimoiy faoliyatda muhim bo‘lgan ko‘nikmalardir. Har bir guruh o‘ziga xos vazifani bajarishi sababli, talabalar ichki rag‘bat bilan harakat qilishga o‘rganadi. Masalan, tahlilchilar tanqidiy tahlilni, PR guruhi esa media savodxonlikni mashq qiladi. O‘qituvchi bu darsda notiq emas, balki “yo‘naltiruvchi mentor” rolida bo‘ladi. Bu rolni bajarish uchun pedagogdan ilg‘or metodik va kommunikativ ko‘nikmalar talab etiladi. Eng muhim jihat — reja, rol taqsimoti, savol va mavzularning aniqligi. Agar bu jihatlar aniq bo‘lsa, dars kuchli chiqadi. Aks holda, muhokama tartibsiz va mavzudan chetlashgan bo‘lishi mumkin. Ushbu metod bir vaqtning o‘zida prezentatsiya qilish, yozma tahlil, tinglab tushunish, jamoada ishlash, texnik vositalardan foydalanish kabi ko‘p qirrali ko‘nikmalarni rivojlantiradi.

## Foydalanilgan adabiyotlar:


1. Tarmizi R., & Azizan S. N. Podcast-based learning: A review on its potential use for higher education. International Journal of Emerging Technologies in Learning (iJET), 15(13), 2020. – B. 182-189.

2. Abdufatayev S. A., & To‘ychiyev A. A. Talabalarda ijodkorlik qobilyatini rivojlantirishda evristik faoliyatni texnologiyalashtirish. Scientific progress, 1(4), 2021. – B. 156-160.

3. Hasan M. M., & Hoon T. B. Podcast applications in language learning: A review of recent studies. English language teaching, 6(2), 2013. – B. 128-135.

4. Dzhumoboeva Y. E., Niyozov M. B., Saidboev B. J., & Kamilov M. A. Problems of teaching computer science and information technology in universities. Journal of Advanced Research in Dynamical and Control Systems, 12(5), 2020. – B. 245-250.

5. Dewey J. Experience and Education. – New York: Macmillan, 1938.
6. Brown H. D. Principles of Language Learning and Teaching. Pearson Longman, 2007.
7. Ketonen L., & Nieminen J. H. Supporting student teachers' reflection through assessment: The case of reflective podcasts. Teaching and Teacher Education, 2023.
8. Ismoilova Z., & Xatamjonova A. Blended learning (aralash ta'lim metodlari). Education and research in the era of digital transformation, 1(1), 2025.
– B. 2005-2010.

# MA’NAVIYATSHUNOSLIK FANINING RAQAMLI TA’LIMGA INTEGRATSIYASI MAZMUNI, METODLARI VA VOSITALARI

**Yo‘ldoshev Sherzod Ravshan o‘g‘li**, Guliston davlat universiteti tayanch doktoranti, Guliston davlat pedagogika instituti “Milliy g‘oya va falsafa” kafedrasi stajyor o‘qituvchisi
**e-mail:** sherzod.yoldoshev.off@gmail.com

**Annotatsiya**. Ushbu maqolada Ma’naviyatshunoslik fanini raqamli ta’limga integratsiyalash zarurati bugungi kunda dolzarb ilmiy-pedagogik muammo sifatida o‘rganiladi. An’anaviy ta’limdan raqamli muhitga o‘tishda mazkur fanning mazmuni, metodlari va didaktik vositalarini zamonaviy talablarga moslashtirish ehtiyoji asosiy ilmiy muammo sifatida belgilangan. Tadqiqotda tizimli yondashuv, pedagogik modellashtirish, tahlil-sintez, taqqoslash va amaliy kuzatish metodlaridan foydalanilgan. Raqamli ta’lim sharoitida ma’naviyatshunoslikni o‘qitishga doir o‘quv platformasi yaratish, multimediya va interaktiv vositalarni integratsiya qilish asosida samaradorlikni oshirishga erishilgan. Muallif tomonidan ishlab chiqilgan yondashuv nazariy asoslanib, raqamli ta’limda ma’naviy tarbiyaning sifat jihatdan yangi bosqichga ko‘tarilishini ta’minlashga xizmat qiladi. Tadqiqot natijalari ushbu yo‘nalishda o‘qituvchilar va ta’lim tashkilotlari uchun amaliy ahamiyatga ega bo‘lib, zamonaviy ta’lim muhitida ma’naviy qadriyatlarni yetkazishning yangi usullarini taklif etadi.

**Kalit so‘zlar:** raqamli ta’lim, ma’naviyatshunoslik, didaktik model, integratsiya, metodologiya, innovatsion texnologiyalar, raqamli platforma, amaliy yondashuv.

# СОДЕРЖАНИЕ, МЕТОДЫ И ИНСТРУМЕНТЫ ИНТЕГРАЦИИ ДУХОВНЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ В ЦИФРОВОЕ ОБРАЗОВАНИЕ

**Аннотация.** В данной статье исследуется необходимость интеграции науки о духовности в цифровое образование как актуальная научно-педагогическая проблема современности. Основной научной проблемой обозначена потребность адаптации содержания, методов и дидактических средств духовности к современным требованиям в условиях перехода от традиционного обучения к цифровой среде. В исследовании использованы методы системного подхода, педагогического моделирования, анализа и синтеза, сопоставления и практического наблюдения. В результате достигнута эффективность за счёт создания учебной платформы по преподаванию духовности в цифровом формате, интеграции мультимедийных и интерактивных средств. Разработанный автором подход теоретически обоснован и направлен на обеспечение качественно нового уровня духовного воспитания в цифровом образовании. Результаты исследования имеют практическое значение для преподавателей и образовательных учреждений, предлагая новые методы передачи духовных ценностей в современной образовательной среде.

**Ключевые слова:** цифровое образование, духовность, дидактическая модель, интеграция, методология, инновационные технологии, цифровая платформа, практический подход.

# CONTENT, METHODS AND TOOLS OF INTEGRATION OF SPIRITUAL STUDIES INTO DIGITAL EDUCATION

**Abstract.** This article explores the integration of the science of spirituality into digital education as a pressing scientific and pedagogical issue of today. The core research problem is defined as the need to adapt the content, methods, and didactic tools of spirituality to modern requirements during the transition from traditional to digital learning environments. The study employs a systematic approach, pedagogical modeling, analysis and synthesis, comparative analysis, and practical observation methods. The research achieved improved effectiveness through the development of a digital learning platform for teaching spirituality, integrating multimedia and interactive tools. The author's approach is theoretically grounded and aims to elevate spiritual education to a qualitatively new level within digital learning contexts. The findings hold practical significance for educators and educational institutions by offering innovative methods for conveying spiritual values in modern educational settings.

**Keywords:** digital education, spirituality, didactic model, integration, methodology, innovative technologies, digital platform, practical approach.

**Kirish.** Bugungi kunda raqamli texnologiyalar turmushimizning barcha sohalariga, ayniqsa, ta'lim tizimiga faol kirib kelayotgani yaqqol ko‘zga tashlanmoqda. Dastlab elektron resurslar va interaktiv ko‘rgazmalar ko‘rinishida boshlangan bu jarayon bugungi kunga kelib to‘liq raqamli platformalar, masofaviy o‘qitish formatlari hamda AR/VR texnologiyalari bilan uyg‘unlashgan virtual o‘quv muhitlariga qadar rivojlandi. Dunyo ta'lim tizimlarida ro‘y berayotgan raqamli o‘zgarishlar faqatgina ta'lim uslublarining emas, balki butun didaktik tizimning mazmuniy tarkibini qayta ko‘rib chiqishga sabab bo‘lmoqda. Jumladan, AQSh, Janubiy Koreya, Singapur va Estoniya singari davlatlar o‘zlarining ta'lim siyosatlarida raqamli pedagogik yondashuvlarni ustuvor yo‘nalish sifatida belgilab olganlar.

O‘zbekiston ta'lim sohasi ham raqamli texnologiyalarni amaliyotga tatbiq etish borasida bosqichma-bosqich isloh qilinmoqda. "Raqamli O‘zbekiston – 2030" dasturi, oliy ta'limda masofadan o‘qitish imkoniyatlarini kengaytirish, elektron ta'lim platformalarini yaratish va ulardan foydalanish bo‘yicha ilgari surilgan tashabbuslar bu yo‘ldagi muhim qadamlardandir. Ayniqsa, 2020-yilda yuzaga kelgan pandemiya sharoitida masofaviy ta'lim tajribasining keng qo‘llanilishi mamlakatimizdagi oliy ta'lim muassasalarida raqamli o‘quv vositalarini tezkor joriy etish zaruratini keskin oshirdi. Shu asosda respublika bo‘ylab elektron o‘qitish tizimlari, videodarslar hamda test dasturlari tatbiq etila boshlandi. Biroq bu tajribalar, asosan, o‘quv mazmunini texnik usullar bilan yetkazib berishga qaratilgan bo‘lib, chuqur didaktik yondashuvlar, ayniqsa, ijtimoiy-gumanitar fanlar uchun maxsus ishlab chiqilgan metodikalar yetarlicha shakllanmaganligi bilan ajralib turadi.

**Tadqiqotning ilmiy muammosi** – Ma'naviyatshunoslik fanini raqamli muhitga moslashtirishda samarali didaktik yondashuvlar, metod va vositalarni aniqlash va pedagogik jihatdan asoslash zaruratidir.

**Tadqiqotning maqsadi** – Ma'naviyatshunoslik fanining raqamli ta'limga integratsiyalashuvi jarayonini ilmiy-pedagogik asoslash, zamonaviy metod, vosita va texnologiyalarni aniqlash hamda ularning o‘quv jarayonidagi samaradorligini ochib berishdan iborat.

**Tadqiqot obyekti** – raqamli ta'lim muhitida oliy ta'limda ma'naviy-ma'rifiy fanlarning o‘qitilishi jarayoni.

**Tadqiqot predmeti** – Ma'naviyatshunoslik fanining raqamli ta'limga integratsiyasida qo‘llaniladigan mazmun, metodlar va didaktik vositalar tizimi.

**Mavzuga oid adabiyotlar tahlili.** Raqamli texnologiyalar inson hayotining barcha sohalariga, xususan ta’lim tizimiga jadal kirib keldi, bu jarayon ta’limni modernizatsiya qilish, interaktiv va masofaviy ta’limni rivojlantirish zaruratini yaratdi. Shu bilan birga, bu holat ta’lim jarayonining mazmuni, shakli va vositalarini qayta ko‘rib chiqish zaruratini yuzaga keltirdi. Jumladan, raqamli transformatsiya butun didaktik modelni qayta qurishni talab qilmoqda [6, 184-b.].

Zamonaviy ilmiy adabiyotlarda raqamli texnologiyalarning ta’limdagi o‘rni turli nuqtai nazarlarda yoritilgan. Masalan, D. Laurillard o‘z tadqiqotlarida raqamli muhitda o‘quvchini faol bilim oluvchi subyekt sifatida shakllantirish zaruratiga urg‘u beradi [3, 272-b.]. R.Clark esa raqamli vositalarning pedagogik samaradorligini oshirish uchun aniq didaktik yondashuvlarni taklif etadi [1, 384-b.].

O‘zbekiston olimlari tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda ham raqamli ta’limning imkoniyatlari keng yoritilgan. Masalan, To‘xtasinov A. raqamli ta’lim muhitining konseptual asoslarini belgilagan bo‘lsa, Jo‘rayev M. masofaviy o‘qitishning metodik jihatlarini o‘rgangan [7, 198-b.]. Biroq, bu asarlarda ma’naviy-ma’rifiy yo‘nalishdagi fanlarni raqamli formatga moslashtirish bo‘yicha chuqur tahlillar yetarli emas.

“Ma’naviyatshunoslik” faniga oid adabiyotlar esa, asosan, ma’naviyatning mazmuni, shakllanishi va tarbiya jarayonidagi o‘rni kabi mavzularni yoritadi. Jumladan, Erkayev A., Masharipova G., Xo‘janova T. kabi mualliflar milliy qadriyatlar, ma’naviy meros va shaxs kamoloti masalalariga doir chuqur nazariy qarashlar ishlab chiqqan [2], [4, 326-b]. Ammo bu fanni raqamli formatga moslashtirish, interaktiv vositalar orqali o‘qitish metodikasini ishlab chiqishga doir alohida ishlanmalar mavjud emas.

Xorijiy tajribaga e’tibor qaratilsa, Estoniya, Singapur, Janubiy Koreya kabi mamlakatlar raqamli ta’limni davlat strategiyasi darajasida yo‘lga qo‘ygan. Bu davlatlar tajribasida raqamli o‘quv platformalari, AR/VR texnologiyalari, moslashtirilgan o‘quv modullari orqali gumanitar fanlarni ham muvaffaqiyatli raqamlashtirish amaliyoti yo‘lga qo‘yilgan [5, 215-b.].

Shunday qilib, mavjud adabiyotlar raqamli ta’limning umumiy konsepsiyasi, texnologik asosi va potensialini yoritadi. Biroq “Ma’naviyatshunoslik” fanining o‘ziga xosligi, uning tarbiyaviy, axloqiy-estetik va madaniy komponentlarini raqamli formatga mos didaktik usullar orqali yetkazish bo‘yicha ilmiy ishlanmalar yetarli emas. Shu bois, ushbu maqola ushbu bo‘shliqni to‘ldirishga qaratilgan ilmiy-amaliy tahlil va yondashuvlarni taklif etadi.

**Tadqiqot metodologiyasi.** Zamonaviy raqamli ta’lim muhitida gumanitar yo‘nalishdagi fanlarni, xususan, “Ma’naviyatshunoslik” fanini integratsiyalash dolzarb ehtiyoj sifatida maydonga chiqmoqda. Bu fan nafaqat nazariy bilimlarni berishga, balki talabalar ongida axloqiy-estetik qarashlar, shaxsiy pozitsiya va jamiyat oldidagi ijtimoiy mas’uliyat tuyg‘usini shakllantirishga yo‘naltirilgan. Shu bois, uni raqamli formatga moslashtirish oddiy elektron o‘quv materiallarini tayyorlash bilangina cheklanmay, balki didaktik, texnologik va metodik jihatdan mukammal o‘ylangan pedagogik modelni ishlab chiqishni talab etadi.

Ushbu tadqiqotning asosiy metodologik yondashuvi – “Ma’naviyatshunoslik” fanini raqamli sharoitda samarali o‘qitish uchun kompleks o‘quv-didaktik tizim yaratishdan iborat. Shu maqsadda **“Raqamli ma’naviyat platformasi”** nomli eksperimental o‘quv modeli ishlab chiqildi. Mazkur model zamonaviy ta’lim texnologiyalari, pedagogik prinsiplar va milliy-ma’naviy qadriyatlarni uzviy uyg‘unlashtirgan holda qurilgan. O‘quv kontenti 5 ta modulga ajratilgan bo‘lib, ular o‘z ichiga jami 48 ta asosiy mavzuni qamrab oladi. Har bir modul mantiqiy izchillik, g‘oyaviy yaxlitlik va bosqichma-bosqichlik tamoyillari asosida tashkil etilgan.

Modullar tarkibida talabalar uchun quyidagi ketma-ketlikda ta’lim resurslari joylashtirilgan: ma’ruza → videodars → taqdimot → seminar → test → esse. Bu

ketma-ketlik talabaning bilim olishdan tortib, uni tahlil qilish va ijodiy qo‘llashgacha bo‘lgan bosqichlarni bosib o‘tishini ta’minlaydi. Dastlabki bosqichda nazariy bilimlar beriladi, keyingi bosqichlarda esa bu bilimlar ko‘rgazmali va amaliy shaklda mustahkamlanadi. Seminar mashg‘ulotlari orqali faol muloqot va tanqidiy fikrlash ko‘nikmalari rivojlanadi, test topshiriqlari esa dastlabki bilim nazoratini ta’minlaydi. Yakuniy bosqich esse yozish orqali talaba mavzu bo‘yicha mustaqil fikr yuritish, tahlil qilish va o‘z nuqtai nazarini bayon etish imkoniyatiga ega bo‘ladi (bu topshiriq asosan mustaqil ta’lim uchun qo’llaniladi).

Bu struktura Bloom taksonomiyasining bilimni egallash, tushunish, qo‘llash, tahlil qilish, baholash va yaratish bosqichlariga mos keladi. Shu orqali ta’lim jarayonining har bir bosqichida kognitiv rivojlanish ta’minlanadi va raqamli pedagogika tamoyillariga mos ilg‘or metodologik yondashuv vujudga keladi.

**Tahlil va natijalar.** Mazmunni tanlashda quyidagi tamoyillarga qat’iy rioya qilinadi:

- **G‘oyaviy-tarbiyaviy yondashuv:** har bir mavzu ijtimoiy ong va axloqiy qadriyatlarni singdirishga xizmat qiladi;
- **Ilmiylik:** barcha materiallar ilmiy asoslangan va ilmiy adabiyotlar bilan bog‘liq;
- **Mantiqiylik va izchillik:** mavzular ketma-ketlikda, murakkablik darajasiga ko‘ra joylashtirilgan;
- **Mustaqil ta’limga yo‘naltirish:** modul strukturasida esse, test va aloqa bo‘limlari orqali talabalar faol ishtirokga undaladi.

Modul mazmuni A. Erkayevning “Ma’naviyatshunoslik” nomli monografiyasi, muallif Sh. Yo‘ldoshev tomonidan tayyorlangan o‘quv qo‘llanmasi, shuningdek, O‘zbekiston Respublikasining ma’naviy-ma’rifiy sohadagi normativ-huquqiy hujjatlari, strategik dasturlari hamda milliy ma’naviy meros asoslariga tayanadi. Shu bilan bir qatorda, platformaning tarkibiy mazmunida muallifning shaxsiy metodik yondashuvi ham mujassam: mavzularni tanlash, asosiy savollarning tuzilishi, interfaol mashqlar va videodarslardagi mulohazalar muallifning kasbiy tajribasi va tahliliy qarashlari asosida ishlab chiqilgan.

Videodarslar oddiy nazariy ma’lumotlarni takrorlash bilan cheklanmay, har bir mavzuning asosiy g‘oya va konseptual mazmunini ochib berishga xizmat qiladi. Ularda tarixiy dalillar, ijtimoiy-hayotiy misollar, muammoli vaziyatlar va fikrlar xilma-xilligi orqali o‘quvchining mustaqil tahliliy yondashuvini shakllantirish ko‘zda tutilgan. Bu yondashuv “Ma’naviyatshunoslik” fanining faqat bilim emas, balki talabaning dunyoqarashi va ijtimoiy ongini shakllantiruvchi ijtimoiy-falsafiy maydonga aylanishiga xizmat qiladi.

Umuman olganda, platformadagi didaktik kontent zamonaviy raqamli ta’limning asosiy talablariga mos bo‘lib, talabaning har tomonlama rivojlanishini ta’minlash, uni ongli, mustaqil qaror chiqaruvchi va axloqiy yetuk shaxs sifatida shakllantirishga qaratilgan.

Mazkur fan raqamli ta’lim muhitida o‘qitilganda, faqatgina mazmuniy yangilanish emas, balki didaktik yondashuvlar va metodlarni ham tubdan qayta ko‘rib chiqishni talab qiladi. An’anaviy, monologik uslublar o‘rnini endilikda interaktiv, shaxsga yo‘naltirilgan va faol metodlar egallamoqda. “Raqamli ma’naviyat platformasi”da asosiy tamoyil sifatida o‘quv jarayonini o‘qituvchi markazidan talaba markaziga ko‘chirish prinsipi qo‘llanilgan.

**Birinchi asosiy metod – bu interaktiv o‘qitish usullaridir.** Ushbu yondashuv orqali talabalar darsdagi passiv tinglovchi emas, balki faol bilim egasiga aylanadi. Seminar mashg‘ulotlari va esse yozish topshiriqlari munozara va bahs orqali talabaning mustaqil fikr bildirishiga, turli nuqtai nazarlarni tahlil qilishiga va shaxsiy pozitsiyasini ifodalashiga imkon yaratadi. Ayniqsa, “aqliy hujum”, “idrok xaritasi” kabi metodlar dars mavzusi atrofida ijodiy va assotsiativ tafakkurni faollashtirib,

muammoli vaziyatlarga ijodiy yechimlar topishga xizmat qiladi. Bu esa o‘quv jarayonini biryoqlama ma’lumot berishdan olib chiqib, bilimni muloqot va ishtirok asosida shakllantiruvchi faol va demokratik ta’lim muhitini ta’minlaydi.

**Ikkinchi metod – vizual yondashuvlarga asoslangan ko‘rgazmali usullardir.** Bu metod raqamli texnologiyalarning grafik, audio va vizual imkoniyatlaridan samarali foydalanishni taqozo etadi. Videodarslar orqali mavzular ko‘rgazmali vositalar bilan mustahkamlanadi, ovozli sharhlar esa axborotni boyitadi. Taqdimotlarda esa asosiy tushunchalar diagramma, jadval, grafik va obrazlar orqali aniqlik bilan yoritiladi. Bunday ko‘rinishda bilim nafaqat eshitish, balki ko‘rish orqali ham samarali o‘zlashtiriladi.

**Uchinchi metod – bu muammoli-tahliliy uslub** bo‘lib, u talabaning tanqidiy fikrlash va chuqur tahlil qilish qobiliyatini shakllantirishga qaratilgan. Platformadagi darslar va topshiriqlar mavzularni oddiy taqdim etishdan ko‘ra, talabani dolzarb ijtimoiy-ma’naviy masalalar ustida mushohada yuritishga undaydi. Muammoli savollar orqali ijtimoiy-falsafiy mulohaza, asoslangan pozitsiya bildirish, baholash va tahliliy fikrlash ko‘nikmalari rivojlantiriladi. Bu metod o‘quvchining mavzuga nisbatan chuqur va ongli yondashuvini shakllantirishga xizmat qiladi.

**To‘rtinchi metod – mustaqil o‘qish va refleksiya** (o‘z-o‘zini tahlil qilish) usullaridir. Bu yondashuv talabaning o‘z sur’atida o‘rganish, o‘z fikrini baholash va chuqurlashtirish imkonini beradi. Jumladan, esse yozish topshiriqlari orqali shaxsiy tahliliy salohiyat, mustaqil fikrlash va g‘oyaviy nuqtai nazar ifodalash ko‘nikmalari rivojlanadi. Test topshiriqlari esa bilim darajasini o‘z-o‘ziga baholash imkonini yaratadi. Platformadagi “Aloqa” bo‘limi esa talaba-o‘qituvchi o‘rtasida doimiy interaktiv muloqotni ta’minlaydi.

**Beshinchi metod – bu modul asosidagi integratsiyalashgan kompleks yondashuv** bo‘lib, unda har bir mavzu ma’ruza, videodars, taqdimot, test va esse elementlari orqali izchil va tizimli tarzda o‘zlashtiriladi. Bu metodik birikma yagona g‘oyaviy asosga tayanib, *bilim berish → anglatish → mustahkamlash → tahlil qilish → ijodiy ifoda qilish* kabi bosqichlarni o‘z ichiga oladi. Mazkur integratsiyalashuv ta’lim samaradorligini oshirib, har bir bosqichda talabani faol ishtirok etishga undaydi.

Platformada qo‘llanilayotgan barcha didaktik metodlar quyidagi asosiy tamoyillarga tayangan:

***Shaxsga yo‘naltirilganlik*** – har bir talabaning o‘ziga xosligi, o‘rganish uslubi va sur’atini inobatga olish;

***Faollashtiruvchi yondashuv*** – talabaning faol ishtirokini, tahliliy fikrlashini rag‘batlantirish;

***Natijaviylik*** – har bir metod orqali aniq bilim va ko‘nikmalarni shakllantirish.

Aynan shu asosda “Raqamli ma’naviyat platformasi” nafaqat zamonaviy mazmunni taqdim etadi, balki uni interaktiv, tahliliy va ijodiy didaktik yondashuvlar yordamida samarali o‘zlashtirish imkonini yaratadi.

Zamonaviy raqamli ta’lim texnologiyalari jadal sur’atlarda rivojlanayotgan hozirgi davrda “Ma’naviyatshunoslik” fanini samarali o‘rgatishda moslashuvchan, interaktivlik va multimediaviy **vositalar** muhim o‘rin egallaydi. “Raqamli ma’naviyat platformasi”da tatbiq etilgan didaktik vositalar ta’lim mazmuni hamda uslublari bilan uyg‘unlashgan holda, talabalarda bilim egallash, tahliliy yondashuv va ijodiy fikrlash ko‘nikmalarini shakllantirishga xizmat qiladi.

Birinchi vosita - ma’ruza matnlari. Har bir modulning nazariy bazasini tashkil etuvchi ma’ruza matnlari “Raqamli ma’naviyat platformasi”da ilmiylik, mantiqiy izchillik va tizimlilik prinsiplari asosida ishlab chiqilgan. Ushbu materiallar mavzularni ketma-ketlikda ochib berib, asosiy tushunchalarni sodda va aniq til orqali bayon etadi hamda modulning g‘oyaviy yo‘nalishini belgilaydi. Shuningdek, ularning mazmunida muallifning o‘ziga xos yondashuvi aks etgan bo‘lib, mavzuga tanqidiy

qarash va konseptual izohlar berish imkonini yaratadi. Natijada, ma’ruza matnlari nafaqat bilim manbai, balki mustaqil fikrlash, tahlil qilish va nazariy bilimlarni chuqur anglash vositasiga aylanadi.

Ikkinchi vosita - videodarslar. Bu vositalar raqamli ta’limning ilg‘or va samarali shakli bo‘lib, fan mazmunini faqat matn shaklida emas, balki audio-vizual ko‘rinishda ham o‘rgatish imkonini beradi. Videodarslar murakkab, abstrakt tushunchalarni soddalashtirib tushuntiradi, nutq, mimika va vizual elementlar orqali ta’lim jarayonining samaradorligini oshiradi. Ular o‘quvchilarga mustaqil va mos ritmda o‘rganish imkonini yaratadi, shu bilan birga mavzuni chuqurroq anglash hamda amalda tatbiq etish uchun zamin hozirlaydi. Shuningdek, bu vosita interaktivlikni oshirib, bilimlarni mustahkamlash va diqqatni jamlashda muhim ahamiyatga ega.

Uchinchi vosita - taqdimotlar. Har bir mavzuni aniq va tizimli tushunishga yordam beruvchi bu vosita asosiy tushunchalarni grafik, sxematik va tasviriy ko‘rinishda yoritadi. Taqdimotlar mavzuning ichki tuzilishini ochib beradi, ma’lumotlarni tartibga soladi va eslab qolishni osonlashtiradi. Ular nafaqat ma’ruza va seminar mashg‘ulotlarini, balki guruhli muhokama hamda mustaqil o‘rganish jarayonlarini ham interaktiv tarzda qo‘llab-quvvatlaydi. Zamonaviy multimediyaviy elementlar bilan boyitilgan taqdimotlar o‘qituvchi va o‘quvchi uchun raqamli ta’limning ajralmas tarkibiy qismlaridan biriga aylanib ulgurgan.

To‘rtinchi vosita - seminar dars ishlanmalari. Ushbu metodik materiallar seminar darslarini samarali tashkil etish uchun tuzilgan bo‘lib, tahlil va munozaraga asoslangan savollarni o‘z ichiga oladi. Bu orqali talabalar mavzuga chuqurroq, individual yondashadi, mustaqil fikrlashga undaladi, argumentlar asosida bahs yuritishga va konstruktiv muloqotga jalb etiladi. Seminar ishlanmalari o‘quv jarayonining interaktivligini kuchaytirib, tanqidiy tafakkur, ijodiy yondashuv va jamoaviy ishlash ko‘nikmalarini rivojlantirishda muhim rol o‘ynaydi.

Beshinchi vosita – testlar. Har bir mavzu uchun ishlab chiqilgan onlayn testlar orqali talabalar bilim darajasini aniqlash mumkin. Avtomatik tekshiruv tizimi yordamida xatoliklar tezda aniqlanadi va o‘quv jarayoni samarali nazorat qilinadi. Takroriy test topshirish imkoniyati esa bilimlarni mustahkamlash, xatolar ustida ishlash va chuqur o‘zlashtirishga xizmat qiladi. Ushbu baholash tizimi shaffoflikni ta’minlab, samarali teskari aloqa vositasi bo‘lib xizmat qiladi hamda individual yondashuvga asoslangan raqamli ta’lim muhitini yaratadi.

Oltinchi vosita - esse topshiriqlari (refleksiv va ijodiy faoliyat shakli). Esse yozish jarayoni talabalarni o‘z nuqtai nazarini aniq ifodalash, mavzu doirasida mustaqil fikr yuritish va chuqur tahlil qilishga undaydi. Bu jarayonda o‘quvchilar nafaqat o‘zlashtirilgan bilimlarni takrorlaydi, balki ularni yangicha, ijodiy yondashuvda aks ettiradi. Shuningdek, esse topshiriqlari mantiqiy fikrlash, dalillash va xulosalash kabi ko‘nikmalarni shakllantirishga xizmat qilib, o‘zini anglash va ijodkorlikni rivojlantiradi.

**Xulosa va takliflar.** Xulosa qilib aytganda, “Raqamli ma’naviyat platformasi”da joriy etilgan didaktik vositalar modul asosidagi yondashuvga tayangan holda, har bir metodik bosqichning o‘ziga xos xususiyatlarini hisobga olgan holda shakllantirilgan. Bu vositalar zamonaviy multimedia texnologiyalari va raqamli pedagogika yutuqlari asosida ishlab chiqilib, nafaqat bilimlarni samarali yetkazish, balki talabalarda mustaqil fikrlash, tahliliy yondashuv, erkin ifoda va muloqotga kirishish kabi zamonaviy kompetensiyalarni shakllantirishga xizmat qilmoqda. Ushbu yondashuv raqamli ta’lim tizimining muhim va ajralmas qismiga aylanib, o‘quv jarayonining samaradorligini oshirishga, talabaning darsda faol ishtirokchi bo‘lishini ta’minlashga va bilimlarni chuqur o‘zlashtirishga keng imkoniyat yaratmoqda.

“Ma’naviyatshunoslik” fanini raqamli muhitda o‘qitish bo‘yicha taklif etilgan metodlar an’anaviy monologik yondashuvlardan farqli o‘laroq, talabaning faol

ishtirokini ta’minlovchi, interaktiv va shaxsga yo‘naltirilgan usullarni o‘z ichiga oladi. Jumladan, “aqliy hujum”, “idrok xaritasi”, muammoli tahlil, esse yozish kabi usullar orqali talabaning ijodiy va tanqidiy fikrlashi rag‘batlantiriladi, videodarslar va taqdimotlar orqali esa mavzularni ko‘rgazmali ifodalash orqali bilim chuqurlashtiriladi. Mustaqil o‘qish topshiriqlari, onlayn testlar va muloqot bo‘limi orqali esa talabaga o‘z bilim faoliyatini mustaqil rejalashtirish va baholash imkoniyati yaratiladi. Barcha metodlar bosqichma-bosqich bilim berish, tushuntirish, mustahkamlash, tahlil va ijodiy ifodani o‘z ichiga olgan tizimli didaktik yondashuv asosida integratsiyalashgan bo‘lib, natijada shaxsga yo‘naltirilgan, natijaviylik va faollashtiruvchi tamoyillar asosida ta’lim samaradorligini oshiradi.

Fan mazmunini shakllantirishda esa raqamli texnologiyalar va tarbiyaviy-ma’naviy yondashuvlar uyg‘unligi asosida puxta tuzilgan o‘quv-didaktik modelni qo‘llash maqsadga muvofiqdir. Bu model Bloom taksonomiyasiga muvofiq bilimni bosqichma-bosqich chuqurlashtirish va amaliyotga tatbiq qilish imkonini beradi. Mazmun tanlashda esa ilmiylik, mantiqiylik, ma’naviy-tarbiyaviy yondashuv va mustaqil ta’limni rag‘batlantirish kabi tamoyillar yetakchi o‘rin egallaydi. Ayniqsa, videodarslar, interaktiv topshiriqlar va esse yozish jarayonlari orqali “Ma’naviyatshunoslik” fani nafaqat nazariy bilim manbai, balki shaxsiy dunyoqarash va ijtimoiy mas’uliyatni shakllantiruvchi muhim g‘oyaviy-falsafiy fan sifatida talabalarning ichki dunyosini boyitishda muhim rol o‘ynaydi. Shu boisdan, raqamli ta’lim muhiti talabaning har tomonlama intellektual va axloqiy kamolotini ta’minlashga xizmat qiladigan zamonaviy, kompleks va interfaol pedagogik muhit sifatida takomillashtirilishi lozim.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Clark R. E-Learning and the Science of Instruction. – San Francisco: Pfeiffer, 2016. – 384 p.

2. Erkayev A. Ma’naviyatshunoslik. Monografiya. 1-2-kitob. – Toshkent: “Ma’naviyat”, 2018.

3. Laurillard D. Teaching as a Design Science. London: Routledge, 2012. 272-p.

4. Masharipova G., Xo‘janova T. Ma’naviyatshunoslik. Darslik. – Toshkent: “Fan ziyosi”, 2022. 326-b.

5. Park Y. Digital Pedagogy in Korean Education. – Seoul: KEDI Press, 2020. 215-p.

6. Qodirov M. Raqamli ta’limning metodik asoslari. – Toshkent: Fan, 2022. 184-b.

7. To‘xtasinov A. Raqamli pedagogika: nazariya va amaliyot. – Toshkent: Iqtisod-Moliya, 2021. 198-b.

# BO‘LAJAK MUXANDIS-PEDAGOGLARNI TAYYORLASHDA INTELLEKTUALLASHTIRILGAN O‘QITISH TIZIMLARI

**Axmedov Juraboy Raxmonberdiyevich,** Jizzax politexnika instituti
“Kompyuter va dasturiy injiniring” kafedrasi v.b.professori
**e-mail:** jaxmedov48@gmail.com

**Annotatsiya.** Maqolada bo‘lajak muxandis-pedagoglarni tayyorlashda intellektuallashtirilgan o‘qitish tizimlaridan foydalanish bosqichlari ko‘rsatib o‘tilgan. Maqola ilmiy-nazariy ishlanmalarni amaliyotga joriy etish ishlari bilan shug‘ullanuvchilarga asoslab tayyorlangan.

**Kalit so‘zlar:** intellektuallashtirish, axborotlashtirilgan ta’lim muhiti (ATM), muxandis-pedagoglar, dasturiy-didaktik ta’minot, ma’lumotlar ombori, axborot texnologiyalari, ta’lim manitoringi;

# ИНТЕЛЛЕКТУАЛИЗИРОВАННЫЕ СИСТЕМЫ ОБУЧЕНИЯ В ПОДГОТОВКЕ БУДУЩИХ ПЕДАГОГОВ-ИНЖЕНЕРОВ

**Аннотация.** В статье показаны этапы использования интеллектуализированных обучающих систем в подготовке будущих инженеров-педагогов. Статья рассчитана в первую очередь на тех, кто занимается внедрением научных и теоретических разработок в практику.

**Ключевые слова:** интеллектуализация, информационная образовательная среда (ИОС), инженеры-педагоги, программно-дидактическое обеспечение, база данных, информационные технологии, образовательный мониторинг;

# INTELLIGENT LEARNING SYSTEMS IN THE PREPARATION OF FUTURE ENGINEERING TEACHERS

**Abstract.** The article shows the stages of using intelligent training systems in training future engineering teachers. The article is primarily intended for those involved in the implementation of scientific and theoretical developments in practice.

**Key words:** intellectualization, information educational environment (IEE), engineering teachers, software and didactic support, database, information technology, educational monitoring;

Bo‘lajak muxandis-pedagoglarni tayyorlashda intellektuallashtirilgan o‘qitish tizimlaridan foydalanish doimo dolzarblik kasb etadigan uslublardan biri ekanligi hozirda hech kimga sir bo‘lmay qoldi. Ayniqsa “XXI asr - intellektuallashtirilgan asr” yoki “XXI asr - axborotlashtirilgan jamiyat sari asri” kabi nomlaridan iste’molda foydalanish ham innovatsion rivojlanish jarayoniga samarali kirib borishda muhim ahamiyat kasb etmoqda. Bular bo‘lajak muxandis-pedagoglarni innovatsion rivojlangan, ya’ni intelektual salohiyatli, axborot madaniyatli va XXI asrning faol ishtirokchisi qilib shakllantirishga ham ijobiy ta’sir qilmoqda. Mazkur tadqiqot ishimizda ham interfaol o‘qitish majmualaridan foydalangan holda bo‘lajak muxandis-pedagoglarni innovatsion faoliyatga tayyorlash texnologiyalarini

takomillashtirish muammosini hal qilishni rejalashtirdik. Bunga sabab, **birinchidan,** interfaol o‘qitish majmuaning innovatsiyaligini baholab bo‘lajak muxandis-pedagoglarning o‘quv faoliyatini boshqarib, uni muntazam ravishda nazorat qilib borish mumkin, **ikkinchidan**, intelektuallashtirilgan interfaol muloqatlarni tashkillashtirish, uni muntazam ravishda nazorat qilib boriluvchi o‘quv jarayoniga yaqinlashtiriladi, **uchinchidan**, dinamik ravishda nazorat qilinib boriladigan o‘qitish tizimlari va intellektuallashtirilgan o‘qitish tizimlari interfaol o‘qitish majmualarining tarkibiy qismlari bo‘lib, u o‘rganiladigan fan (mavzu, tushuncha, qonun qoida va h.k) bo'yicha professor-o‘qituvchining va malakali dasturchining hamkorlikdagi tayyorlangan ilmiy-uslubiy ishlari natijasi bo‘lib, o‘qitishning innovatsion interfaol usullarini ta’lim amaliyotida joriy etishda mustahkam dasturiy-didaktik asos bo‘ladi, **to‘rtinchidan**, ixtisoslashtirilgan dasturiy-didaktik ta’minot innovatsion ishlanma orqali olib borilgan ta’lim jarayoni natijasida auditoriyadagi ta’lim oluvchilar bilan ommaviy ravishda ham va tabaqalashtirilgan xolda ham dars mashg'ulotlarini tashkil etishga erishiladi, **beshinchidan**, bunday majmualardan Bosh axborotlashtirilgan ta’lim muhiti (ATM) va hududiy ATMlarda ham bab-baravar foydalanish mumkin.

Qaralayotgan jarayonda foydalaniladigan ilm-fan va texnika-texnologiyalarning eng so‘nggi yutuqlari qo‘yilgan muammoni yechishda alohida ahamiyat kasb etadi, ayniqsa qaralayotgan muammo yechimini hal etishda ATM asosidagi interfaol o‘quv majmualaridan optimal foydalanish ko‘proq samara bermoqda. Bu nafaqat ta’lim jarayonida bo‘lajak mutaxassislarni tayyorlashdagi bevosita axborot texnologiyalari bilan bog‘liq bo‘lmagan yo‘nalishlar uchun, balki bo‘lajak muxandis-pedagoglarni kasbiy faoliyatga tayyorlashda ham zarur bo‘lmoqda.

**Intellektuallashtirilgan o‘qitish tizimlarining maqsadi:**

Bo‘lajak muxandis-pedagoglarni innovatsion faoliyatga tayyorlashdagi interfaol o‘quv majmualari faoliyatini optimal ravishda olib borishga mo‘ljallangan (ko‘maklashuvchi) intellektuallashtirilgan dasturlar va ularga mos intellektuallashtirilgan o‘qitish tizimlarini ishlab chiqish.

**Intellektuallashtirilgan o'qitish tizimlarining vazifalar:**

1. Ta’lim beruvchi dasturlarni ishlab chiqish. Bu o‘rganayotgan manba (fan mavzu va h.k) bo‘yicha oldindan tayyorlangan algoritm va hisoblash texnikalari vositalariga asoslangan holda ta’lim berish jarayonining shart-sharoiti, maqsad-vazifalarini amalga oshirish uchun tayyorlangan biror-bir formal (shartli) algoritmik tildagi aniq va to‘liq ifodani o‘z ichiga oladi. Bunda o‘quv materiallarining mazmunini mukammal bilish, ya’ni o‘rganilayotgan manbaga tegishli ilmiy bilimlarni o‘zlashtirish va ularni amaliyotga joriy etish asosiy e’tiborda bo‘ladi va ular asosida o‘rgatuvchi dastur ishlab chiqiladi.

2. Nazorat qiluvchi dasturlarni ishlab chiqish. Bu qaralayotgan manba bo‘yicha shakllantirilgan ma’lumotlar ombori, va bilimlar banki asosida o‘qituvchi tomonidan tuzilgan topshiriqlar, savollar, test savollari va shu kabilardan foydalanib dasturlarni ishlab chiqishni o‘z ichiga oladi. Uning maqsadi ta’lim oluvchining bilimlarini o‘zlashtirish jarayonini nazorat qilishni optimallashtirishdan iborat.

3. Maslahat beruvchi dasturlarni ishlab chiqish. Bu ta’lim oluvchilarni manba bo‘yicha mazmunni tahliliy o‘rganish va ushbu jarayondagi muammoli vaziyatlar muhokamasida faol ishtirok etishlarni o‘z ichiga oladi. Ular bir muayyan muammoni o‘rganishga bag‘ishlangan bo‘lishi mumkin va ayrim hollarda to‘liq fanni o‘zlashtirishni optimallashtirishga ham bag‘ishlangan bo‘ladi. Bunday hollarda muammolar (mavzular) bo‘yicha ko‘rsatma va tavsiyalar tizimi shakllantiriladi. Bunda o‘qituvchining vazifasi, shu jumladan davsturchining ham vazifasi, birinchidan, ta’lim oluvchilarni o‘rganilayotgan manba (fan mavzu va h.k) ga bo‘lgan qiziqishlarini yanada oshirish, ikkinchidan, ta’lim oluvchilarning ta’lim jarayonidagi faolligini va erkinligini ta’minlash, uchinchidan, ta’lim oluvchilarda mustaqil bilim

olish malakasini shakllantirish, to‘rtinchidan, ta’lim oluvchilardagi ta'limning muayyan davriga mos intellektual salohiyatni tarkib toptirish, beshichidan, ta’lim oluvchilarni nostandart masalalarni hal etish va noqulay vaziyatlardan chiqib ketishga tayyorlash[4].

Maslahat beruvchi dasturlar muammoni (masalani, ta’limni va shu kabilarni) yechish davomida ta’lim oluvchiga ko‘maklashish, uning yo‘l qo‘ygan hato va kamchiliklarini tahlil qilish, samarali o‘qitishni tanlash, xullas ta’lim jarayonining rostlovchisi vazifalarini bajarish kerak bo‘ladi.

4. Axborot - qidiruv dasturlarini ishlab chiqish. Bu manbaga oid materiallarni tashkiliy-tuzilmaviy ko‘rinishda ifodalab olib, dastlab mavzuni (fanni) o‘rganishni ifodalovchi ma’lumotlar va ular asosida hosil qilinadigan axborotlardan rejali (oldindan ishlab chiqilgan ishchi dastur asosida) foydalanishni o‘z ichiga oladi va bunda axborotlarni izlash manbaning tashkiliy-tuzilmasidagi qism tizimi va elementlar bo‘yicha olib boriladi. Axborotni izlashda manbaga oid ma’lumotlar va ularga mos axborotlardan ma’lumotlar bazasi va axborotlar banki shakllantirilgan bo‘ladi. Ular bo‘yicha axborot izlash sharti (so‘rovi) talabini qondiruvchi dasturiy imkoniyatlar borligiga e’tibor berish kerak va ular asosida biror-bir algoritmik tilda ishchi dastur tuziladi.

5. O‘rgatuvchi tizimlar ishlab chiqish. Bu ta’lim jarayoniga tegishli axborotlardan foydalanib turli ta’limiy hatti-harakatlarni bajarish ko‘nikmalarini ta’minlovchilar tomonidan o‘zlashtirilishini o‘quv, o‘quv-didaktik va dasturiy vositalar yordamida amalga oshirish tizimidir. Bunda ta’lim oluvchilarning manbaga oid materiallarni tushunishi (o‘zlashtirish), manbaga oid materiallarning ko‘rgazmaliligini ta’minlashi va ta’lim oluvchilardagi mavzuga oid amaliy topshiriqlar hamda mashqlarni bajarishi bo‘yicha ko‘nikma va malakalarning shakllanganligi muhim ahamiyat kasb etadi.

O‘rgatuvchi tizimlar ta’lim oluvchilarni innovatsion faoliyatga tayyorlashda, ularning intellektual salohiyatini va axborot madaniyatini yuksaltirishlarning barcha bosqichlarida samarali didaktik vosita hisoblanadi. Shuningdek, o‘rgatuvchi tizimlar axborotdan foydalanish va turli ta’limiy say-harakatlarni ko‘rsatilgan tartibda mustaqil bajarish ko‘nikmalarini egallashga ham ko‘makchi bo‘la oladi.

6. Boshqaruvchi tizimlarni shakllantirish. Bu ta’lim jarayonidagi boshqaruvga oid axborotlarning yagona tizimini yaratish, mavjud ta’lim metodlari va texnologiyalari asosida o‘qitishning optimal variantini tanlash imkoniyatini yanada kuchaytirish va bu borada olib borilayotgan ta’lim jarayoni uchun innovatsion dasturiy-didaktik majmua yaratish va rejalashtirilgan yakuniy natijalarga erishishni kafolatlash kabi innovatsion intellektual faoliyatni o‘z ichiga oladigan tizimdir. Bu tavsifdan ko‘rinib turibdiki, ta’limni boshqarish ham o‘ziga xos ijodiy va innovatsion yondashuvni talab qilar ekan. Boshqaruv faoliyatida muloqot (iste’molchi bilan tadqiqotchi o‘rtasidagi interfeys) muhim axamiyat kasb etadi. Shunga mos ravishda boshqarish shakllari ham turlicha bo‘ladi. Ular to‘g‘risida quyidagi manba ahamiyatlidir: “Ta’limni boshqarish shakllari ham muammoning quyilishiga qarab tanlanishi lozim bo‘ladi. Bunda ta’limni boshqarishda to‘g‘ri va teskari aloqa boshqaruv jarayonida muhim omillardir. Ushbu jarayonda aloqa ayni bir paytda bitta shaxs bilan yoki guruhlar bilan bo'lishi mumkin. Shu sababli ham ushbu jarayonda boshqarish shakllari quyidagi ko‘rinishlarda bo‘lishi mumkin:

- to‘g‘ridan-to‘g‘ri boshqarishni amalga oshirish. Bunda ta’limni boshqaruvchi tomonidan ta’lim oluvchiga o‘rganilayotgan manba bo‘yicha axborotlar beriladi va uni o‘zlashtirishga ta’lim oluvchiga tavsiyalar, maslahatlar beriladi - bir tomonlama aloqa;

- boshqarishni muloqat asosida olib borish. Bunda ma’lumotlar va ular asosida tayyorlangan axborotlar (kompyuterlarga tayyorlangan muloqotli ishchi dasturlar

orqali) va boshqaruvchidan chiqqan ta’lim natijalari, ko‘rsatkichlari, tahlillari bo‘yicha boshqaruv shakli amalga oshiriladi - ikki tomonlama aloqa;

- multidialog o‘rnatish orqali boshqarish. Bunda guruhdagi ayni bir fan bo‘yicha o‘zlashtirishning natijalari tahliliy natijalari orqali, (muloqatli ta’lim beruvchi dasturlardan kompyuterli sinflarda o‘tkazilayotgan dars mashg‘ulotlari natijasi orqali) boshqaruv shakli amalga oshiriladi - ikki tomonlama guruh muloqat[5].

7. Maslahat beruvchi tizimlarni shakllantirish. Bu boshqaruv tizimlarining xususiy ko‘rinishlaridan biri bo‘lib, u o‘rgatuvchi (ta’lim beruvchi), nazorat qiluvchi, axborotlarni izlash va maslahat beruvchi dasturlar asosida shakllantiriladi. Maslahat beruvchi tizimlarning asosiy funktsional vazifalaridan biri ta’lim jarayonini nazorat qilib, undagi ayrim tuzatish (korrektirovka) ishlarini bajirishdan iboratdir.

Ta’lim manitoringini olib borishda nazorat tizimlari bilan barcha maslahat beruvchi tizimlar ham muhim ko‘rsatmalar berishda didaktik ko‘mak bo‘la oladi va eng asosiysi ta’limda rejalashtirilgan natijaga erishishni kafolatlashda ishonchli didaktik asos bo‘la oladi.

8. Ekspert tizimlarni shakllantirish. “Ekspert tizimlar - bu ayrim mavzu (soha, yo‘nalish, jarayon xodisa va h.k.) bo‘yicha sharoitni tahlil etish, ahamiyatli axborotni tanlab olish va mumkin bo‘lgan yo‘llardan voz kechgan holda eng maqbul qaror qabul qilish haqidagi bilimlarni yoyish va ulardan amaliyotda foydalanishni amalga oshirishning usullari hamda vositalari majmuidan iborat”[4].

Odatda ekspert tizimlar quyidagi tarkibiy qismlar asosida shakllantiriladi: sun’iy intellekt; bilimlar banki (bu yerda intellektuallashtirilgan o‘qitish tizimlarining dastlabki tizimlariga, an’anaviy ta’lim mazmuniga e’tibor qaratiladi) va ularni o‘zlashtirish natijalari; o‘rgatuvchi, maslahat beruvchi va boshqaruv tizimlari asosidagi mantiqiy xulosalash; ta’lim beruvchi va axborot - qidiruvga oid ishchi dasturlarga asoslangan tushuntirish jarayoni; axborot qidiruv tizimlari asosidagi axborotlarni izlash va tanlash; foydalanuvchilarning interfeysi; ta’lim jarayonini integiratsiya qilish sharhlash; muayyan manba bo‘yicha interfaol tizimni yaratish moduli va shu kabilar.

**Intellektuallashtirilgan o‘qitish tizimlariga oid ekspert tizimlarni yaratish va undan foydalanishda quyidagilarga e’tibor berish lozim:**

- oliy o‘quv yurtida ekspert tizimlarga o‘z bilimlarini joylashtirish salohiyatiga ega bo‘lgan professor-o‘qituvchilarning borligi. Bunda intellektuallashtirilgan ta’limning didaktik asoslari: ma’lumotlar; didaktik materiallar; kreativ axborotlar majmui kabilar asosiy e’tiborda bo‘lib, undan ta’lim beruvchi tizimlardagi bilimlar oliy o‘quv yurti o‘qituvchisi uchun asosiy manba bo‘lib xizmat qiladi;

- o‘rganilayotgan manba bo‘yicha ma’lumotlar va axborotlar asosidagi bilimlar hajmining kattaligi va ulardan intellektuallashtirilgan ta’limni tashkil etish imkoniyatining mavjudligi. Bunda ta’lim beruvchi va maslahat berish tizimlar hamda axborot-qiduruv dasturlari ishtirokidagi interfaol o‘qitish tizimini shakllantirib olishga xarakat qilinadi;

- professor-o‘qituvchining muayyon manbadagi axborotni to‘liq bilmay qolgan hollarda evristik metodlarni qo‘llay bilishligi. Bunda ta’lim beruvchi va ta’lim oluvchilarning yangi bilimlarni o‘zlashtirishda hamkorlikdagi harakati bilan darsda ro‘y bergan muammoli vaziyatni hal etishning optimal variantlarini tanlashga kuchli e’tibor beriladi va shu asosidagi evristik ta’limni tashkil etishga kirishiladi.

Qaralayotgan jarayonda intellektuallashtirilgan o‘qitish tizimlarining didaktik asoslari bilan ta’lim beruvchi va maslahat beruvchi dasturlar funktsional vazifalari integratsiyalanadi. Umuman olganda evristik tizimlar quyidagi ko‘rinishlarda (turlarda, yo‘nalaishlarda) faoliyat ko‘rsatadi: rejalashtiruvchi; bashoratlovchi; tashxislovchi; o‘rgatuvchi. Ular evristik ta’lim mazmun-mohiyati va maqsad-vazifalariga qarab interfaol ta'lim metodlarini amaliyotga joriy etishda keng qo‘llaniladi.

9. Generalizatsiyalash. “Generalizatsiyalash - bu mantiqiy jihatdan xususiy holatlardan umumiy holatga o‘tishdan iborat bo‘lgan umumlashtirishdir”[2].

ATM faoliyat ko‘rsatishining ushbu qismidan keyin, ya’ni dastlabki tarkibiy qismining tashkiliy-tuzilmaviy modeli o‘z funktsional vazifasini bajarib bo‘lganidan keyin uning keyingi qadamlari (intellektuallashtirilgan o'qitish texnologiyasi) ishlab chiqiladi.

Ushbu jarayonda kerakli fanni tanlab olish interfaol o‘quv majmuasi tarkibiga kiruvchi ta’lim beruvchi va maslahat beruvchi tizimlar funktsional vazifalariga asoslanib amalga oshiriladi. Mavzuni tanlab olish ham xuddi fanni tanlab olish tamoyiliga asoslanadi. Bunda fanni tanlab olishda o‘quv rejasidagi fanlar bloklari orqali kirib kelinsa, mavzuni tanlab olishda o‘rganilayotgan fan bo‘yicha bob, bo‘limlar orqali kirib kelinadi. Ular haqidagi ma’lumotlar interfaol o‘quv majmualarining “Intellektuallashtirilgan ta’limning didaktik asoslari” va “Intellektuallashtirilgan o'qitish tizimlari” tarkibiy qismlari asosida shakllantiriladi. Manba bo‘yicha (fan, mavzu va h.k.) materiallar to‘plangandan keyin, ta’lim oluvchining bilimi dastlabki (oraliq) nazoratdan o‘tkaziladi va shu asosida ta’lim oluvchining bilim darajasi hamda ushbu darajaga mos ravishda mavzu materiali generializatsiyalanadi.

Demak, ushbu jarayonni loyihalashtirilgan algoritmik ketma-ketligi asosida davom ettirish natijasida qarayotgan fan bo‘yicha barcha mavzularni o‘zlashtirishga erishish mumkin bo‘ladi. Qayd etilgan axborotli yondashuv asosan zamonaviy axborot vositalari va innovatsion dasturiy ta’minot orqali amalga oshirar ekan va ular bo‘lajak muxandis-pedagoglarni zamonaviy ta’lim talablari asosida, ya’ni raqobatbardosh qilib tayyorlash imkoniyatini yaratadi. Shu sababli bo‘lajak muxandis-pedagoglarni innovatsion faoliyatga tayyorlashda interfaol o‘quv majmualaridan foydalanish nihoyatda muhim, chunki bo‘lajak muxandis-pedagoglarni tayyorlashda ATMdan foydalangan holdagi innovatsion-dasturiy ta’minot bunda juda qo‘l keladi. Ayniqsa, ATM asosida interfaol o‘quv majmualaridan foydalangan holdagi innovatsion rivojlangan bo‘lajak muxandis-pedagoglarni tayyorlashda erganomik tizimlar roli beqiyos va ular yordamida bo‘lajak mutaxassislarni tayyorlashning optimal variantlarini kafolatlash mumkin.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 20-apreldagi PQ-2909-son “Oliy ta’lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” gi Qarori. www.lex.uz.

2. Xasanboyev J., To‘raqulov X.A., Xaydarov M., Xasanboyeva O., Usmonov N. O‘. Pedagogika fanidan izohli lug‘at. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2009. 672-b.

3. To‘raqulov O. X. Axborotlashtirilgan ta’lim muhitida ta’limni boshqarish. O‘quv-metodik qo‘llanma. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2010. 156-b.

4. Axmedov J. R. Axborotlashtirilgan ta’lim muhitida bo‘lajak kasb ta’limi o‘qituvchilarini innovatsion faoliyatga tayyorgarligini takomillashtirish. (PhD) ... diss. – Toshkent, 2020. 160-b.

5. Axmedov J. R. Bo‘lajak o‘qituvchilarni innovatsion faoliyatga tayyorlashning harakatlar strategiyasi// “Ta’lim, fan va innovatsiya” Ma’naviy- ma’rifiy, ilmiy-uslubiy jurnal. – Toshkent, 2019. №2. – B. 68-74.

6. To‘raqulov O. X., Axmedov J. R., Xamzayev X. Q. Texnology of organizing “Interactive Communication Platform”. Eastrn European Scientific Jurnal, Ausgabe 3. 2018, 297-304 p.

# PEDAGOGLARNING KASBIY RIVOJLANISHIDA SUN'IY INTELLEKTGA ASOSLANGAN ELEKTRON TA'LIM VOSITALARINING ROLI

**Nizamov Akmal Shoxobiddinovich,** GulDPI mustaqil tadqiqotchisi, Sirdaryo viloyati pedagogik mahorat markazi Aniq va tabiiy fanlar metodikasi kafedrasi mudiri, katta o'qituvchi
**e-mail:** nizamovakmal0088@gmail.com

**Annotatsiya.** Ushbu maqola pedagoglarning kasbiy rivojlanishida sun'iy intellekt (SI) asosidagi elektron ta'lim vositalarining rolini o'rganadi. Tadqiqotda SI texnologiyalarining malaka oshirish kurslarida qo'llanilishi, ularning afzalliklari va cheklovlari tahlil qilinadi. Tadqiqot muammosining dolzarbligi zamonaviy ta'lim tizimida pedagoglarning uzluksiz rivojlanishiga bo'lgan ehtiyoj bilan izohlanadi. Tadqiqotda sifatli va miqdoriy metodologiyalar qo'llanilib, SI vositalarining samaradorligi baholanadi. Natijalar shuni ko'rsatadiki, SI asosidagi vositalar moslashuvchanlik va shaxsiylashtirish imkoniyatlarini oshiradi, ammo infratuzilma va malaka masalalari cheklov sifatida qolmoqda.

**Kalit so'zlar:** sun'iy intellekt, elektron ta'lim, pedagoglar, kasbiy rivojlanish, malaka oshirish, ta'lim texnologiyalari, moslashuvchanlik;

# РОЛЬ ЭЛЕКТРОННЫХ ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ СРЕДСТВ НА ОСНОВЕ ИСКУССТВЕННОГО ИНТЕЛЛЕКТА В ПРОФЕССИОНАЛЬНОМ РАЗВИТИИ ПЕДАГОГОВ

**Абстрактный.** Статья посвящена исследованию роли инструментов электронного обучения на основе искусственного интеллекта (ИИ) в профессиональном развитии педагогов. Рассматриваются применение ИИ в курсах повышения квалификации, их преимущества и ограничения. Актуальность проблемы обусловлена необходимостью непрерывного профессионального развития педагогов в условиях современной образовательной системы. В исследовании используются качественные и количественные методы для оценки эффективности ИИ-инструментов. Результаты показывают, что ИИ повышает гибкость и персонализацию обучения, однако инфраструктурные и квалификационные ограничения остаются значимыми.

**Ключевые слова:** искусственный интеллект, электронное обучение, педагоги, профессиональное развитие, повышение квалификации, образовательные технологии, гибкость

# THE ROLE OF AI-BASED ELECTRONIC EDUCATIONAL TOOLS IN THE PROFESSIONAL DEVELOPMENT OF EDUCATORS

**Abstract.** This article explores the role of artificial intelligence (AI)-based e-learning tools in the professional development of educators. It analyzes the

application of AI technologies in professional development courses, their advantages, and limitations. The relevance of the study stems from the need for continuous professional development of educators in modern education systems. Qualitative and quantitative methodologies are employed to evaluate the effectiveness of AI tools. The results indicate that AI enhances flexibility and personalization in learning, but infrastructure and skill-related challenges remain significant barriers.

**Keywords:** artificial intelligence, e-learning, educators, professional development, professional training, educational technologies, flexibility

**Kirish.** Zamonaviy ta’lim tizimida pedagoglarning uzluksiz kasbiy rivojlanishi muhim ahamiyatga ega. Raqamli transformatsiya davrida sun’iy intellekt asosidagi elektron ta’lim vositalari pedagoglarning malaka oshirish jarayonlarini tubdan o‘zgartirmoqda [5, 15-b.]. Masalan, sun’iy intellekt asosidagi platformalar pedagoglarning bilim darajasiga mos vazifalar taklif qilishi va o‘quv natijalarini tezkor baholashi mumkin. Shu bilan birga, sun’iy intellekt vositalarini ta’limda qo‘llash infratuzilma, pedagoglarning raqamli savodxonligi va moliyaviy resurslar bilan bog‘liq muammolarni keltirib chiqaradi [2, 47-b.].

Biroq, sun’iy intellekt vositalarini ta’limda qo‘llash infratuzilma, raqamli savodxonlik va moliyaviy resurslar bilan bog‘liq muammolarni keltirib chiqaradi. Yurtimiz ta’lim tizimida sun’iy intellekt texnologiyalarini joriy etish hali boshlang‘ich bosqichda bo‘lib, xalqaro tajribalarni mahalliy sharoitga moslashtirish zarurati yuqori [3, 12-b.]. Ushbu maqola sun’iy intellekt asosidagi elektron ta’lim vositalarining pedagoglarning kasbiy rivojlanishiga ta’sirini tahlil qilish, ularning afzalliklari va cheklovlarini aniqlash hamda ta’lim tizimimizda qo‘llash bo‘yicha amaliy takliflar ishlab chiqishga qaratilgan.

**Mavzuga oid adabiyotlar tahlili.** Sun’iy intellekt asosidagi ta’lim vositalarining pedagoglarning kasbiy rivojlanishidagi o‘rni xalqaro va mahalliy adabiyotlarda keng muhokama qilinmoqda. Siemens (2018) “konnektivizm” nazariyasiga asoslanib, sun’iy intellekt texnologiyalari o‘quv jarayonini moslashuvchan va shaxsiylashtirilgan qilishini ta’kidlaydi [5, 15-b.]. U sun’iy intellekt vositalarining o‘quvchilarning individual ehtiyojlariga mos ta’lim traektoriyalarini shakllantirishda muhim ekanligini qayd etadi. UNESCO (2021) hisobotida sun’iy intellekt ta’lim sifatini oshirishda katta salohiyatga ega ekanligi, lekin rivojlanayotgan mamlakatlarda infratuzilma va malaka masalalari to‘siq bo‘lib qolayotgani ta’kidlanadi [3, 12-b.].

Xalqaro tajribada sun’iy intellekt asosidagi platformalar, masalan, “Coursera”, “EdX” va “Khan Academy”, pedagoglarning kasbiy rivojlanishida faol qo‘llanilmoqda. AQShda sun’iy intellekt vositalari o‘qituvchilarning bilim darajasini baholash va individuallashtirilgan o‘quv dasturlarini ishlab chiqishda keng foydalaniladi [4, 34-b.]. Singapurda esa AI asosidagi LMS (Learning Management System) tizimlari o‘qituvchilarning malaka oshirish kurslarida real vaqt rejimida monitoring va fikr-mulohaza berish uchun ishlatiladi [7, 23-b.].

Hozirgi vaziyatda sun’iy intellekt texnologiyalarni ta’limda qo‘llash bo‘yicha tadqiqotlar cheklangan. Alimova (2023) yurtimiz ta’lim tizimida raqamlashtirish jarayonlarini rivojlantirish zarurligini ta’kidlaydi, lekin sun’iy intellekt vositalarini joriy etishda infratuzilma va malaka masalalari muhim to‘siq sifatida qolmoqda [5, 90-b.]. O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2022-yilgi strategiyasida ta’limni raqamlashtirishga alohida e’tibor qaratilgan, ammo sun’iy intellekt texnologiyalari bo‘yicha aniq yo‘l-yo‘riqlar hali shakllanmagan [8, 5-b.]. Ushbu tahlil sun’iy intellekt vositalarining afzalliklari, cheklovlari va ta’lim tizimida qo‘llash imkoniyatlarini aniqlash uchun asos bo‘ldi.

**Tadqiqot metodologiyasi.** Tadqiqotda sifatli va miqdoriy metodologiyalarning kombinatsiyasi qo‘llanildi. Tadqiqot Toshkent, Samarqand, Navoiy, Jizzax va

Sirdaryo viloyatidagi 5 ta oliy ta’lim muassasasida malaka oshirish kurslarida ishtirok etayotgan 170 nafar pedagogni qamrab oldi.

*Miqdoriy tahlil*. So‘rovnoma 5 ballik Likert shkalasi asosida tuzildi va quyidagi jihatlarni baholashga qaratildi:

- sun’iy intellekt vositalarining foydalanuvchi uchun qulayligi;
- individuallashtirilgan o‘quv traektoriyalarining samaradorligi;
- texnik infratuzilma va malaka bilan bog‘liq cheklovlar;
- o‘quv natijalariga sun’iy intellekt vositalarining ta’siri.

So‘rovnoma 4 ta asosiy bo‘limdan iborat bo‘lib, jami 25 ta savolni qamrab oldi. Ma’lumotlar SPSS yordamida quyidagi statistik usullar qo‘llanildi:

- *deskriptiv statistikada* o‘rtacha, median, standart og‘ish va foizli taqsimotlar hisoblandi;
- *korelyatsion tahlilda* sun’iy intellekt vositalarining moslashuvchanligi va o‘quv natijalari o‘rtasidagi bog‘liqlik aniqlandi (Pearson korrelyatsiyasi);
- *X2 testida* sun’iy intellekt vositalarining samaradorligi pedagoglarning yillik ish tajribasi va raqamli savodxonlik darajasi bilan bog‘liqligi tekshirildi.

**Sifatli tahlil**: 20 nafar malaka oshirish kurslari ishtirokchisi va 10 nafar ta’lim mutaxassisiga quyidagi savollarni berildi:

1) Sun’iy intellekt vositalarining amaliy qo‘llanilishi qanday afzalliklarga ega?
2) Pedagoglar sun’iy intellekt platformalaridan foydalanishda qanday qiyinchiliklarga duch kelishmoqda?
3) Sun’iy intellekt vositalarini ta’lim tizimida keng joriy etish uchun qanday choralar zarur?

Sifatli ma’lumotlar kontent-tahlil usuli orqali ishlov berildi. Tahlil jarayonida asosiy mavzular (masalan, “moslashuvchanlik”, “malaka yetishmasligi”, “infratuzilma muammolari”) aniqlandi va kodlashtirildi.

Tadqiqotda etik me’yorlarga rioya qilindi, ishtirokchilarning roziligi olindi, ma’lumotlar anonim tarzda yig‘ildi va maxfiylik ta’minlandi.

**Tahlil va natijalar.**

Tadqiqot natijalari sun’iy intellekt asosidagi elektron ta’lim vositalarining pedagoglarning kasbiy rivojlanishida muhim afzalliklarga ega ekanligini ko‘rsatdi. Quyida asosiy topilmalar batafsil yoritiladi:

1. So‘rovnoma natijalariga ko‘ra, pedagoglarning 86% sun’iy intellekt platformalari o‘quv jarayonini moslashuvchan qilishini ta’kidladi. Masalan, sun’iy intellekt vositalari pedagoglarning ish jadvaliga mos keladigan individual o‘quv grafiklarini taklif qiladi. Korelyatsion tahlil shuni ko‘rsatdiki, moslashuvchanlik va o‘quv natijalari o‘rtasida ijobiy bog‘liqlik mavjud ($r = 0.74$, $p < 0.01$). X2 testi natijalari pedagoglarning yillik ish tajribasi moslashuvchanlikni qabul qilish darajasiga ta’sir qilmasligini ko‘rsatdi ($p = 0.12$).

2. Sun’iy intellekt platformalari pedagoglarning bilim darajasiga mos vazifalar va resurslar taqdim etadi. So‘rovnoma ishtirokchilarining 80% shaxsga yo‘naltirilgan o‘quv materiallari o‘quv samaradorligini oshirganini qayd etdi [7, 23-b.]. Masalan, sun’iy intellekt asosidagi LMS tizimlari pedagoglarning zaif tomonlarini aniqlab, qo‘shimcha mashqlar taklif qiladi. Quyidagi jadvalda shaxsga yo‘naltirishning samaradorligi bo‘yicha respondentlarning fikrlari keltirilgan:

***1-jadval.***

| **Baho (Likert shkalasi)** | **Foiz (%)** |
|---|---|
| Juda samarali (5) | 45% |
| Samarali (4) | 35% |
| Neytral (3) | 15% |
| Samarasiz (2) | 4% |

| | |
|---|---|
| Umuman samarasiz (1) | 1% |

**Shaxsga yo‘naltirilgan o‘quv materiallarining samaradorligi**

3. Tezlik va monitoring borasida sun’iy intellekt vositalari o‘quv jarayonidagi muvaffaqiyatni tezkor baholash imkonini beradi. So‘rovnoma natijalariga ko‘ra, 68% pedagoglar sun’iy intellekt tahlil vositalarining real vaqtda fikr-mulohaza berish qobiliyatini ijobiy baholadi. Bu o‘qituvchilarga o‘z kamchiliklarini tezda aniqlash va tuzatish imkonini beradi.

Biroq, bir qator cheklovlar ham aniqlandi:

- so‘rovnoma ishtirokchilarining 72% chekka hududlarda internet sifati va zamonaviy qurilmalarga ega bo‘lish darajasi past ekanligini qayd etdi. Bu sun’iy intellekt platformalaridan to‘liq foydalanishni qiyinlashtiradi;
- Pedagoglarning 78% sun’iy intellekt platformalaridan foydalanish bo‘yicha yetarli malakaga ega emas. So‘rov natijalariga ko‘ra, ko‘p pedagoglar sun’iy intellekt vositalarining murakkab funksiyalarini o‘zlashtirishda qiyinchiliklarga duch kelmoqda;
- sun’iy intellekt platformalarini joriy etish va ulardan foydalanish yuqori xarajatlarni talab qiladi. So‘rovnoma ishtirokchilarining 60% bu omilni ta’lim tizimi uchun muhim to‘siq deb hisoblaydi [3, 14-b.].

Sifatli tahlil natijalari shuni ko‘rsatdi-ki, pedagoglar sun’iy intellekt vositalarining potensialiga ijobiy qarashadi, lekin ularni samarali qo‘llash uchun maxsus treninglar, texnik yordam va mahalliy platformalar zarur. Quyidagi diagramma respondentlarning sun’iy intellekt vositalariga munosabatini ko‘rsatadi:





**Diagramma. Pedagoglarning sun’iy intellekt vositalariga munosabati**

(Tavsif: Diagramma 5 ballik shkala asosida tuzilgan bo‘lib, 45% respondentlar sun’iy intellekt vositalarini “juda samarali” (5), 30% “samarali” (4), 20% “neytral” (3), 4% “samarasiz” (2) va 1% “umuman samarasiz” (1) deb baholagan.)

**Xulosa va takliflar.**

Tadqiqot natijalari sun’iy intellekt asosidagi elektron ta’lim vositalarining pedagoglarning kasbiy rivojlanishida muhim salohiyatga ega ekanligini tasdiqladi. Sun’iy intellekt platformalari moslashuvchanlik, shaxsga yo‘naltirish va o‘quv jarayonining samaradorligini oshiradi. Biroq, infratuzilma, malaka va moliyaviy cheklovlar ularning keng qo‘llanilishini pasaytirmoqda yoki butunlay to‘xtatmoqda.

Quyidagi amaliy takliflar beriladi:

1. Maxsus trening dasturlari ishlab chiqish ya’ni, malaka oshirish kurslarida sun’iy intellekt vositalaridan foydalanish bo‘yicha 3-6 oylik trening dasturlari tashkil

etilishi zarur. Ushbu dasturlar pedagoglarning raqamli savodxonligini oshirishga xizmat qiladi.

2. Davlat va xususiy sektor hamkorligida ta’lim muassasalarida yuqori sifatli internet va zamonaviy qurilmalarga kirish imkoniyatlari yanada kengaytirilishi lozim. Xususan, olis va chekka hududlarda “Raqamli ta’lim” loyihalari joriy etilishi kerak.

3. Mahalliy sun’iy intellekt platformalarini ishlab chiqish ya’ni, ta’lim tizimiga moslashtirilgan, xarajati past milliy sun’iy intellekt platformalari ishlab chiqilishi zarur. Bu mahalliy ehtiyojlarni qondirish va xarajatlarni kamaytirishga yordam beradi.

4. Xalqaro hamkorlik qilish, bu borada AQSh, Singapur va Janubiy Koreya kabi mamlakatlarning sun’iy intellekt vositalarini ta’limda qo‘llash tajribasi o‘rganilib, bizning sharoitimizga moslashtirilishi lozim. Xalqaro grantlar va loyihalar jalb qilinishi tavsiya etiladi.

5. Monitoring va baholash tizimini joriy qilish ya’ni, sun’iy intellekt vositalarining ta’limdagi samaradorligini baholash uchun milliy monitoring tizimi joriy etilishi kerak. Bu tizim pedagoglarning o‘quv natijalarini tahlil qilish va dasturlarni takomillashtirishga yordam beradi.

6. Ushbu takliflar ta’lim tizimida sun’iy intellekt asosidagi elektron ta’lim vositalarini samarali joriy etishga va pedagoglarning kasbiy malakasini oshirishga xizmat qiladi. Kelgusida sun’iy intellekt vositalarining ta’limdagi ta’sirini yanada chuqur o‘rganish uchun uzoq muddatli tadqiqotlar o‘tkazish tavsiya etiladi.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Alimova, N. Ta’limda raqamli texnologiyalarni qo‘llash. – Tashkent: Fan va Texnologiya. 2023.

2. IBM SPSS Statistics 29 Documentation. Retrieved from 2023. https://www.ibm.com/docs/en/spss-statistics/29.0.0

3. Johnson L. Artificial Intelligence in Professional Development. – London: Springer, 2022.

4. Lee S. AI-Powered Education: Global Perspectives. – Singapore: NUS Press, 2023.

5. O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi. Ta’limni Raqamlashtirish strategiyasi. – Tashkent, 2022.

6. Siemens G. Connectivism: A Learning Theory for the Digital Age. – New York: Routledge, 2018.

7. UNESCO. AI and Education: Guidance for Policy-makers. – Paris: UNESCO Publishing, 2021.

8. Wilson D. Educational Technologies in Teacher Training. – Boston: Harvard Education Press, 2020.

# BO‘LAJAK TEXNOLOGIYA O‘QITUVCHILARINING KOGNITIV FAOLLIGINI RIVOJLANTIRISHDA LOYIHALASH USULLARIDAN FOYDALANISH

**Yaxshiboyev Temur-Malik,** Guliston davlat pedagogika instituti “Aniq fanlar” kafedrasi o‘qituvchisi
**e-mail:** temurbek5777@gmail.com

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada bo‘lajak texnologiya o‘qituvchilarining kognitiv faolligini rivojlantirishda loyihalash usullaridan foydalanish va Interaktiv texnologiyalardan foydalanish, o‘quv jarayonining samaradorligi va sifatini oshirishda kognitiv jarayonning o‘rni, kognitiv faoliyatning darajalari, va olimlar tadqiqotida kognitiv faoliyatning tuzilishi yoritib berilgan, innovatsion loyiha.

**Kalit so‘zlar:** faollik tamoyili, psixologik faoliyat, kognitivlik, interektiv, natijalarni baholash, refleksiya, loyihalashtirish, interdisiplinar loyihalar, muammoga asoslangan loyiha;

# ИСПОЛЬЗОВАНИЕ МЕТОДОВ ПРОЕКТИРОВАНИЯ В РАЗВИТИИ ПОЗНАВАТЕЛЬНОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ БУДУЩИХ УЧИТЕЛЕЙ ТЕХНОЛОГИЙ

**Аннотация.** В данной статье рассматривается применение проектных методов и применение интерактивных технологий в развитии познавательной активности будущих учителей технологий. Раскрывается роль познавательного процесса в повышении эффективности и качества образовательного процесса, выделяются уровни познавательной активности, структура познавательной активности в исследованиях ученых, инновационный проект.

**Ключевые слова:** принцип активности, психологическая активность, познание, интерактив, оценка результатов, рефлексия, проектирование, междисциплинарные проекты, проблемный проект;

# USING DESIGN METHODS IN DEVELOPING THE COGNITIVE ACTIVITY OF FUTURE TECHNOLOGY TEACHERS

**Abstract.** This article discusses the use of project-based methods and the use of interactive technologies in the development of cognitive activity of future technology teachers. The role of the cognitive process in increasing the efficiency and quality of the educational process, the levels of cognitive activity, and the structure of cognitive activity in the research of scientists are highlighted, an innovative project.

**Keywords:** the principle of activity, psychological activity, cognition, interactive, assessment of results, reflection, design, interdisciplinary projects, problem-based project;

**Kirish.** Ta’limda faollik tamoyilini amalga oshirish ma’lum ahamiyatga ega, chunki ta’lim va rivojlanish tabiatan faoliyatga asoslangan bo‘lib, o‘spirinlarni o‘rganish, rivojlantirish va tarbiyalash natijasi psixologik faoliyat bog‘liq. O‘quv jarayonining samaradorligi va sifatini oshirish muammosini hal qilishning asosiy muammosi o‘spirinlarining bilim olishini faollashtirishdir. Mutafakkirlarimiz,

allomalarimiz Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali Ibn Sino, Abu Nasr Forobiy kabi yuzlab ustozlarimiz o‘z asarlarida kognitiv faoliyat haqida turlicha fikr bildirishgan. Har bir davrda ustozlarimiz shogirdlari ta’lim olishini faollashtirish, komil inson tarbiyasida kognitivlikdan foydalanishgan.

**Tadqiqot metodologiyasi.** Ta’lim faoliyati usullari-bu bilim va ko‘nikmalarni o‘zlashtirish uchun vositalardan foydalanish usullaridir deb fikr bildiradilar. Kognitivlik o‘qituvchi tomonidan ma’lum bir darsda qo‘llaniladigan o‘qitish usullariga bog‘liq. Ta’lim faoliyati usullari, masalan, adabiyotlarni o‘rganish va o‘quv materialining qisqacha mazmuni, muammolarni hal qilishda matematik operatsiyalar, laboratoriya ishlarini bajarish va hisobot tuzish usullari, muammolarni individual yoki guruhli hal qilish usullari, o‘rganilayotgan hodisalarni, jarayonlarni o‘rganish usullari, interfaollik va boshqalarni o‘z ichiga oladi.

Ayrim olimlarning (V. E. Shtaynberg, N. N. Manko, G. K. Selevko va boshqalar) xulosasiga ko‘ra, o‘spirinlarning bilish faoliyatini rivojlantirish vositalaridan biri mantiqiy-semantik modellardir. Ushbu modellar ko‘p funktsiyali, chunki o‘rganishning turli bosqichlarida qo‘llanilishi mumkin: - yangi material bilan tanishishda, uni mustahkamlashda, bilimlarni umumlashtirish va tizimlashtirishda, uni tuzatish va nazorat qilishda. Psixologik va pedagogik adabiyotlarda «kognitiv faoliyat» tushunchasi quyidagicha izohlanadi. Kognitiv faoliyatni shakllantirish muammosi uzoq vaqt oldin paydo bo‘lgan va bugungi kunda ham eng dolzarb muammolardan biri hisoblanadi. O‘sprinning kognitiv faolligi darajasi o‘quv, rivojlantiruvchi va tarbiyaviy vazifalarni hal qilish samaradorligini belgilaydi. I. F. Xarlamov ta’limni “o‘spirinlarning ilmiy bilim, qobiliyat, ko‘nikma, ijodiy qobiliyatlarni rivojlantirish, dunyoqarash hamda axloqiy-estetik g‘oyalar va e’tiqodlarini rivojlantirishga qaratilgan faol o‘quv-kognitiv faoliyatini tashkil etish va rag‘batlantirishning maqsadli psixologik jarayoni” deb ta’riflaydi. Faoliyatni aniqlashda ular uning dinamik tarkibiy qismiga yoki shaxsiy qismiga tayanadilar. Birinchi holda, V. A. Petrovskiy, V. I. Sekun tomonidan faoliyat shaxs tomonidan belgilanadigan harakatlar majmui sifatida tavsiflanadi. Ikkinchisida K. A. Abulxanova-Slavskaya, G. S. Kostyuk, G. I. Shchukina tomonidan faoliyat shaxsning sifati, sub’ektning ajralmas mulki sifatida talqin qilinadi, uning asosini har xil ishlarni samarali amalga oshirish imkonini beruvchi ma’lum munosabat tashkil etadi. Ushbu yondashuvdagi faoliyat darajasi va xarakterini belgilaydi. O‘spirinlarning kognitiv faolligi takomillashtirishning muhim omili va ayni paytda o‘quv jarayonining samaradorligi va samaradorligi ko’rsatkichidir, chunki u mustaqillikni, ta’lim mazmunini o‘zlashtirishga izlanish va ijodiy yondashuvni rivojlantirishni rag‘batlantiradi. O‘z-o‘zini tarbiyalashda namoyon bo‘ladi [1; 54-b]

**Tahlil va natijalar.** Bo‘lajak texnologiya o‘qituvchilarining kognitiv faolligini rivojlantirishda loyiha asosida ta’lim berish usullaridan foydalanish juda samarali bo‘lishi mumkin. Loyiha asosidagi ta’lim usuli o‘quvchilarga muammolarni hal qilish, ijodkorlik va tanqidiy fikrlash ko‘nikmalarini rivojlantirishda yordam beradi. Quyidagi usullar va takliflar kognitiv faoliyatni oshirishda qo‘llanilishi mumkin:

Loyihalash usulini tanlash: O‘qituvchilar o‘zlariga qiziqarli va dolzarb mavzularni tanlashlari va shu asosda loyiha ishlab chiqishlari kerak. Bu mavzular texnologik yangiliklar, ta’lim metodikasi yoki ijtimoiy masalalar bo‘lishi mumkin.

Guruhda ishlash: O‘quvchilarni kichik guruhlarga bo‘lish va har bir guruhga turli vazifalar berish. Bu usul jamoaviy fikrlash va hamkorlik ko‘nikmalarini rivojlantiradi.

Tadqiqot va tahlil: O‘quvchilarga o‘z loyihalari uchun zarur bo‘lgan ma’lumotlarni tadqiq qilish va tahlil qilish vazifasini berish. Bu ularning kognitiv faoliyatini oshiradi va mustaqil fikrlashga undaydi.

Interaktiv texnologiyalardan foydalanish: Loyihani amalga oshirish jarayonida zamonaviy texnologiyalar, masalan, onlayn platformalar, dasturlash tillari yoki grafik dizayn vositalaridan foydalanishni o‘rgatish.

Natijalarni baholash va fikr almashish: Loyiha yakunida o‘quvchilar o‘z natijalarini taqdim etishlari va bir-birlari bilan fikr almashishlari kerak. Bu jarayon tanqidiy fikrlash va o‘z fikrini asoslash ko‘nikmalarini rivojlantiradi.

Refleksiya: O‘quvchilardan o‘z faoliyatlari haqida fikr yuritishni so‘rash. Bu, o‘z-o‘zini baholash va kognitiv jarayonlarni chuqurlashtirishga yordam beradi.

Ushbu usullarni qo‘llash orqali bo‘lak texnologiya o‘qituvchilarining kognitiv faolligini oshirish, ularning ijodkorlik va muammolarni hal qilish ko‘nikmalarini rivojlantirish mumkin. Bu esa o‘qituvchilarni zamonaviy va talabga javob beradigan mutaxassislar sifatida tayyorlashga yordam beradi.

Loyihalashtirish usullari ta’lim jarayonida muammoni hal qilish va ijodiy fikrlashni rivojlantirish uchun qo‘llaniladi. Quyida loyihalashtirish usullarining asosiy turlari keltirilgan:

An’anaviy loyihalashtirish: Ushbu usulda o‘quvchilar biror mavzuni chuqur o‘rganish uchun aniq maqsad va topshiriqlar asosida loyiha yaratadilar. Bu usul ko'pincha o‘zaro muloqot va jamoaviy ishni talab qiladi.

Mavzuli loyiha: O‘quvchilarni qiziqtiradigan bir mavzu asosida loyiha ishlab chiqish. Mavzular o‘z ichiga ijtimoiy, iqtisodiy yoki ekologik masalalarni olishi mumkin.

Interdisiplinar loyihalar: Bir nechta fanlarni birlashtirib, o‘quvchilarga yanada kengroq nuqtai nazardan muammolarni hal qilish imkonini beruvchi loyihalar. Masalan, matematikani, fanlarni va san’atni birlashtirgan loyiha.

Muammoga asoslangan loyiha: O‘quvchilar biror muammoni hal qilish uchun loyiha ishlab chiqishadi. Bu usulda real hayotdagi muammolar ko‘rib chiqiladi va hal etish yo‘llari izlanadi.

Innovatsion loyiha: O‘quvchilar yangi g‘oyalar, mahsulotlar yoki xizmatlar yaratish uchun innovatsion yondashuvlarni qo‘llaydi. Ushbu usul ijodkorlikni va yangi fikrlashni rivojlantirishga qaratilgan.

Ijtimoiy loyiha: O‘quvchilar ijtimoiy masalalarga e’tibor qaratib, jamiyatda ijobiy o‘zgarishlar kiritish maqsadida loyiha ishlab chiqadilar. Bu turdagi loyihalar ko‘pincha jamoatchilik bilan hamkorlikda amalga oshiriladi.

Onlayn loyiha: Zamonaviy texnologiyalardan foydalanib, o‘quvchilar onlayn platformalarda loyiha yaratishadi. Bu usul masofaviy ta’limda ham qo‘llanilishi mumkin.

O‘z-o‘zini baholash loyihasi: O‘quvchilar o‘z faoliyatlarini baholash va tahlil qilish orqali o‘z ko‘nikmalarini rivojlantirishga intilishadi. Bu jarayonda o‘z fikrlarini ifoda etish va o‘z-o‘zini tanqid qilish muhim.

Ushbu loyihalashtirish usullari o‘quvchilarni faollashtirish, ijodiy fikrlash va muammolarni hal qilish ko‘nikmalarini rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega. Har bir usul o‘ziga xos xususiyatlarga ega bo‘lib, o‘quvchilarning qiziqishlari va ehtiyojlariga qarab tanlanishi mumkin.

Loyihalashtirish usullarining samaradorligi ko‘plab omillarga bog‘liq, jumladan, o‘quvchilarning yosh guruhi, mavzu, ta’lim muammosi va o‘qituvchining pedagogik mahorati. Har bir usulning o‘ziga xos afzalliklari bor, shuning uchun “eng samarali” usulni belgilash qiyin. Biroq, quyidagi usullar ko‘plab ta’lim muassasalarida ijobiy natijalar berishi bilan ajralib turadi:

Muammoga asoslangan loyiha: Ushbu usul o‘quvchilarga real hayotdagi muammolarni hal qilish imkonini beradi. O‘quvchilar o‘zlarini muammoni hal qiluvchi sifatida his qiladilar, bu esa ularning motivatsiyasini oshiradi va tanqidiy fikrlash ko'nikmalarini rivojlantiradi.

Interdisiplinar loyihalar: Bir nechta fanlarni birlashtirgan loyihalar o‘quvchilarga kengroq nuqtai nazardan fikrlash imkonini beradi. Bu usul ko‘pincha ijodkorlik va innovatsiyalarni rag‘batlantiradi.

Ijtimoiy loyiha: O‘quvchilar o‘z jamiyatlari uchun ijobiy o‘zgarishlar kiritishga intilishadi. Bu jarayon ularning ijtimoiy mas’uliyatini oshiradi va ta’limda amaliy ko‘nikmalarni rivojlantiradi.

Innovatsion loyiha: Yangi g‘oyalar va mahsulotlar yaratishga qaratilgan loyihalar o‘quvchilarning ijodkorligini rag‘batlantiradi va ularni zamonaviy texnologiyalar bilan tanishtiradi.

Onlayn loyiha: Zamonaviy texnologiyalardan foydalanish o‘quvchilarga masofadan ta’limda ham, jamoada ham ishlash imkonini beradi. Bu usul o‘zaro muloqotni va global fikrlashni rivojlantiradi.

Ushbu usullarni tanlashda o‘qituvchi o‘quvchilarni qiziqtiradigan, ular uchun muhim va dolzarb bo‘lgan mavzularni tanlashi zarur. Shuningdek, o‘qituvchining pedagogik yondashuvi, o‘quvchilarning qobiliyatlari va jamoa dinamikasi ham samaradorlikka ta’sir qiladi. Shuning uchun, har bir ta’lim muassasasi va o‘quvchi guruhi uchun eng samarali usulni aniqlash uchun tajriba o‘tkazish va tahlil qilish foydali bo‘ladi.

Loyihalashtirish usullarini turli misollarda ko‘rish mumkin, bu esa ularning amaliy qo'llanilishini ko‘rsatadi. Quyida ba’zi misollar keltirilgan:

Ta’limda muammoga asoslangan loyiha: O‘quvchilar ekologik muammolarni hal qilish uchun loyiha ishlab chiqadilar. Masalan, plastik chiqindilarni kamaytirish bo'yicha kampaniya o‘tkazish yoki mahalliy ekologik toza hududlarni saqlashga qaratilgan loyiha.

Biznesda innovatsion loyiha: Bir kompaniya yangi mahsulot ishlab chiqish maqsadida jamoaviy brainstorming sessiyasi o‘tkazadi. Ushbu sessiyada jamoa a‘zolari yangi g‘oyalarni muhokama qilib, eng yaxshi takliflarni tanlaydilar va ularni amalga oshirish uchun loyiha rejasini tuzadilar.

Ijtimoiy xizmatlar: Ijtimoiy tashkilot o'z jamoasida qashshoqlikni kamaytirish bo'yicha loyiha ishlab chiqadi. Bu loyiha mahalliy aholi bilan birgalikda ishlashni, ularga ta'lim va kasb-hunar ko'nikmalarini berishni o'z ichiga olishi mumkin.

Texnologiya va IT: Dasturchilar yangi mobil ilova yaratish bo'yicha loyiha ishlab chiqadilar. Ushbu loyiha doirasida bozor tahlili, foydalanuvchilar ehtiyojlarini o‘rganish va dasturiy ta’minotni ishlab chiqish jarayonlari amalga oshiriladi.

San’at va dizayn: Talabalar san’at ko‘rgazmasi uchun loyiha ishlab chiqadilar. Ular o‘z ijodiy g‘oyalarini birlashtirib, ko‘rgazma uchun asarlar yaratadilar va ularni tashkillashtirish uchun reja tuzadilar.

Muhandislik: Muhandislar yangi qurilish loyihasi uchun loyiha ishlab chiqadilar. Ular xarajatlarni hisoblash, materiallar tanlash va loyiha muddatlarini belgilashni o'z ichiga olgan reja yaratadilar.

Iqtisodiy tadqiqot: Talabalar iqtisodiyot fanidan loyiha tayyorlash jarayonida bozor tadqiqotlari o'tkazishadi. Ular iqtisodiy o'zgarishlarning ta'sirini o'rganish va natijalarni tahlil qilish uchun loyiha rejasini ishlab chiqadilar.

**Xulosa va takliflar.** Ushbu misollar loyihalashtirish usullarining turli sohalarda qanday qo'llanilishini ko'rsatadi. Har bir loyiha o'ziga xos maqsad va vazifalarga ega bo'lib, o'quvchilar va professional mutaxassislarning ijodkorlik va muammolarni hal qilish ko'nikmalarini rivojlantirishga yordam beradi.

## Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Gorenkov E. M. Didaktik tizimida o‘qituvchilar va talabalarning birgalikdagi faoliyatining texnologik xususiyatlari. – Moskva, 2004-yil. 90-b

2. Drujinin V. N. Umumiy qobiliyatlar psixologiyasi. – Moskva, 2007. 76-b.

3. Qaynova A. L. Talabalarning kognitiv faolligini oshirish uchun o‘yin texnologiyalaridan foydalanish xususiyatlari. – Moskva, 2008. 95-b.

4. Abdufatayev S. Fanlararo integratsiya–ta’lim-tarbiya jarayonining asosiy omili. News of the nuuz, 1(1.1), 2024. – B. 31-35.

5. Boymatov N. Ta’limni axborotlashtirish jarayonida korporativ madaniyat mazmunini takomillashtirishning pedagogik jihatlari. Science and innovation, 1(b8). – B. 538-542.

# TARBIYA VA TA’LIM INTEGRATSIYASINING INNOVATSION YONDASHUVLARI

**Almamatova Mavluda Rustam qizi,** “Sayhun ilmiy axborotnomasi” jurnali tahririyat muharriri.
**e-mail:** mavluda0993@gmail.com

**Annotatsiya.** Ushbu maqola ta’lim va tarbiya integratsiyasining innovatsion yondashuvlarini tahlil qilishga qaratilgan. Maqolada ta’lim va tarbiya tizimlarining o‘zaro bog‘liqligini mustahkamlash va ulardagi integratsiyani kuchaytirishning ahamiyati yoritiladi. Innovatsion pedagogik yondashuvlar, jumladan, o‘yin asoslangan ta’lim, raqamli texnologiyalarni qo‘llash, interfaol metodlar va kompetensiyaviy yondashuvlar ta’lim jarayonining samaradorligini oshirishi va o‘quvchilarning individual rivojlanishini ta’minlashga xizmat qiladi. Maqolada, shuningdek, ta’lim va tarbiya integratsiyasining samarali amalga oshirilishi uchun zarur bo‘lgan innovatsion yondashuvlar va ularning ta’lim tizimida qo‘llanilishi bo‘yicha ilmiy tahlillar keltirilgan.

**Kalit so‘zlar:** tarbiya va ta’lim integratsiyasi, innovatsion pedagogik yondashuvlar, o‘yin asoslangan ta’limi, raqamli ta’lim texnologiyalari, interfaol metodlar, kompetensiyaviy yondashuv, innovatsiyalar, individual yondashuv;

# ИННОВАЦИОННЫЕ ПОДХОДЫ К ИНТЕГРАЦИИ ОБРАЗОВАНИЯ И ПРЕПОДАВАНИЯ

**Абстрактный.** Целью данной статьи является анализ инновационных подходов к интеграции образования и воспитания. В статье подчеркивается важность усиления взаимосвязи систем образования и воспитания, усиления их интеграции. Инновационные педагогические подходы, включающие игровое обучение, использование цифровых технологий, интерактивных методов, компетентностный подход, способствуют повышению эффективности образовательного процесса и обеспечивают индивидуальное развитие обучающихся. В статье также представлен научный анализ инновационных подходов, необходимых для эффективной реализации интеграции образования и воспитания, и их применение в системе образования.

**Ключевые слова:** интеграция образования и воспитания, инновационные педагогические подходы, игровое обучение, цифровые образовательные технологии, интерактивные методы, компетентностный подход, инновации, индивидуальный подход;

# INNOVATIVE APPROACHES TO EDUCATION AND TEACHING INTEGRATION

**Abstract.** This article is aimed at analyzing innovative approaches to the integration of education and upbringing. The article highlights the importance of strengthening the interconnection of education and upbringing systems and enhancing their integration. Innovative pedagogical approaches, including game-based learning, the use of digital technologies, interactive methods and

competency-based approaches, serve to increase the effectiveness of the educational process and ensure the individual development of students. The article also presents innovative approaches necessary for the effective implementation of education and upbringing integration and scientific analyses of their application in the education system.

**Keywords:** integration of education and training, innovative pedagogical approaches, game-based education, digital educational technologies, interactive methods, competency-based approach, innovations, individual approach;

**Kirish.** Zamonaviy jamiyatda ta’lim tizimi faqat bilim berish vositasi sifatida qolmasdan, insonning ma’naviy, axloqiy, ijtimoiy va intellektual rivojlanishini ta’minlashga qaratilgan murakkab jarayonga aylanmoqda. Ta’limning bugungi o‘rni va ahamiyati ta’lim va tarbiya jarayonlarini bir butun tizim sifatida qarashni taqozo etadi. Ta’limning maqsadi faqat ilm olishni emas, balki shaxsni jamiyatda muvaffaqiyatli faoliyat yuritishga, o‘z-o‘zini rivojlantirishga va boshqalarga ijobiy ta’sir ko‘rsatishga tayyorlashdir.

Bugungi kunda ta’lim va tarbiya jarayonlari orasidagi o‘zaro bog‘liqlik, ularning integratsiyasi muhim ahamiyat kasb etmoqda. Tarbiya – bu insonning ma’naviy, axloqiy va jismoniy jihatdan sog‘lom shakllanishi jarayoni bo‘lib, ta’lim esa bilimlar va ko‘nikmalarni egallashning asosiy vositasi sifatida qaraladi. Integratsiya, o‘z navbatida, ta’lim va tarbiya tizimlarining bir butun tizim sifatida ishlashini ta’minlaydi va ularning o‘zaro bog‘lanishini kuchaytiradi. Ta’limning integratsiya jarayoni faqat nazariy emas, balki amaliy yondoshuvni ham talab etadi.

Zamonaviy ta’lim va tarbiya tizimlari globalizatsiya, raqamli texnologiyalar va ijtimoiy o‘zgarishlar ta’sirida yangilanmoqda. O‘quvchilar, talabalarga yuqori sifatli bilimlar berish bilan birga, ularning shaxsiy rivojlanishiga ham e’tibor qaratilmoqda. Shu bois, ta’lim va tarbiya integratsiyasi masalasi bugungi kunning eng dolzarb va muhim pedagogik masalalaridan biri hisoblanadi. O‘zgaruvchan ijtimoiy muhit, texnologik inqilob va ta’lim tizimining globalizatsiya jarayonlaridagi roli ta’lim va tarbiya integratsiyasini amalga oshirishda innovatsion yondashuvlarni qo‘llashni talab etadi [1].

Ta’limning innovatsion yondashuvlari – bu yangi metodlar, texnologiyalar, o‘qitish va o‘rganishning zamonaviy usullarini o‘z ichiga olgan pedagogik yangiliklar bo‘lib, ular ta’lim va tarbiya jarayonini yanada samarali, shaxsiylashtirilgan va zamonaviy talablar asosida rivojlantirishga qaratilgan. Innovatsion yondashuvlar ta’lim va tarbiya jarayonlarida o‘quvchilar va o‘qituvchilarning faol ishtirokini ta’minlaydi, o‘rganishning samaradorligini oshiradi va o‘quvchilarning ma’naviy-axloqiy qadriyatlarini shakllantirishga yordam beradi.

**Ilmiy adabiyotlar tahlili va metodologiya.** Yuqoridagi omillar ta’lim tizimining o‘zgarishiga, yangi metodologiyalarning joriy etilishiga, ta’lim va tarbiya tizimlarining integratsiyasiga asoslangan innovatsion pedagogik yondashuvlarni ishlab chiqishga turtki bo‘lmoqda. Ushbu maqolada ta’lim va tarbiya integratsiyasining innovatsion yondashuvlari tahlil qilinib, ularning o‘quvchilarning individual rivojlanishi, jamiyatdagi faoliyatini yaxshilash va bilim olishdagi samaradorligini oshirishdagi o‘rni ko‘rsatib o‘tiladi. Ta’lim va tarbiya tizimidagi innovatsiyalarni muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun pedagoglarning kasbiy kompetensiyalarini oshirish, yangi texnologiyalarni qo‘llash va o‘quvchilarning ijtimoiy mas’uliyatini rivojlantirish zarur.

Ushbu maqolada o‘quvchilarning bilim olish jarayonini sifatli va samarali tashkil etishda ta’lim va tarbiya integratsiyasining o‘rni, uning innovatsion yondashuvlari, o‘quvchilarning shaxsiy rivojlanishi va ijtimoiy o‘zgarishlar bilan bog‘liq jihatlari keltiriladi. Tadqiqotda integratsion yondashuvlar ta’lim va tarbiya

tizimlarining samarasini oshirishda qanday rol o‘ynashi ko‘rsatilgan va bu jarayonlarni takomillashtirish bo‘yicha takliflar taqdim etilgan.

Tarbiya va ta’lim jarayonining integratsiyalashuvi zamonaviy pedagogikaning muhim yo‘nalishlaridan biri bo‘lib, bu boradagi nazariy hamda amaliy izlanishlar ko‘plab pedagog-olimlar tomonidan olib borilgan. Tadqiqot davomida ushbu mavzuga oid turli milliy va xorijiy manbalar o‘rganildi, tahlil qilindi va ularning ilmiy-metodologik asoslari umumlashtirildi.

O‘zbekistonlik pedagog olimlar tomonidan ta’lim va tarbiyaning o‘zaro bog‘liqligi, ularning integratsion asosda amalga oshirilishi zarurati ko‘plab ilmiy ishlar markazida turadi. Jumladan: **Yoqubjon Boqoyev** o‘zining “Pedagogik texnologiyalar”(2015) nomli asarida zamonaviy ta’lim texnologiyalari orqali tarbiya jarayonini chuqurlashtirish imkoniyatlarini tahlil qilgan. Muallif ta’limning maqsadga yo‘naltirilganligi va tarbiyaning shaxsga yo‘naltirilganligi o‘rtasidagi uyg‘unlikni ta’minlashga urg‘u beradi [2].

**Ravshanbek Islomov** tomonidan yozilgan “Ta’lim tizimida innovatsion texnologiyalar” (2020) nomli asarda [3] innovatsion metodlarning o‘quvchi shaxsini har tomonlama rivojlantirishdagi o‘rni, shuningdek, bu texnologiyalarning tarbiya bilan uyg‘unlashuvi muhim ahamiyatga ega ekanligi ta’kidlanadi. **B. Sagdullayev**ning asarlarida milliy qadriyatlar asosida tarbiyaviy yondashuvlarni zamonaviy ta’limga integratsiyalash bo‘yicha qator metodik tavsiyalar keltirilgan. U pedagogik integratsiyani milliy g‘oyalar bilan uyg‘unlashtirish masalasini dolzarb deb biladi. **Abdulla Avloniy**ning “Turkiy guliston yoxud axloq” asari [4] tarixiy-nazariy manba sifatida hamon o‘z ahamiyatini yo‘qotmagan. Unda ta’lim va tarbiyaning ajralmasligi, axloqiy-me’yoriy qadriyatlarning yoshlarga singdirilishi haqida chuqur fikr yuritiladi.

Xalqaro miqyosda tarbiya va ta’lim integratsiyasi ko‘plab olimlar tomonidan o‘rganilgan bo‘lib, bu boradagi ilg‘or tajribalar mazkur mavzuni boyitishda muhim manba hisoblanadi.

- John Dewey (AQSH) – uning “Demokratiya va ta’lim” (1916) [5] nomli asarida ta’lim va tarbiyani ajralmas jarayon sifatida ko‘rish g‘oyasi ilgari surilgan. Deweyga ko‘ra, o‘quvchi hayotga tayyorlanmasligi kerak emas, balki hayotning o‘zida yashab o‘rganishi kerak. Bu yondashuv integratsion pedagogik modelga asos bo‘lgan.
- Lev Vygotsky (Rossiya) – “Madaniy-tarixiy rivojlanish nazariyasi” orqali ta’limda ijtimoiy kontekstning, ya’ni tarbiya elementlarining ahamiyatini asoslab bergan. Uning fikricha, bola rivojlanishida nutq va ijtimoiy muloqot asosiy omillardir.
- Howard Gardner (AQSH) – “Ko‘p intellekt nazariyasi” asoschisi sifatida har bir o‘quvchining o‘ziga xos qobiliyatlari va tafakkur usullarini hisobga olgan holda tarbiya va ta’lim usullarini moslashtirish tarafdoridir. Bu esa integratsiyalashgan ta’lim modeliga muvofiq keladi [6].
- Ken Robinson (Buyuk Britaniya) – kreativlik, erkin fikrlash va shaxsiy rivojlanishning ta’limda markaziy o‘rinda bo‘lishini talab qiladi. Uning “The Element” (2009) asari orqali pedagogik muhitda tarbiya va motivatsiyaning roli yoritiladi.
- OECD (2020) tomonidan tayyorlangan “Future of Education and Skills 2030” hisobotida esa innovatsion ta’limning asosiy yo‘nalishlaridan biri sifatida “holistik yondashuv” (ya’ni intellektual, axloqiy va hissiy tarbiyaning uyg‘unlashuvi) ilgari surilgan.

Tahlil qilingan adabiyotlar asosida shuni ta’kidlash mumkinki, ta’lim va tarbiya integratsiyasi – bu nafaqat o‘quv dasturlari va pedagogik metodlar uyg‘unligi, balki shaxsni har tomonlama rivojlantirishga yo‘naltirilgan murakkab jarayondir. Milliy hamda xalqaro adabiyotlar ushbu integratsiyaning nazariy asoslari va amaliy

yo‘llarini yoritishda muhim o‘rin tutadi. Integratsion yondashuvlar ayniqsa, zamonaviy texnologiyalar, STEAM, kompetensiyaviy yondashuv, raqamli pedagogika bilan uyg‘unlashganda eng samarali natijalarni beradi.

A) Tizimli yondashuv – pedagogik jarayonlarni yagona tizim sifatida ko‘rib chiqish, bunda ta’lim va tarbiya elementlari o‘zaro uzviy bog‘liqlikda tahlil qilinadi;

B) Integrativ yondashuv – tarbiya va ta’limni birgalikda amalga oshirishga yo‘naltirilgan metodlar majmuasini ishlab chiqish, ularning o‘zaro uyg‘unligini aniqlash;

D) Holistik (butunlik) yondashuv – o‘quvchi shaxsini barcha jihatlari bilan (axloqiy, ijtimoiy, intellektual, estetik) shakllantirishga qaratilgan ta’lim-tarbiya usullarini qamrab olish;

E) Innovatsion-pedagogik yondashuv – yangi texnologiyalar, STEAM, raqamli ta’lim, kompetensiyaviy yondashuvlar asosida zamonaviy metodikalarni sinovdan o‘tkazish.

**1. O‘yin asoslangan ta’lim.** O‘yin asoslangan ta’lim (OAT) – bu ta’lim jarayonida o‘yin elementlarini qo‘llash orqali o‘quvchilarning faol ishtirokini ta’minlashga qaratilgan yondashuvdir. OAT o‘quvchilarning motivatsiyasini oshiradi, ularning ijodiy fikrlash qobiliyatini rivojlantiradi va jamoada ishlash ko‘nikmalarini shakllantiradi.

**2. Texnologiya integratsiyasi.** Zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining ta’lim jarayoniga integratsiyasi o‘quvchilarning axborot savodxonligini oshiradi, ta’limning sifatini yaxshilaydi va ta’limni individualizatsiya qilish imkoniyatini yaratadi. Masalan, onlayn platformalar orqali masofaviy ta’limning keng tarqalishi ta’lim va tarbiya jarayonlarini yanada samarali qiladi.

**3. Interfaol metodlar.** Interfaol metodlar – bu o‘quvchilarning faol ishtirokini ta’minlashga qaratilgan ta’lim usullaridir. Ular o‘quvchilarning mustaqil fikrlashini rivojlantiradi, jamoada ishlash ko‘nikmalarini shakllantiradi va ta’lim jarayonini qiziqarli qiladi. Masalan, guruhli muhokamalar, rolli o‘yinlar va loyihalar asosida o‘qitish interfaol metodlarga misoldir.

**4. Kompetensiyaviy yondashuv.** Kompetensiyaviy yondashuv ta’lim jarayonida o‘quvchilarning nafaqat bilim, balki ko‘nikma va malakalarini rivojlantirishga qaratilgan yondashuvdir. Bu yondashuv o‘quvchilarning amaliy faoliyatga tayyorligini oshiradi va ularning shaxsiy rivojlanishiga hissa qo‘shadi.

**5. Andragogik yondashuv.** Andragogik yondashuv – bu kattalar ta’limiga qaratilgan yondashuvdir. Ushbu yondashuvda o‘quvchilarning tajribasi, ehtiyojlari va motivatsiyasi inobatga olinadi. Kattalar ta’limida o‘quvchilarning faol ishtiroki, mustaqil ishlashi va o‘z-o‘zini rivojlantirishi ta’minlanadi.

**Tahlil va natijalar.** Mazkur tadqiqot doirasida milliy va xalqaro miqyosdagi ilmiy-nazariy manbalar, amaliy tajribalar, shuningdek ilg‘or pedagogik konsepsiyalar o‘rganildi. Tahlil shuni ko‘rsatdiki: **Abdulla Avloniy**ning ta’lim-tarbiya borasidagi qarashlarida tarbiya jamiyat hayotidagi eng muhim omil sifatida e’tirof etiladi: *“Tarbiya biz uchun yo hayot – yo mamot, yo najot – yo halokat, yo saodat – yo falokat masalasidir.”* Bu fikr bugungi kun uchun ham dolzarb bo‘lib, integratsion yondashuvlarning nazariy asosi sifatida xizmat qiladi.

O‘zbekiston ta’lim tizimida olib borilgan kuzatuvlar va so‘rovnomalar asosida quyidagi holatlar aniqlandi:

- Ko‘plab ta’lim muassasalarida tarbiya ishlari alohida yo‘nalishda amalga oshiriladi, bu esa uning ta’lim jarayoniga tabiiy integratsiyalashuviga to‘sqinlik qiladi.
- O‘quv dasturlari va o‘quv-metodik majmualarda tarbiyaviy komponentlar mavjud bo‘lishiga qaramay, ularni dars jarayoniga singdirish mexanizmlari hali yetarlicha ishlab chiqilmagan.

- O‘qituvchilarning katta qismi tarbiya bilan bog‘liq faoliyatni faqat tashkiliy-tarbiyaviy ishlar (sinf soati, tadbirlar) bilan bog‘lab kelmoqda, bu esa integratsion yondashuvga ziddir.

Tadqiqotning amaliy bosqichida 3 ta umumiy o‘rta ta’lim maktabi va 1 ta pedagogik oliygohda quyidagi metodlar asosida tahlil ishlari olib borildi:

| T/r. | Ko‘rsatkichlar | Natija (%) |
|---|---|---|
| 1. | O‘qituvchilarning tarbiya-ta’lim integratsiyasiga tayyorlik darajasi | 67% |
| 2. | O‘quvchilarning tarbiyaviy jihatdan faollik ko‘rsatgan holatlari (innovatsion darslarda) | 74% |
| 3. | An’anaviy darslarda tarbiyaviy maqsadlarga erishish samaradorligi | 42% |
| 4. | Innovatsion metodlar asosida tarbiya singdirilgan darslarda qiziqish darajasi | 81% |

**Xulosa.** Zamonaviy ta’lim jarayoni faqat bilim berish bilan cheklanmay, shaxsning axloqiy, ijtimoiy va ma’naviy kamolotiga ham bevosita ta’sir qilishi lozim. Shu nuqtai nazardan, tarbiya va ta’limning uzviy integratsiyasi bugungi ta’lim tizimining asosiy zaruratlaridan biriga aylanmoqda. Mazkur tadqiqot davomida tarbiya va ta’lim integratsiyasining nazariy asoslari, metodologik yondashuvlari, hamda innovatsion pedagogik texnologiyalar orqali amaliyotga joriy etish yo‘llari chuqur o‘rganildi. Quyidagi asosiy xulosalarga kelindi:

1. Tarbiya va ta’limning integratsiyalashuvi shaxsni har tomonlama rivojlantirish, uni ijtimoiy hayotga tayyorlashda muhim vosita hisoblanadi.

2. Zamonaviy innovatsion yondashuvlar – masalan, STEAM, kompetensiyaviy, shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim – tarbiyaviy maqsadlarni dars jarayoniga tabiiy tarzda singdirishga yordam beradi.

3. Pedagogik jarayonning integratsiyalashuvi o‘qituvchi, o‘quvchi va ota-ona o‘rtasidagi hamkorlikning mustahkamlanishini taqozo etadi.

4. Fanlararo integratsiya orqali tarbiya umumta’lim fanlarining ichki mazmuni bilan uyg‘unlashtirilganda, o‘quvchilar bilimni nafaqat o‘zlashtiradi, balki hayotda qo‘llashga intiladi.

## Foydalanilga adabiyotlar:


1. O‘zbekiston Respublikasi “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni. 2020-yil 23-sentabr, № ZRU – 637.
2. Baqoyev Y. “Pedagogik texnologiyalar”. – Toshkent, 2015.
3. Islomov R. “Ta’lim tizimida innovatsion texnologiyalar”. – Toshkent, 2020.
4. Avloniy A. Turkiy guliston yoxud axloq. – Toshkent: Ma’naviyat, 1992.
5. Dewey J. Democracy and Education. – New York: Macmillan, 1916.
6. Gardner H. Frames of Mind: The Theory of Multiple Intelligences. – New York: Basic Books, 1983.
7. Sagdullayev B. Tarbiyaning falsafiy asoslari. – Toshkent: O‘zbekiston Milliy ensiklopediyasi, 2015.
8. Turaqulov M., Jo‘raev S. Innovatsion pedagogika. – Toshkent: “Fan va texnologiya”, 2020.
9. Mavlonova R. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat. – Toshkent: O‘zbekiston pedagogik nashriyoti, 2018.

# 12-13 YOSHLI KARATECHILARNING JISMONIY TAYYORGARLIGINI INNOVATSION TEXNOLOGIYALAR ORQALI TAKOMILLASHTIRISH.

**Alijonov Oybek Muzaffar o‘g‘li,** Guliston davlat pedagogika instituti, “Tabiiy fanlar” fakulteti, “Jismoniy madaniyat nazariyasi va metodikasi” kafedrasi o‘qituvchisi.
**e-mail:** oalijonov382@gmail.com

**Annotatsiya.** Ushbu maqola 12-13 yoshli karatechilarning jismoniy tayyorgarligini oshirishda innovatsion texnologiyalarning qo‘llanilishi va ularning samaradorligiga bag‘ishlangan. Maqolada virtual reallik, kengaytirilgan reallik, aqlli sensorlar, ma’lumotlarni tahlil qilish platformalari va o‘yinlashtirilgan mobil ilovalar kabi zamonaviy texnologiyalarning yosh sportchilarning jismoniy, texnik va psixologik rivojlanishiga ta’siri o‘rganiladi. Ushbu texnologiyalarning mashg‘ulot jarayonini optimallashtirish, motivatsiyani oshirish va individual yondashuvni ta’minlashdagi afzalliklari tahlil qilinadi. Shuningdek, trenerlarning malakasi va texnologiyalarni to‘g‘ri integratsiya qilishning muhimligi ta’kidlanadi. Maqola yosh karatechilarning musobaqalarga tayyorgarligini yaxshilash va ularning umumiy sport salohiyatini rivojlantirishga qaratilgan amaliy tavsiyalar beradi.

**Kalit so‘zlar:** yosh karatechilar, jismoniy tayyorgarlik, innovatsion texnologiyalar, virtual reallik, kengaytirilgan reallik , aqlli sensorlar, ma’lumotlarni tahlil qilish, o‘yinlashtirish, mobil ilovalar, sport mashg‘ulotlari, motivatsiya;

# СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ ФИЗИЧЕСКОЙ ПОДГОТОВКИ КАРАТЕШЕЙ В ВОЗРАСТЕ 12-13 ЛЕТ С ПОМОЩЬЮ ИННОВАЦИОННЫХ ТЕХНОЛОГИЙ.

**Абстрактный.** Данная статья посвящена применению инновационных технологий в повышении физической подготовленности каратистов 12-13 лет и их эффективности. В статье рассматривается влияние современных технологий, таких как виртуальная реальность, дополненная реальность, интеллектуальные сенсоры, платформы анализа данных и игровые мобильные приложения, на физическое, техническое и психологическое развитие юных спортсменов. Проанализированы преимущества этих технологий в оптимизации тренировочного процесса, повышении мотивации и обеспечении индивидуального подхода. Также подчеркивается важность правильной интеграции квалификации тренеров и технологий. В статье даны практические рекомендации, направленные на улучшение подготовки юных каратистов к соревнованиям и развитие их общего спортивного потенциала.

**Ключевые слова:** молодые каратисты, физическая подготовка, инновационные технологии, виртуальная реальность, расширенная реальность, интеллектуальные сенсоры, анализ данных, гейминг, мобильные приложения, спортивные тренировки, мотивация;

# IMPROVING THE PHYSICAL TRAINING OF 12-13 YEARS OLD KARATE WRESTLERS USING INNOVATIVE TECHNOLOGIES.

**Abstract.** This article focuses on the application of innovative technologies in improving the physical fitness of 12-13 year old karate athletes and their effectiveness. The article examines the impact of modern technologies such as virtual reality, augmented reality, intelligent sensors, data analysis platforms, and gaming mobile applications on the physical, technical, and psychological development of young athletes. The advantages of these technologies in optimizing the training process, increasing motivation, and ensuring an individual approach were analyzed. The importance of proper integration of coaches' qualifications and technologies is also emphasized. The article provides practical recommendations aimed at improving the preparation of young karate athletes for competitions and developing their overall sports potential.

**Keywords:** young karatists, physical training, innovative technologies, virtual reality, augmented reality, intelligent sensors, data analysis, gaming, mobile applications, sports training, motivation;

**Kirish.** Zamonaviy sport sohasida, ayniqsa, yosh sportchilar tayyorgarligida innovatsion texnologiyalardan foydalanish tobora muhim ahamiyat kasb etmoqda. 12-13 yoshli karatechilar uchun jismoniy tayyorgarlik nafaqat mushak kuchi va chidamlilikni rivojlantirish, balki texnika, muvofiqlashtirish va psixologik barqarorlikni oshirishni ham talab qiladi. Bugungi kunda virtual reallik nosim qurilmalar, sun'iy intellekt va boshqa ilg'or texnologiyalar yosh karatechilarning mashg'ulot jarayonlarini samarali tashkil etish va ularning ko'nikmalarini yangi darajaga ko'tarish imkonini beradi. Ushbu maqola 12-13 yoshli karatechilarning jismoniy tayyorgarligini innovatsion texnologiyalar yordamida takomillashtirish yo'llarini ko'rib chiqadi va bu yondashuvning afzalliklari hamda kelajakdagi istiqbollarini muhokama qiladi.

12-13 yoshli karatechilarning jismoniy tayyorgarligini oshirishda innovatsion texnologiyalarni qo'llash bugungi kunda sport sohasida muhim ahamiyat kasb etmoqda. Bu yoshdagi sportchilar o'zlarining jismoniy qobiliyatlarini rivojlantirish va texnik ko'nikmalarini mustahkamlash uchun yangi yondashuvlarga ehtiyoj sezmoqdalar. Innovatsion texnologiyalar, masalan, virtual reallik, nosimulyatorlar, aqlli sensorlar va ma'lumotlarni tahlil qilish platformalari yosh karatechilarning mashg'ulotlarini samaraliroq va qiziqarli qilish imkonini beradi. Ushbu maqola kirish qismida biz ushbu texnologiyalarning jismoniy tayyorgarlikni rivojlantirishdagi o'rni va ularning yosh sportchilarning o'sishiga qanday ta'sir qilishi haqida umumiy ma'lumot beramiz.

**Tadqiqotning ishining maqsadi.** 12-13 yoshli karatechilarning jismoniy tayyorgarligini oshirishda innovatsion texnologiyalar samarali yondashuv sifatida keng qo'llanilmoqda. Ushbu yosh guruhidagi sportchilar uchun jismoniy tayyorgarlik nafaqat mushak kuchi va chidamlilikni rivojlantirish, balki harakatlarning aniqligi, muvofiqlashtirish va psixologik barqarorlikni oshirishni ham o'z ichiga oladi. Innovatsion texnologiyalar bu jarayonni yanada samarali va maqsadga yo'naltirilgan qilishga yordam beradi. Quyida asosiy texnologiyalar va ularning karate mashg'ulotlaridagi qo'llanilishi haqida batafsil ma'lumot beriladi.

Zamonaviy sensorli qurilmalar, masalan, harakatni kuzatuvchi sensorlar va yurak urish tezligini o'lchovchi gadjetlar, karatechilarning jismoniy holatini real vaqtda monitoring qilishga yordam beradi. Bu qurilmalar sportchining mushaklar faoliyati, charchoq darajasi va harakatlarning biomekanikasini tahlil qiladi. Masalan, aqlli kiyimlar yoki bilaguzuklar yordamida trenerlar sportchining zarba kuchi, muvozanati va harakatlarning sifatini aniq baholashi mumkin. Nosimulyatorlar esa yurak-chidamlilik mashqlarini optimallashtirishga xizmat qiladi, bu esa yosh karatechilarning umumiy jismoniy tayyorgarligini oshiradi.

Ma’lumotlarni tahlil qilishga asoslangan dasturiy ta’minotlar sportchilarning mashg‘ulot jarayonini individual ravishda optimallashtirish imkonini beradi. Mashg‘ulotlardan olingan ma’lumotlar, masalan, harakatlar chastotasi, zarba tezligi yoki charchoq darajasi, maxsus algoritmlar yordamida tahlil qilinadi va trenerlarga sportchining zaif va kuchli tomonlarini aniqlashda yordam beradi. Bu esa mashg‘ulot dasturini shaxsiylashtirish va har bir karatechining o‘ziga xos ehtiyojlariga moslashtirish imkonini beradi.

Mobil ilovalar va o‘yinlashtirilgan mashg‘ulot platformalari yosh karatechilarning qiziqishini oshirishda muhim rol o‘ynaydi. Bu ilovalar orqali sportchilar o‘z mashg‘ulotlari jarayonini kuzatishi, maqsadlar qo‘yishi va yutuqlarni virtual mukofotlar sifatida qabul qilishi mumkin. Masalan, muayyan zarba texnikasini muvaffaqiyatli bajarish uchun ball to‘plash yoki virtual musobaqalarda ishtirok etish yosh sportchilarni rag‘batlantiradi va ularning motivatsiyasini oshiradi.

Yuqoridagi texnologiyalar nafaqat jismoniy tayyorgarlikni yaxshilaydi, balki yosh karatechilarning intizomi, diqqat markazi va o‘ziga bo‘lgan ishonchini ham mustahkamlaydi. Shu bilan birga, ushbu texnologiyalarni qo‘llashda trenerlarning malakasi va ularning zamonaviy usullarni to‘g‘ri integratsiya qilish qobiliyati muhim ahamiyatga ega. Innovatsion yondashuvlar yosh sportchilarning nafaqat jismoniy, balki psixologik va texnik rivojlanishiga ham ijobiy ta’sir ko‘rsatadi.

Maqolaning maqsadi 12-13 yoshli karatechilarning jismoniy tayyorgarligini oshirishda innovatsion texnologiyalarning ahamiyati va ulardan samarali foydalanish usullarini yoritishdir. Ushbu yoshdagi sportchilar uchun jismoniy, texnik va psixologik rivojlanishni qo‘llab-quvvatlashda virtual reallik, aqlli sensorlar, ma’lumotlarni tahlil qilish platformalari va interaktiv ilovalar kabi zamonaviy yondashuvlarning afzalliklarini ko‘rsatish asosiy vazifadir. Maqola orqali trenerlar va yosh sportchilarga mashg‘ulot jarayonini optimallashtirish, motivatsiyani oshirish va samaradorlikni ta’minlash bo‘yicha amaliy tavsiyalar berish ko‘zda tutiladi. Shuningdek, ushbu texnologiyalarni to‘g‘ri integratsiya qilish orqali yosh karatechilarning musobaqalarga tayyorgarligini yuqori darajaga ko‘tarish va ularning umumiy sport salohiyatini rivojlantirish maqsad qilinadi.

Jismoniy tarbiyaning alohida ahamiyatini belgilaydigan eng muhim vazifa ta’limning har tomonlama rivojlanishining asosi sifatida sog‘lom, kuchli, xushchaqchaq, quvnoq, sezgir, tashabbuskor shaxsni shakllantirishdir. O‘z harakatlarini yaxshi biladigan, sport va jismoniy mashqlarni yaxshi ko‘radigan bola maktabda o‘rganishga va keyingi faol ijodiy faoliyatga qodir. Maktab yoshidagi bolalarning jismoniy tarbiya tizimini takomillashtirishi ko‘p jihatdan jismoniy usullarning ilmiy asoslilik darajasi bilan belgilanadi. So‘nggi o‘n yillikda mamlakatimiz hayotida ro‘y bergan tub o‘zgarishlar ta’lim muassasalari faoliyatida jiddiy islohotlarni amalga oshirishni taqozo etdi. Aynan bolalar va o‘smirlik davridagi bolaning shaxsiyatini shakllantirish, uning qobiliyatlarini shakllantirishning muhim jarayonlari, doimiy jismoniy tarbiya va sportga qiziqish, sog‘lom turmush tarzini shakllantirish va shu asosda salomatlikning mustahkam poydevorini yaratish oldimizda turgan dolzabr vazifadir.

Shuni esda tutish kerakki, bolani sog‘lom jismoniy shakllanish jarayonlariga maktabgacha yosh davr va maktab yoshi davrida poydevor qo‘yiladi, salomatlik va to‘liq jismoniy rivojlanish ushbu davrlarda jadal o‘sadi. Eng umumiy ma’noda, bolalar va o‘smir yoshdagi bolalarning jismoniy rivojlanishi tabiiy o‘zgarish jarayonidir, individual hayot davomida uning tanasining morfofunksional xususiyatlari, jismoniy rivojlanishining tashqi miqdoriy ko‘rsatkichlari, masalan, fazoviy o‘lchovlar va tana vaznidagi o‘zgarishlar bo‘lsa, sifat jihatidan jismoniy rivojlanish, birinchi navbatda, sezilarli o‘zgarishlar bilan tavsiflanadi. Organizmning funksional imkoniyatlarini davrlar va bosqichlar bo‘yicha o‘zgartirish uning yoshi

rivojlanishi, individual jismoniy sifatlarning o‘zgarishi va jismoniy faoliyatning umumiy darajasida ifodalanadi.

Jismoniy mashqlar klassifikatsiyalarini keltiramiz. Ushbu jismoniymashqlarni klassifikatsiyalash turli olimlar tomonidan turlicha omillar asosida tasniflangan. Hozirda ham ushbu tasniflash o‘z ahamiyatini yo‘qotgani yo‘q. Quyidagi ma’lumotda turli davlatlarda turli turkumlashni ko‘rishimiz mumkin. Jismoniy mashqlarni klassifikatsiya qilish – uni turkumlash, xillash demakdir.

Jismoniy tarbiya tizimlarining tarixiy tahlili shuni ko‘rsatadiki, jamiyatning rivojlanish bosqichlarida jismoniy mashqlar tanlash va turkumlashda o‘sha jamiyat uchun progressiv va tarbiya vazifasini bajarishga mos keladiganlarigagina e’tibor berilgan. Tarixiy rivojlanishning turli bosqichlarida tarbiyaning maqsad va vazifasi o‘zgarib turgan, demak, jismoniy tarbiya tizimi ham o‘zgargan, bu esa uning omillarining ham o‘zgarishiga sabab bo‘ldi.

**Xulosa** sifatida aytish mumkinki, 12-13 yoshli karatechilarning jismoniy tayyorgarligini oshirishda innovatsion texnologiyalar muhim o‘rin tutadi. Virtual reallik, aqlli sensorlar, ma’lumotlarni tahlil qilish platformalari va interaktiv mobil ilovalar kabi zamonaviy vositalar mashg‘ulot jarayonini samarali, qiziqarli va shaxsiylashtirilgan qilish imkonini beradi. Bu texnologiyalar yosh sportchilarning nafaqat jismoniy qobiliyatlarini, balki texnik ko‘nikmalari, psixologik barqarorligi va motivatsiyasini ham oshiradi. Shu bilan birga, ushbu yondashuvlarning muvaffaqiyati trenerlarning malakasi va texnologiyalarni to‘g‘ri qo‘llash qobiliyatiga bog‘liq. Innovatsion texnologiyalarni karate mashg‘ulotlariga integratsiya qilish orqali yosh karatechilarning musobaqalarga tayyorgarligi va umumiy sport salohiyati sezilarli darajada yaxshilanadi, bu esa ularning kelajakdagi muvaffaqiyatlari uchun mustahkam zamin yaratadi.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Smith J., & Taylor R. Virtual Reality in Sports Training: Enhancing Performance through Immersive Technologies. Journal of Sports Science and Technology, 15(4), 2023. 112-125-b.

2. Lee H., & Kim S. Wearable Sensors in Athletic Performance Monitoring. International Journal of Sports Medicine, 28(2), 2022. 78-89-b.

3. Brown A., & Patel N. Data Analytics in Youth Sports: Optimizing Training Programs. Sports Technology Review, 10(1), 2024. 45-60-b.

4. Garcia M., & Lopez E. Gamification in Sports: Engaging Young Athletes through Mobile Applications. Journal of Youth Sports Development, 12(3), 2021. 23-35-b.

5. World Karate Federation (WKF). Guidelines for Youth Karate Training Programs. 2023. Retrieved from https://www.wkf.net/training-guidelines.

6. Johnson, L. Biomechanics and Technology in Martial Arts Training. Martial Arts Studies Journal, 7(1), 2022. 15-30-b.

7. Bolbekov E. A. Talabalarning sog‘lom turmush tarzi mazmunini kreativ yondashuvlar asosida takomillashtirish //Образование наука и инновационные идеи в мире. №. 1. –Toshkent, 2004. – С. 206-211.

# TALABA-YOSHLAR O‘RTASIDA SOG‘LOM TURMUSH TARZINI MUJASSAMLANTIRISH JIHATLARI

**Suyunov Abrorbek Baxtiyor o‘g‘li**, Guliston davlat pedagogika instituti
Jismoniy madaniyat nazariyasi va metodikasi kafedrasi o‘qituvchisi
**e-mail:** suyunovabrorbek14@gmail.com

**Annotatsiya.** Maqolada talaba - yoshlar o‘rtasida sog‘lom turmush tarzi ko‘nikmalarini shakllantirish ustuvor vazifa sifatidagi maqsad va yo‘nalishlari bayon etilgan. Shuningdek, maqolada sog‘lom turmush tarzining ruhiy, tibbiy, ma’naviy-ma’rifiy asoslari va salomatlik psixologiyasini shakllantirishning ijtimoiy-psixologik muammolari hamda bu boradagi tavsiyalar o‘rin olgan.

**Kalit so‘zlar:** sog‘lom turmush tarzi, jismoniy tarbiya, talabalar, tibbiy savodxonlik, yosh avlod;

# АСПЕКТЫ ВОПЛОЩЕНИЯ ЗДОРОВОГО ОБРАЗА ЖИЗНИ СРЕДИ СТУДЕНЧЕСКОЙ МОЛОДЕЖИ

**Аннотация.** В статье изложены цели и направления формирования навыков здорового образа жизни среди студенческой молодежи как приоритетной задачи. Также в статье рассматриваются психологические, медицинские, духовно-просветительские основы здорового образа жизни и социально-психологические проблемы формирования психологии здоровья, а также рекомендации в этой области.

**Ключевые слова:** здоровый образ жизни, физическое воспитание, студенты, медицинская грамотность, молодое поколение;

# ASPECTS OF IMPLEMENTING A HEALTHY LIFESTYLE AMONG STUDENT YOUTH

**Abstract.** The article outlines the goals and directions of forming healthy lifestyle skills among student youth as a priority task. The article also examines the psychological, medical, spiritual, and educational foundations of a healthy lifestyle and the socio-psychological problems of forming health psychology, as well as recommendations in this area.

Keywords: healthy lifestyle, physical education, students, medical literacy, young generation;

**Kirish.** Jamiyatda sog‘lom turmush tarzini yanada shakllantirish, aholi salomatligini mustahkamlash, jismoniy sog‘lom va ma’naviy boy yosh avlodni tarbiyalash, fuqarolarning jismoniy tarbiya va sport bilan faol shug‘ullanishiga keng jalb etilishini ta’minlash mamlakatimizda amalga oshirilayotgan faol islohatchilik siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan hisoblanadi. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, inson sog‘ligining 20-25% atrof- muhit ta’sirida, 20% nasliy omillar asosida, qolgan 55% har-xil sabablar, o‘z sog‘ligi turmush tarziga bo‘lgan e’tibori ta’sirida shakllanar ekan [2]. Sihat-salomatlik muammolari bo‘yicha keltirilgan mazkur dalillar shaxsning sog‘lom turmush tarzi borasidagi tasavvurlari, savodxonlik darajasi

shaxsning o‘sib, voyaga yetishida asosiy omil ekanligini isbotlaydi. Sog‘lom avlodni shakllantirish jamiyatda sog‘lom turmush tarzini qaror toptirish negizida amalga oshriladi. Buning uchun esa jamiyatning har bir a’zosi sog‘lom turmush tarzini yo‘lga qo‘yishi, salomatlikni madaniyatlilikning bir ko‘rinishi sifatida qabul qilish lozim. Talaba-yoshlar hayotida, yurish-turishida ham mana shunday yangicha tafakkurning shakllantirilishi bu boradagi barcha muammolarga yechim bo‘lib xizmat qiladi.

Sog‘lom turmush tarzi keng ma’noli tushuncha bo‘lib, u unumli mehnat qilish, faol dam olish, sport bilan doimiy shug‘ullanish, organizmni chiniqtirish, shahsiy kasbiy va psixogigienaga rioya qilish, to‘g‘ri ovqatlanish, zarurli odatlardan o‘zini tiyish, har yili shifokor ko‘rigidan o‘tib turish va sog‘lom oilani shakllantirishda o‘z ifodasini topadi. Shuningdek sog‘lom turmush tarzi bu shaxsning sog‘lom oilani shakllantirish va sog‘lom farzand ko‘rish bilan bog‘liq bo‘lgan ko‘nikmalarida ham o‘z ifodasini topadi. Bugungi kunda oliy ta’limda talaba-yoshlarni intelektual, kasbiy, ahloqiy, madaniy rivojlanish talablarini qondirishda ulardagi sog‘lom turmush tarzi, borasidagi bilim, ko‘nikmalarni, reproduktiv madaniyatni shakllantirish ta’lim maqsadlarining asosiy qismi bo‘lib hisoblanmoqda xususan, pedagogik-psixologik kasb doirasidagi mutaxassislarda. Adabiyotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, mutaxassislar tomonidan turmush tarzi tushunchasi borasida aniq bir to‘xtamga kelinmagan. “Turmush tarzi” keng qamrovli, murakkab va g‘oyat keng tushunchadir. U kishilarning hayot faoliyati, ishlab chikarish, ijtimoiy-siyosiy, madaniy sohadagi faoliyatlarining barchasini eng muhimi ularning amaliyligini, ma’lum bir ijtimoiy, siyosiy, iqtisodiy, falsafiy, tibbiy va biologik qadriyatlar va ehtiyojlarning real hayotda aks etganligini o‘z ichiga oladi.Ta’kidlash joizki, salomatlik tushunchasi bu keng ma’nodagi “sog‘lom turmush tarzi”dir. U shaxs umumiy madaniyatining asosiy qismini tashkil qiladi. Shaxsning sog‘lom turmush tarzi uning ijodiy kuch va qobiliyatlarining rivojlanishi, hayoti va faoliyatini tashkil qilish shakllarida namoyon bo‘ladi. Sog‘lom turmush tarzi shaxsning ma’naviy, jismoniy, ruhiy, ijtimoiy, geknetik sog‘lomligini bildiruvchi murakkab jarayon hisoblanadi. Turmush tarzi negizida kishilarning ehtiyojlari, ular maqsadlari va qadriyatlari tizimi yotadi, lekin ehtiyojlar har doim ham anglangan va to‘g‘ri, yaxshi, ijobiy ehtiyojlar bo‘lavermaydi. Anglangan, shaxs va jamiyat manfaatlariga mos keladigan ehtiyojlargina turmush tarzini tashkil etish mumkin. Turmush tarzi - jamoat hayotining barcha sohalarida inson hayoti faoliyatining konkret shakllar yig‘indisidir.Ilmiy tajribalarning ko‘rsatishicha, faylasuflar, etnogroflar, tarixchilar, sotsiologlar, psixologlar, pedagoglar va valeologlar tomonidan sog‘lom turmush tarzi, sog‘lom turmush tarzi muammosining falsafiy jihatlari, sog‘lom turmush tarzining ijtimoiy munosabatlardagi o‘rni, jamiyatga tarbiyaviy ta’siri, aholi o‘rtasida, ayniqsa yoshlarda sog‘lom turmush tarzini shakllantirish masalalariga bag‘ishlangan qator ilmiy tadqiqot ishlari olib borilgan.

Turmush tarzi tarixan tarkib topgan ijtimoiy- iqtisodiy va ma’naviy faktorlar bilan belgilanadigan kundalik hayot tarzii bo‘lib, shu asosda rivojlangan munosabatlar, an’analar va urf-odatlardan iboratdir. Tabiiy ravishda turmush tarzi - insonning jamiyat va muhitdagi hayotini, mehnat qilish, dam olish va boshqalarni o‘z ichiga oladi. Uning tarkibiy qismlariga nafaqat ijtimoiy-siyosiy va ishlab chiqarish faoliyati, balki ishlab chiqarishdan tashqari vaqtdagi ijtimoiy-madaniy faoliyati ham kiradi.Tibbiy va fiziologik faollik ham uning bir turidir. Tibbiy va fiziologik faoliyatning bosh maqsadi esa sog‘lom bo‘lishga yo‘naltirilgan. Bularning oldini olish uchun aholining o‘z salomatligiga bo‘lgan adekvat va mutanosib munosabatlarini tarbiyalash va keng aholi qatlamlari, shu jumladan yoshlar o‘rtasida

tibbiy bilimlarni targ‘ib qilish taqozo etiladi.Shunday qilib, turmush tarzida har bir xalqning uzoq asrlar davomida yaratgan ma’naviy va moddiy boyliklari, yon-atrof, muhit va kelajak haqida tasavvurlari, milliy-etnik belgilari, mintaliteti, urf-odatlari, an’analari hamda yashash usuli to‘la aks etadi. Shu nuqtai nazardan turmush tarzi xalq, millat, etnosning ijtimoiy tarixiy taraqqiyot jarayonida yaratgan hayot kechirish usullarining majmuidir.

Turmush tarzi inson hayoti va insoniyat mavjudligining, borlig‘ining asosiy belgisi sifatida qadim kishilik jamiyati bilan birga mavjudlik kasb etgan. Sog‘lom turmush tarziga ega bo‘lish har bir xalq, har bir millat, har bir inson, har bir shaxsning ongi, uning tafakkuri va dunyoqarashi, yashash tarzi bilan uzviy va bevosita bog‘liq psixologik axloqiy va ijtimoiy-tarixiy zarur xususiyat hisoblanadi.Har bir millat o‘z maishiy turmush tarziga ega. Har bir xalqning o‘z milliy turmushini tashkil etishga uning milliy mentaliteti, madaniyat darajasi, turmush sharoiti va tarixiy davri ta’sir ko‘rsatadi. Ular o‘sha millatning sog‘lom turmush madaniyatiga ega yoki ega emasligini belgilab beradi. Shuningdek, har bir xalqning sog‘lom turmush madaniyatini belgilovchi uning tili, axloqiy fazilatlari, bolalarga g‘amxo‘rlik ko‘rsatish, keksalarni qadrlashi, yurish-turishi, kiyinishi, ovqatlanishi, sog‘lomlik holati mavjud bo‘ladi.Turmush tarzi kishilarning individual va ruhiy hayotiy faoliyati ko‘rinishi bo‘lib, u ijtimoiy munosabatlar, ijtimoiy siyosiy faoliyat, muloqot, dunyoqarash, hulq-atvor, mehnat, maishiy dam olish kabi omillar ta’sirida shakllanadi.

Tibbiy entsiklopedik lug‘atlarda salomatlik tushunchasi 4 ta asosiy yo‘nalishga bo‘lib izohlanadi va o‘rganiladi [2,4].

**1. Holati bo‘yicha salomatlik.** Bu yo‘nalish organizmning umumiy holatini belgilovchi, uning biologik o‘sishi va rivojlanish jarayonini belgilaydi.

**2. Harakat bo‘yicha salomatlik.** Bu inson organizmi har xil a’zolarining harakat vazifalarini ta’minlash, o‘sish darajasini belgilaydi.

**3. Ruhiy salomatlik.** Bu atama fanga 1979 yilda kiritilgan bo‘lib, inson ruhiy xolatini aniqlaydi. Shaxsning ruhiy holati ya’ni quvonch- tashvishlari, turli o‘zgarishlar, voqealarning sihat salomatlikka bo‘lgan ta’sirini tabiiy va ijtimoiy-psixologik imkoniyatlaridan kelib chiqib o‘rganadi.

**4. Ma’naviy salomatlik.** Bu shaxsning jamiyatda o‘z o‘rnini topishi, o‘z xatti-harakatlari, ichki kechinmalarini tartibga solish, umuminsoniy qadriyatlarga sodiqlik va ulardan hayot tarzini yo‘lga qo‘yishda foydalanish, og‘ir hayotiy vaziyatlarda oqilona yo‘l tanlash ko‘nikmalarining shakllanishi bilan belgilanadi.Sotsiolog olimlarning fikriga ko‘ra turmush tarzi muayyan tarixiy ijtimoiy munosabatlarga mos keluvchi inson hayot faoliyatining individual yoki guruhiy turi. Jamiyat hayotida shaxs turli sohalarga oid o‘z fikrlarini namoyon etadi.Turmush tarzi iqtisodiy, ijtimoiy, siyosiy, madaniy, tabiiy va boshqa sharoitlarga bog‘liq holda shakllanadi va jamiyat moddiy va ma’naviy hayoti unsurlaridan tashkil topgan yaxlit tuzilma sifatida namoyon bo‘ladi. Turmush tarzi muayyan ijtimoiy qurilmani tavsiflaydi va bu jamiyatda individ qanday yashayotganini, u inson o‘z “Men”i rivojlanishi va takomillashishi uchun nima qilayotganini, uning ehtiyojlari manfaatlari va ijodiy imkoniyatlari amalga oshayotganini ko‘rsatadi.

Turmush tarzi ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar, mafkura va madaniyat, atrof-muhitning insonga ta’siri sifatida shakllanadi hamda jamiyatdagi iqtisodiy va ijtimoiy-siyosiy jarayonlarga faol ta’sir etadi. Birgalikdagi faoliyat usullari, ijtimoiy

jamoaviy munosabatlar va kishilar o‘rtasidagi aloqa, ular muloqoti va xulqatvorining ustuvor shakli, muloqotning maqsad va vazifasi, faoliyatning manfaatlari turmush tarzining xarakterini belgilaydi.Turmush tarzi va salomatlik tushunchalarining o‘zaro bog‘liqligi sog‘lom turmush tarzi tushunchasini keltirib chiqaradi. Tibbiyot entsiklopediyasida keltirilgan ta’rifiga ko‘ra: turmush tarzi - kishilar hayotiy faoliyatining aniq turi haqidagi tasavvurlarni muvofiqlashtiruvchi muhim ijtimoiy kategoriyalardan biri [1,3,5]. U yoki bu millat, elatga, e’tiqodga (dinga) taalluqlilik turmush tarziga o‘ziga xoslik bag‘ishlaydi. E’tiqod va ishonch nuqtai nazardan buddaviylar, xristianlar, musulmonlar va boshqalarning turmush tarzi bir- biridan farqlanadi. Turmush tarzi shahar, qishloq, yoshlar, ishchilar, dehqonlar, ziyolilar, talabalar turmush tarzi kabilarga ajratiladi.Ma’lumki, har qaysi millatning o‘ziga xos ma’naviy madaniyatini shakllantirish va yuksaltirishda, hech shubhasiz, oilaning o‘rni va ta’siri beqiyosdir. Chunki insonning eng sof va pokiza tuyg‘ulari birinchi galda oila bag‘rida shakllanadi. Shuningdek, inson xarakterini, tabiati va dunyoqarashini belgilaydigan ma’naviy mezon va qarashlar, nosabatlar to‘g‘risidagi dastlabki tasavvurlar oila sharoitida, ota-onaning ibrat-namunasidan shakllanadi. Shu nuqtai nazardan qaraganda, oila tarbiyasi shaxs ma’naviyatini shaklanishidagi asosiy vosita ekan, bu o‘rinda bola tarbiyasida sog‘lom nasl masalasi ham muhim rol o‘ynashini inkor etib bo‘lmaydi. Shu ma’noda yoshlarni har tomonlama sog‘lom va barkamol etib tarbiyalash, ular ongida “Sog‘lom turmush tarzi -sog‘lom oila, sog‘lom oila bu sog‘lom farzand, baxtli kelajakdir” tasavvurini shakllantirish, bo‘lajak ota-onalar ya’ni talaba-yoshlardagi reproduktiv madaniyatni shakllantirish bu yo‘nalishdagi islohotlarning asosiy vazifalaridan sanaladi.Sog‘lom avlodni shakllantirish jamiyatda sog‘lom turmush tarzini qaror toptirish negizida amalga oshriladi. Buning uchun esa jamiyatning har bir a’zosi sog‘lom turmush tarzini yo‘lga qo‘yishi, salomatlikni madaniyatlilikning bir ko‘rinishi sifatida qabul qilish lozim.

Talaba - yoshlar hayotida, yurish-turishida ham mana shunday yangicha tafakurning shakllantirilishi bu boradagi barcha muammolarga echim bo‘lib xizmat qiladi. shundaki, insondagi sog‘lom turmush tarzi psixologiyasi shaxs va uning hayotiy maqsadi, ya’ni salomatlik tafakkuriga aylantirish lozim. Salomatlik qadriyatlari agar shaxs hayotida amalda qo‘llanilmasa, oddiy g‘oya va qarash tarzida qolib ketadi. Mazkur qarash va g‘oyalar shaxs hayotining tarkibiy qismi va uning yashash tarziga aylangandagina ular turmush tarziga aylanadi.Bugungi kunda sog‘lom turmush tarzi tushunchasining mazmuni inson - shaxs -sog‘lom - bilim va malakalarni egallashga intilish - sog‘lom bo‘lishga nisbatan say’i - harakat -salomatlikni shaxsiy qadriyatga aylantirish - salomatlik nuqtai nazaridan barkamollikka erishish - shaxsiy salomatlikning barqarorligi va ta’min etilganligiga erishish - o‘z salomatligining posboni bo‘la olish - jamiyat, ya’ni oila, mehnat yoki o‘qitish dargohi, mahallada sog‘lom turmush madaniyatining shakllanishiga harakat qilish va jamiyatga ijobiy ta’sir o‘tkaza olish - jamiyatni sog‘lomlashtirish kabi tushunchalarning uzviyligi, ular davomiyligi va ustuvorligini talab etadi. Salomatlik psixologiyasiga ega bo‘lgan inson na faqat salomatlikni asrash bo‘yicha bilim va malakalarni egallagan bo‘ladi, balki egallagan bilim va malakalarni o‘z hayoti jarayonida qo‘llab, o‘z salomatligining posboniga aylanadi.Bugungi inson hayot tarziga bo‘lgan turli iqtisodiy, ijtimoiy, psixologik va ma’naviy mafkuraviy tahdidlar o‘sib borayotgan sharoitida sog‘lom tafakkur ham tibbiy, ham psixologik, ham ma’naviy jihatdan insonni murakkab dunyo voqeligi ichida turli mavjud ziddiyatlardan asraguvchi qonunlar majmuasi sifatida juda muhim rol o‘ynaydi. Ammo insonning o‘zi egallagan bilim va malakalarni qo‘llashga, o‘z hayotida ularga

qat’iy rioya qilishga o‘rganmas ekan, berilgan bilim va malakalar ko‘zlangan natijaga erishish imkonini bermaydi.Keyingi yillarda sog‘lom turmush tarzi va madaniyati masalalari keng ijtimoiy ommani qiziqtirayotgan eng dolzarb mavzular qatoridan o‘rin olayotganini kuzatish mumkin.

Ta’lim sohasida amalga oshirilayotgan islohotlardan asosiy maqsad xalqning boy intellektual merosi va umumbashariy qadriyatlar asosida zamonaviy madaniyat, iqtisodiyot, fan va texnika, texnologiyalarning yutuqlari asosida shaxsning ma’naviy sifatlarini tarbiyalash va rivojlantirishdan iborat. Chunki ijtimoiy-iqtisodiy islohotlar muvaffaqiyati, jamiyatning ahloqiy va ma’naviy takomili ko‘p jihatdan shaxsning ma’naviy-psixologik tarbiyasiga bog‘liq. Darhaqiqat so‘nggi yillarda keskin o‘zgargan hayot sharoitlari va ta’lim tizimi, uning maqsadi, mazmuni, turlari o‘rtasidagi o‘zgarishlar yosh avlodning ma’naviy tarbiyasiga yangicha qarash, uni bugungi kun nuqtai nazaridan o‘rganish, baholash va unda xalqimizning boy madaniy merosidan maqsadli foydalanishni talab etmoqda.

**Xulosa.** Yuqoridagilardan xulosa qilib qayd etish mumkinki, salomatlikni asrashga va sog‘lom turmush tarziga yo‘naltirilgan say’i-harakatlar o‘zining ilk shakllanish jarayonida turibdi. Zero, ko‘pchilik odamlar umr bo‘yi o‘z salomatligini befoyda sarflash amaliyoti bilan shug‘ullanayotganligi, aslida esa ular salomatlikni asrash faoliyati bilan umr bo‘yi maqsadli shug‘ullanishi zarur ekanligi, chunki inson jismi va ruhiyati o‘z rivojlanishiga ko‘ra tabiiy ravishda qarilik tomon yo‘naltirilgan faol harakat hisoblanadi.

## Foydalanilgan adabiyotlar:

1. “O‘zbekistonda sog‘lom turmush tarzini keng targ‘ib qilish va aholini jismoniy tarbiya va ommaviy sportga jalb etish to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori, 2019-yil 29-yanvar, 65-son.

2. Sog‘lom turmush tarzini keng tatbiq etish va ommaviy sportni yanada rivojlantirish chora tadbirlari to‘g‘risida”. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining farmoni, 2020-yil 30-oktyabr, PF 6099-son.

3. Abduraxmanov K. X. Sog‘lom turmush tarzi va ma’naviy barkamollik.
– Toshkent: “Istiqlol nashriyoti”, 2015.

4. Karimova V. Salomatlik psixologiyasi yoxud sog‘lom bo‘lish uchun ruhiyatni boshqarish sirlari. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2005.

5. Sharipova D. J. va boshqalar. Talabalarda sog‘lom turmush tarzini shakllantirish. – Farg‘ona, 2010.

# JISMONIY TARBIYA VA SPORTNING SOG‘LOM AVLOD SHAKLLANISHIDA TUTGAN O‘RNI

**Suyunov Abrorbek Baxtiyor o‘g‘li,** Guliston davlat pedagogika instituti
Jismoniy madaniyat nazariyasi va metodikasi kafedrasi o‘qituvchisi.
**e-mail:** suyunovabrorbek14@gmail.com

**Annotatsiya.** Ma’lumki, jismoniy tarbiya va sport mashg‘ulotlari butun organizm faoliyatiga o‘ziga xos ijobiy ta’sir ko‘rsatadi va shu yo‘l bilan salomatlikni saqlab qolishda muhim ahamiyat kasb etadi. Shu bois mamlakatimizda sportni rivojlantirishga nisbatan jiddiy e’tibor qaratilayotgani yosh avlodni sog‘lom va barkamol qilib tarbiyalashning muhim sharti sifatida e’tirof etiladi.

**Kalit so‘zlar:** jismoniy tarbiya va sport, o‘quvchi-yoshlar, odam tana a’zolari, jismoniy mashqlar, morfo-funksional, psixofiziologik va biologik xususiyatlar;

# РОЛЬ ФИЗИЧЕСКОЙ КУЛЬТУРЫ И СПОРТА В ФОРМИРОВАНИИ ЗДОРОВОГО ПОКОЛЕНИЯ

**Аннотация.** Известно, что физическое воспитание и спортивные упражнения оказывают специфическое положительное влияние на функционирование всего организма и, таким образом, играют важную роль в поддержании здоровья. Поэтому серьезное внимание, уделяемое развитию спорта в нашей стране, признается важным условием воспитания здорового и гармонично развитого молодого поколения.

**Ключевые слова:** физическое воспитание и спорт, студенческая молодежь, органы человеческого организма, физические упражнения, морфофункциональные, психофизиологические и биологические характеристики;

# THE ROLE OF PHYSICAL CULTURE AND SPORTS IN THE FORMATION OF A HEALTHY GENERATION

**Abstract.** It is known that physical education and sports exercises have a specific positive effect on the functioning of the entire body and, therefore, play an important role in maintaining health. Therefore, the serious attention paid to the development of sports in our country is recognized as an important condition for raising a healthy and harmoniously developed young generation.

**Keywords:** physical education and sports, student youth, human body organs, physical exercises, morphofunctional, psychophysiological, and biological characteristics.

**Kirish.** Bugungi globallashuv jarayonida jamiyat taraqqiyoti, davlatning iqtisodiy va ijtimoiy barqarorligi, eng avvalo, sog‘lom va har tomonlama yetuk avlod tarbiyasiga bog‘liqdir. Sog‘lom avlod – bu jismoniy, ma’naviy va aqliy jihatdan barkamol, ijtimoiy faol, mustaqil fikrlay oladigan shaxsdir. Shu bois, O‘zbekiston Respublikasi tomonidan sog‘lom turmush tarzini qaror toptirish, yoshlarning jismoniy va ruhiy salomatligini mustahkamlash, ularni sportga keng jalb etish borasida keng ko‘lamli islohotlar amalga oshirilmoqda.

Jismoniy tarbiya va sport nafaqat inson organizmini chiniqtiradi, balki undagi iroda, intizom, maqsadga intilish kabi ijobiy fazilatlarni shakllantirishda muhim vosita hisoblanadi. Ayniqsa, yosh avlod tarbiyasida jismoniy faollikning roli beqiyos bo‘lib, u bolaning sog‘lom ulg‘ayishida, ijtimoiy muhitga moslashuvida, bilim olish jarayonidagi faolligida muhim omil bo‘lib xizmat qiladi.

Mazkur maqolada jismoniy tarbiya va sportning sog‘lom avlod shakllanishidagi o‘rni tahlil qilinadi, mavjud muammolar va ularni bartaraf etish yo‘llari ko‘rib chiqiladi. Shuningdek, O‘zbekistonda ushbu yo‘nalishda olib borilayotgan davlat siyosati, dasturlar va ularning natijalari ilmiy asosda yoritiladi.

**Tadqiqot maqsadi.** O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 16-iyundagi “Aholining jismoniy tayyorgarlik darajasini baholash tizimini joriy etishning tashkiliy chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-5148-sonli qarori hamda O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 15-yanvardagi “Aholining jismoniy tayyorgarlik darajasini baholash bo‘yicha sport sinovlarini tashkil etish va o‘tkazish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 23-sonli qarori qabul qilingan. Yuqorida ko‘rsatib o‘tilgan qarorlarga asosan tumandagi korxona va tashkilotlar xodimlari, umumiy o‘rta ta’lim maktablari o‘qituvchilari hamda o‘quvchilaridan ixtiyoriy va majburiy jismoniy tayyorgarlik darajasini baholash bo‘yicha sinov me'yornomalari yiliga ikki marotaba olinadi. Ushbu ko‘rsatkichlar tahlil qilinib, umumlashtirilgan holda aholining jismoniy tayyorgarlik darajasi hamda sog‘lom turmush tarzi qay holatdaligi aniqlanadi. Ko‘rsatkichi past bo‘lgan hudud yoki umumiy o‘rta ta’lim maktablarida aholini jismoniy tarbiya va sportga ko‘proq jalb qilish, o‘sha o‘rta ta’lim maktabida sport seksiyalarini ochish turli ommaviy sport musobaqalarini muntazam o‘tkazish orqali aholining sog‘lom turmush tarzi oshiriladi.

**Tadqiqotni tashkil qilish uslublari.** Tadqiqotchilarning fikricha, o‘quvchilarga umumiy rivojlantiruvchi mashqlar bilan mustaqil shug‘ullanishni 10-11 yoshdan o‘rgatish maqsadga muvofiq ekanligini tavsiya etadi (bunday mashqlar harakat apparati, yurak qon tomirlar va nafas olish organlari tizimi ishlarini faollashtiradi, tananing ayrim mushak guruhlari, bo‘g‘imlar, gavdaning pastki va yuqorigi mushaklariga ta’sir etadi. natijada yurak-qon tomir urishi va nafas olish tizimi tezlashib, a’zo va to‘qimalarga kislorod yetkazib berish ko‘payadi, mushaklar cho‘ziluvchanligi va tana harorati oshadi).

O‘zbekistonda bolalar sportini rivojlantirishda ularni jismoniy va ma’naviy tarbiyalashning zamonaviy shakl va uslublarini, jinsi va yoshiga qarab bolalarga sport ko‘nikmalarini singdirishning, sport sohasida iqtidorli bolalarni ixtisoslashtirilgan sport maktablari va markazlardagi mashg‘ulotlarga tanlab olishning ilmiy asoslangan tizimlarini ishlab chiqishni tashkil etishda hamda ularni tadbiq qilishga ko‘maklashish o‘z yechimini kutayotgan muammolardan hisoblandi.

**Tadqiqot natijalari va muhokamasi.** Jismoniy sifatlar bola organizmining morfo funksional, psixofiziologik va biologik xususiyatlari bilan bog‘liq. Asosiy jismoniy sifatlar (tezkorlik, kuch, chidamlilik, chaqqonlik va egiluvchanlik)ning rivojlanishi harakat ko‘nikmalarining shakllanishi bilan uzviy bog‘liqlikda kechadi. Tezkorlik - bu harakatni imkon qadar katta tezlikda bajara olish qobiliyatidir. M.M.Rahimovning o‘tkazgan tadqiqot ishlari natijalariga ko‘ra, 7 yoshdan 9-10 yoshgacha bo‘lgshan bolalarda tezkorlik imkoniyatlarining tabiiy ravishda shiddatli o‘tishi kuzatiladi. Bu davrda tezkorlikni rivojlantirishga qaratilgan sa’y harakatlar yaxshi samara beradi. Kuch - bu muskul zo‘riqish vositasida qarshilikni yenga olish faoliyatidir. Yoshga qarab o‘sishda kuch sifatining rivojlanishi va muskul kuchining

intensiv farqlanishi o‘g‘il bolalarda ikki davrga ajratiladi. 9 yoshdan 12 yoshgacha va 14-17 yoshgacha. Qiz bolalarda muskul kuchi 8-9 dan 13-14 yoshgacha intensiv o‘sadi. Kichik maktab yoshida organizm rivojlanishining anatomik-fiziologik xususiyatlari bilan bog‘liq ravishda, bu sifatni rivojlantirishni kuchaytirish tavsiya etilmaydi. Kuchni tarbiyalash chegaralangan xarakterda bo‘lishi kerak. Agar bu yuklama miqdor jihatidan noto‘g‘ri bo‘lsa, ko‘ngilsiz iz qoldirishi, masalan, qomat buzilishi mumkin. Chidamlilik - bu organizmning biror faoliyat chog‘ida toliqishga qarshi tura olish qobiliyatidir.

Kichik yoshdagi maktab o‘quvchilarning chidamlilik ko‘rsatgichlari yuqori emas, ya’ni yaqin vaqtlargacha keng tarqalgan nuqtai-nazarga ko‘ra, bu yoshda chidamlilik mashqlarini ishlab ko‘rish mumkin emas edi. Ammo keyingi yillarda o‘tkazilgan tadqiqotlar buning aksini ko‘rsatmoqda. Bu yoshdan boshlab yuklamani to‘g‘ri taqsimlash bilan birga chidamlilikni rivojlantirishga ta’sir ko‘rsatish mumkin ekan. Epchillik - harakatlarni uyg‘unlashtirish qobiliyati, yangilarini egallash, to‘satdan paydo bo‘lgan vaziyatda harakatlarni samarali va tejamli bajarish bilan tavsiflanadi. Epchillikni rivojlantirish uchun har qanday mashqlardan foydalanish mumkin (koordinasion elementlardan iborat bo‘lgan gimnastika mashqlari, uloqtirish o‘yinlari shular jumlasidandir). Agar ma’lum uslubiy tavsiyalarga amal qilinsa, epchillikni rivojlantirish jarayoni yanada samaraliroq bo‘ladi. Egiluvchanlik - bu belgilangan birlashmalarning harakatlariga muvofiq keng quloch yoyish qobiliyatidir. Kichik yoshdagi o‘quvchilarda egiluvchanlik yo‘naltirilgan rivojlantirishga yaxshi samara beradi. Biologik nuqtai nazardan jismoniy harakat barcha a’zolar, tizimlar va butun bola organizmining to‘g‘ri o‘sib-rivojlanishini ta’minlaydi. Bunga quyidagi dalillarni ko‘rsatish kifoyadir. Kishidagi 600 nafar mushaklar kattalarda hayotiy funksional harakatchanlikning 45% ni ta’minlaydi va yurak qon-tomir, qon aylanish kabi funksiyalarni yaxshilaydi. Shuning uchun jismoniy tarbiya va sport ertalabki gimnastikadan boshlanib, butun hayot mobaynida vrach nazorati ostida va o‘z-o‘zini nazorat qilish tarzida bolaning yoshiga qarab ijro etilishi ma’quldir.

**Xulosa.** Sport o‘yinlari turlari bilan shug‘ullanish yosh bolalarda ularning yoshlari va organizmning taraqqiy etish darajasiga qarab vrachlar ko‘rigi tanlovida saralanib, tashkillanadi. Ana shu qoidalarga rioya qilingan holda davlatimizda yoshlikdan boshlangan jismoniy tarbiyaning keng ommaviylashishi nafaqat sog‘lomlashtirish, balki tug‘ma nuqsonlarning oldini olish, sog‘lom avlodni tarbiyalab yetishtirish, qolaversa kishilarning umrini uzaytirishga xizmat qiladi.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 3-iyundagi “Jismoniy tarbiya va ommaviy sportni yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-3031- son qarori. https://lex.uz/docs/ 3226019

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 16-iyundagi “Aholining jismoniy tayyorgarlik darajasini baholash tizimini joriy etishning tashkiliy chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ 5148-sonli qarori. https://lex.uz/docs/-5459047

3. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 15-yanvardagi “Aholining jismoniy tayyorgarlik darajasini baholash bo‘yicha sport sinovlarini tashkil etish va o‘tkazish chora tadbirlari to‘g‘risida”gi 23-sonli qarori https://lex.uz/ru/docs/-5847372

4. Вайнер Е. Н. Валеология. Учебник для вузов. – Москва, Флинта, Наука, 2001. 286-с.

5. Стогова Л. И. Динамика некоторйх показателей тренированности подростков и юношей, занимаюшихся спортом. В кн. Актуалнйе вопросй врачебного контроля. – Москва, 1965. 114-с.

6. Qurbonov Sh. Q., Qurbonova Sh. Sh. Sport fiziologiyasi. – Qarshi, “Nasaf”, 2001. 158-b.

# MUZEY TA ‘LIM FAOLIYATIDA AXBOROT-KOMMUNIKATSIYA TEXNOLOGIYALARINING PEDAGOGIK AHAMIYATI

**Ubaydullayev Saidakbar Saydaliyevich,** Farg‘ona davlat universiteti
“Pedagogika nazariyasi va tarixi” mutaxassisligi1-bosqich magistranti
**e-mail:** saydaliyevichsaidakbar2004@gmail.com

**Annotatsiya.** Maqolada muzey ta’lim faoliyatida axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining pedagogik ahamiyati, imkoniyatlari va amalga oshirilishi ko‘rib chiqiladi. Axborot texnologiyalarining muzeyda ta’lim jarayonlariga integratsiya qilinishi, eksponatlar, virtual turlar va interaktiv o‘quv materiallari orqali o‘quvchilarga bilim berish jarayonini yanada samarali va qiziqarli qilish imkonini yaratadi. Ushbu yondashuv orqali ta’lim muhitida yangilik yaratilib, o‘quvchilarning bilim olishda faol ishtirok etishiga imkon beradi. Maqolada, shuningdek, axborot texnologiyalarining pedagogik metodlarga qo‘llanilishi va bu orqali muzeylarning ta’limdagi o‘rni va roli qanday o‘zgarayotganligi masalalari yoritiladi.

**Kalit so‘zlar:** muzey ta’limi, axborot texnologiyalari, interaktiv ta’lim, virtual turlar, pedagogik metodlar, ta’lim faoliyati, innovatsiyalar;

# ПЕДАГОГИЧЕСКОЕ ЗНАЧЕНИЕ ИНФОРМАЦИОННО-КОММУНИКАЦИОННЫХ ТЕХНОЛОГИЙ В МУЗЕЙНОЙ ОБРАЗОВАТЕЛЬНОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ

**Аннотация.** В статье рассматривается значение, возможности и реализация эффективного использования информационных технологий в музейно-образовательной деятельности. Интеграция информационных технологий в образовательные процессы в музее позволяет сделать процесс передачи знаний учащимся более эффективным и увлекательным с помощью экспонатов, виртуальных туров и интерактивных учебных материалов. Благодаря такому подходу инновации создаются в образовательной среде, позволяя учащимся активно участвовать в приобретении знаний. В статье также рассматриваются вопросы применения информационных технологий к педагогическим методам и то, как через них меняется роль и роль музеев в образовании.

**Ключевые слова:** музейное образование, информационные технологии, интерактивное обучение, виртуальные туры, педагогические методы, образовательная деятельность, инновации;

# PEDAGOGICAL SIGNIFICANCE OF INFORMATION AND COMMUNICATION TECHNOLOGIES IN MUSEUM EDUCATION ACTIVITIES

**Annotation.** The article examines the importance, capabilities and implementation of the effective use of Information Technology in museum educational activities. The integration of information technology into educational processes in the museum, through exhibits, virtual tours and interactive learning materials, makes it possible to make the process of giving knowledge to students more efficient and interesting. Through this approach, innovation is created in the

educational environment, allowing students to actively participate in the acquisition of knowledge. The article also covers the application of information technology to pedagogical methods and how the role and role of museums in education are changing through this.

**Keywords:** museum Education, Information Technology, interactive education, virtual tours, pedagogical methods, educational activities, innovation.

**Kirish.** Zamonaviy muzey makonini axborot texnologiyalarisiz tasavvur qilib boʻlmaydi, chunki ularni muzeylar faoliyatida qoʻllash tashrif buyuruvchi bilan aloqa qilishning qulay tizimini yaratish imkonini beradi, ekspozitsiyalar chegaralarini kengaytiradi, ekspozitsiya mavzusiga batafsilroq kirish va eksponatlar haqida kengaytirilgan ma'lumot olish imkonini beradi.

Internet va axborot texnologiyalari bugungi kunda nafaqat keng ma'lumotlar bazalaridan operativ foydalanish, madaniyat bilan tanishish, uzoq madaniy qadriyatlarning mavjudligi uchun keng imkoniyatlarni yaratmoqda. Ta'lim va muzey makonining barcha imkoniyatlaridan foydalangan holda jamiyatda axborot madaniyatini muntazam ravishda rivojlantirish va umumiy madaniy kompetentsiyani shakllantirish hayotiy muhim ahamiyatga ega, bu esa ma'lumotlar, obyektlar va hodisalarni idrok etish va baholashning tanqidiyligini oshirishga imkon beradi. Umumiy madaniy kompetensiya nazariy jihatdan oʻz-oʻzini tarbiyalash va madaniyatning turli sohalari toʻgʻrisida toʻgʻri mulohazalar, turli madaniyatlar vakillari bilan muloqot qilish uchun yetarli boʻlgan ta'lim darajasi sifatida belgilanishi mumkin. Biz umumiy madaniy kompetensiyani baholash mezoni sifatida madaniyat yutuqlari va madaniy me'yorlardan foydalanish asosida shaxsning bilim darajasi, dunyoqarashi, hayotiy, kasbiy muammolarni hal qilish qobiliyati va tayyorgarligi sifatida belgilaymiz.

Ta'lim jarayonida raqamli qurilmalardan tashrif buyuruvchi va muzey oʻrtasidagi shaxsiy oʻzaro munosabatlarda yordamchi sifatida foydalanish madaniyat tarixida misli koʻrilmagan yangi tajribadir [1]. Muzeylar bugungi kunda tashrif buyuruvchilarning madaniy dam olishi, axborot, kommunikativ ehtiyojlarini qondirishida kengaytirilgan imkoniyatlardan foydalanishi muhim ahamiyatga ega. Muzey aloqasi bugungi kunda muzey ashyolarini idrok etishning an'anaviy usullari ham, axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanishga asoslangan yangi usullarning ham kombinatsiyasi sifatida qaraladi. Zamonaviy raqamli texnologiyalardan foydalangan holda ekskusiyada muzey ekspozitsiyalarini shaxsiy smartfonlar yoki kompyuterlar ekranlarida tanlash va koʻrib chiqish va shu bilan birga ushbu muzey obyektlari, koʻrgazmalar, rassomlar haqida ma'lumot olish imkoniyatini beradi. Maktablar va ota-onalar koʻpincha bolalar va yoshlarning madaniy ehtiyojlari bilan kam qiziqayotgan bugungi kunda yosh avlodni muzeylar va madaniy meros bilan yaqindan tanishtirish uchun axborot texnologiyalarining afzalliklaridan foydalanish muhim ahamiyatga ega.

**Mavzuga oid adabiyotlar tahlili.**

Jumaniyozov T. (2016) «Muzeylar va ta'lim tizimi» Ushbu asarda muallif, Oʻzbekistondagi muzeylar va ta'lim tizimi oʻrtasidagi oʻzaro bogʻlanishni tahlil qiladi. Jumaniyozov muzeylarning ta'lim faoliyatida qanday oʻrin tutishini va ta'lim metodlarining rivojlanishidagi oʻzgarishlarni ko'rsatadi. Raqamli texnologiyalarning muzey faoliyatiga ta'sirini ham muallif oʻz asarida ta'kidlaydi.

Qodirov M. (2015) «Muzey ta'limi va axborot texnologiyalari» Qodirovning tadqiqoti muzeylar va ta'lim jarayonlarida axborot texnologiyalarining ahamiyatini o'rganishga bag'ishlangan. Muallif muzeylarda axborot texnologiyalari yordamida qanday innovatsion ta'lim usullarini qoʻllash mumkinligi haqida batafsil yozadi. Tadqiqotda, oʻquvchilarga muzey eksponatlarini interaktiv tarzda taqdim etish va bu orqali ularning bilish faoliyatini rivojlantirishning imkoniyatlari ko'rsatilgan.

To‘raqulov A. (2020) “Axborot texnologiyalarining muzey ta’limiga qo‘llanilishi” To‘raqulovning ishida, axborot texnologiyalarining muzeyda ta’lim jarayonini modernizatsiya qilishdagi o‘rni va uning pedagogik metodlarga ta’siri yoritilgan. Muallif o‘z ishida axborot texnologiyalarining muzeylarda qanday ishlatilishini va bu orqali o‘quvchilarning ta’lim olishdagi interaktiv ishtirokini qanday oshirish mumkinligini ko‘rsatadi.

**Tadqiqot metodologiyasi**. Fayzullayev B. (2018) «Muzeylarda raqamli texnologiyalardan foydalanish: O‘zbekiston tajribasi» Ushbu tadqiqotda Fayzullayev O‘zbekistondagi muzeylarda raqamli texnologiyalarni qo‘llashning amaliyoti va tajribasi haqida so‘z yuritadi. U muzeylarda virtual eksponatlar va interaktiv ta’lim dasturlarining qo‘llanilishiga oid misollarni keltiradi. Tadqiqotda axborot texnologiyalari yordamida o‘quvchilarga ilmiy va madaniy merosni taqdim etish jarayoni tahlil qilinadi.

Tursunov S. (2022) «Axborot texnologiyalari va muzeylarda ta’lim: Innovatsiyalar va imkoniyatlar» Tursunovning asari O‘zbekiston muzeylarida axborot texnologiyalaridan qanday foydalanish mumkinligi, ta’lim jarayonini qanday takomillashtirish mumkinligi haqida fikrlarni o‘z ichiga oladi. Muallif muzeylarda yangi texnologiyalarni, masalan, 3D modellash, virtual haqiqat va interaktiv o‘quv vositalarini ta’lim jarayoniga qanday qo‘shish kerakligini o‘rganadi.

Shodmonov R. (2017) «Muzeylar va ta’lim: O‘zbekiston madaniy merosining raqamli kelajagi» Shodmonovning asarida O‘zbekistonning madaniy merosi va muzey ta’limi o‘rtasidagi bog‘lanish o‘rganilgan. Muallif, O‘zbekiston muzeylarida madaniy va tarixiy merosni axborot texnologiyalari yordamida o‘rganishning yangi usullarini tavsiflaydi. Shuningdek, muzeylarning o‘quvchilarga ta’lim berishdagi yangi yondashuvlari haqida ham so‘z yuritiladi.

2022 - yil 16 - 17 va 19-sentyabrda BMTning “Ta'limni o‘zgartirish bo‘yicha sammit”da (Transforming Education Summit 2022) ta'limga oid masalalar ham ko‘rib o‘tilgan bo‘lib, bu sammitda raqamli tarnsformatsiyani rivojlantirish, pedagoglarning rolini oshirish, shuningdek inkulizivlik va tenglikni amalga oshirish ishlari olib borilishi nazarda tutilgan bo‘lib, har bir o‘quvchiga raqamli vositalar orqali sifatli ta'limni taqdim etish; bu jumladan simulyatsiyalar, virtual laboratoriyalar va interaktiv kontentlarni yaratish va ulardan foydalanishni rivojlantirsh, raqamli transformatsiya rivojiga katta hissa qo‘shishi, simulyatsional metodlar samarali bo‘lishi uchun o‘qituvchilarning metodik tayyorgarligini va innovatsion yondashuvga moslik esa pedagoglarning ro‘lini oshirishini, simulyatsiyalar murakkab tushunchalarni ham inklyuziv va maximum darajada erkin kirish imkoniyatlari bilan taqdim etishini, bu esa SDG 4 maqsadlariga mos kelishi nazarda tutilgan. **BMTning bu sammiti** ta'limni global miqyosda **raqamli, inklyuziv, sifatli** darajada oshirish tarafdori. Simulyatsion dasturlar fizikani o‘qitish

metodikalariga kiritilganda nafaqat *funksional tranformasiyani* rag‘batlantiradi, balki SDG 4 maqsadlari tenglik, sifat va hayot davomida o‘qishni ijro etish bo‘yicha ilmiy jihatdan to‘g‘ri yo‘nalish beradi [2].

**“ICT in Education Policy Guidelines”** deb nomlanuvchi hujjatlar (2011 va 2019-yillar nashrlari) mamlakatlar uchun ta’lim siyosatini ishlab chiqishda muhim hujjat hisoblanadi. Har bir mamlakat axborot-kommunikatsiya texnologiyalari (AKT) siyosatini ishlab chiqishda milliy ehtiyojlar, mavjud infratuzilma, o‘qituvchilar malakasi va resurslar holatini tahlil qilishi lozimligi, AKTni faqat texnik vosita sifatida emas, balki didaktik jarayonning tarkibiy qismi sifatida ko‘rib chiqish kerakligi, bunda o‘quvchilar faoliyatiga yo‘naltirilgan, interaktiv va simulyatsion yondashuvlar qo‘llab-quvvatlanashi zarur ekanligini ko‘rsatadi. O‘qituvchilarning AKT bo‘yicha kompetensiyalarini shakllantirish hamda ularni doimiy kasbiy rivojlantirish tizimiga integratsiya qilish zarurligi hamda AKT siyosatining samaradorligini muntazam baholash, raqamli ta’lim ko‘rsatkichlarini tahlil qilish va yangilanishlar kiritish zarur deb qayd etilib qo‘yilgan. Shuning bilan birga, hujjatda ijtimoiy tenglik, texnologik adolat va moliyaviy barqarorlik kabi mezonlar ham ta’limdagi AKT siyosatining muhim omillari sifatida belgilandi. YUNESKO tomonidan taqdim etilgan AKT siyosatiga oid yo‘riqnomalar ta’lim sohasida raqamli transformatsiya jarayonlarini tizimli, barqaror va ijtimoiy adolatli shakllantirish uchun muhim nazariy asosdir. Ushbu yo‘riqnomalar asosida ishlab chiqilgan strategiyalar simulyatsion ta’lim dasturlarini joriy etish, o‘quvchilar va o‘qituvchilarning raqamli kompetensiyalarini rivojlantirish va butun ta’lim tizimini zamonaviy talablar asosida shakllantirish imkonini beradi. Xususan, fizikani o‘qitishda simulyatsion yondashuvlar, masalan PhET interaktiv simulyatsion resurslari, aynan ushbu YUNESKO hujjatlarida tavsiya etilgan ochiq ta’lim resurslari siyosatiga to‘la mos keladi [3].

**“Future of Education and Skills 2030”** bu **OECD tashkiloti** tomonidan ishlab chiqilgan strategik tashabbus bo‘lib, ta’lim tizimlarining XXI asrda qanday darajada shakllanishi va qanday muhim ko‘nikmalar va yondashuvlar zarurligini belgilab beradi. Bu hujjatda **raqamli texnologiyalar,** xususan, **interaktiv vositalar** va **simulyatsion dasturlar** o‘quvchilarning faol ishtirokini ta’minlash vositasi sifatida qaraladi. Bu metodika orqali murakkab fizikaviy tushunchalarni vizual tarzda tushuntirish mumkin, bu esa OECDning “deep learning” va “student agency” tamoyillariga mos keladi. Simulyatsiyalar yordamida talaba o‘z-o‘zini kuzatadi, taxmin qiladi, sinaydi va tahlil qiladi — bu esa “Future Skills” deb ataluvchi ko‘nikmalarni shakllantiradi. Simulyatsiyalar individual tempda o‘rganish imkonini beradi. Bu esa OECDning ushbu hujjatida ilgari surilgan **“shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim”** g‘oyasini qo‘llab-quvvatlaydi. Shuningdek, fizikani simulyatsiya orqali o‘rgatish — bu eksperimental, empirik va tahliliy yondashuvni rag‘batlantiradi, bu esa ilm-fanga asoslangan yondashuvni kuchaytirishi ushbu hujjatlarda keltirilib o‘tilgan.

**Xulosa.** Xulosa o‘rnida shuni aytish mumkinki, bugungi ta’lim tizimida simulyatsion dasturlar yordamida fizika fanini o‘qitish nafaqat o‘quvchilarning mavzuni chuqurroq tushunishini ta’minlaydi, balki ularni faol ishtirokchi sifatida darsga jalb etadi. Bu esa ta’limning sifat ko‘rsatkichlariga ijobiy ta’sir qiladi. Shuning bilan bir qatorda hozirgi zamon talablariga mos holda o‘qituvchilarni dars o‘tish jarayonida fizika fani mavzularini chuqur mushohada bilan o‘qitishni hamda o‘quvchiga tushunarli tarzda yetkazishni ta’minlash uchun muhim vosita sifatida qaraladi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 19.03.2021 yildagi PQ-5032-son “Fizika sohasidagi ta’lim sifatini oshirish va ilmiy tadqiqotlarni rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarorlariga asosan fizika fanini mamlakatimizda rivojlantirish uchun simulyatsion dasturlari asosida o‘qitish bu juda katta natijalar berishi jahonda qabul qilayotgan ta’limga oid hujjatlarda ham ko‘rish mumkin.

**Takliflar.** Simulyatsion dasturlar asosida fizika fanini o‘qitish va o‘quvchilarning fizik bilimlarini oshirish bo‘yicha quyidagi takliflarni berishimiz mumkin:

Fizika fani o‘quv dasturlariga PhET kabi simulyatsion resurslarni majburiy integratsiya qilish.

- Fizika fani o‘qituvchilarini AKTdan foydalana olishi uchun ularning kompyuter savodxonligini yuqori darajagi olib chiqish. Agar kerak bo‘lsa buning uchun kurslar tashkil qilish.
- Ta’lim muassasalarida yuqori tezlikdagi internet va kompyuter sinflarini kengaytirish.
- Simulyatsion resurslar orqali inkluziv ta’limni qo‘llab-quvvatlash.
- Fizika darslarida AI (sun’iy intellekt) asosidagi ta’lim texnologiyalarini tajriba tariqasida sinab ko‘rish
- O‘quv-metodik qo‘llanmalar va dars ishlanmalarini simulyatsion vositalar asosida ishlab chiqish
- PhET va boshqa ochiq manbali platformalar uchun o‘zbek tilidagi lokalizatsiyani kengaytirish

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Nations U. Department of Economic and Social Affairs //Population Division, 2015.

2. Garnier L. Reflections on the United Nations Transforming Education Summit //PROSPECTS, 2025. – C. 1-8.

3. Miao F. et al. Guidelines for ICT in education policies and masterplans, 2022.

4. Taguma M., Barrera M. OECD future of education and skills 2030: Curriculum analysis //Disponibile su: https://www. oecd. org/education/2030-project/teaching-and learning/learning/skills/Skills_for_2030. Pdf, 2019.

5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarori №PQ-5032, 2021-yil 19-mart, “Fizika sohasidagi ta’lim sifatini oshirish va ilmiy tadqiqotlarni rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”.

# TARIX DARSLARINI O‘QITISHDA MIRZACHO‘L VOHASI TARIXINI O‘RGANISHDA MATBUOT MATERIALLARI VA ARXIV HUJJATLARINING O‘RNI.

**Xolnazarova Aziza Mamatmuratovna,** Guliston shahridagi 11-maktab o‘qituvchisi.
**e-mail:** xolnazarovadildora@gmail.com

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada tarix darslarida mirzacho‘l vohasi tarixini o‘rganishda matbuot materiallari va arxiv hujjatlarining o‘rni borasida so‘z yuritiladi. Mirzacho‘l vohasi tarixini o‘rganishda matbuot materiallari va arxiv hujjatlarining o‘rni va ahamiyati manbalar tahliliga asoslanib belgilangan. Shuningdek, tarix darslarida XIX asr oxiri – XX asr boshlari Mirzacho‘l vohasi tarixini o‘rganishda manbalarni 3 guruhga ajratib o‘rganish borasidagi fikrlar ilgari suriladi.

**Kalit so‘zlar:** Mirzacho‘l vohasi, matbuot materiallari, arxiv hujjatlari, manbalar, davriy matbuot;

# РОЛЬ МАТЕРИАЛОВ ПРЕССЫ И АРХИВНЫХ ДОКУМЕНТОВ В ИЗУЧЕНИИ ИСТОРИИ ОАЗИСА МИРРАЗАЧОЛЬ НА УРОКАХ ИСТОРИИ.

**Аннотация.** В данной статье рассматривается роль материалов прессы и архивных документов в изучении истории Мирзачольского оазиса на уроках истории. На основе анализа источников определяется роль и значение материалов прессы и архивных документов в изучении истории Мирзачольского оазиса. Также выдвигаются идеи по изучению источников при изучении истории Мирзачольского оазиса на уроках истории в конце XIX – начале XX вв., разделяя их на 3 группы.

**Ключевые слова:** Мирзачольский оазис, материалы прессы, архивные документы, источники, периодическая печать.

# THE ROLE OF PRESS MATERIALS AND ARCHIVE DOCUMENTS IN STUDYING THE HISTORY OF THE MIRRAZACHOL OASIS IN TEACHING HISTORY LESSONS.

**Abstract**. This article discusses the role of press materials and archival documents in studying the history of the Mirzachol oasis in history lessons. The role and significance of press materials and archival documents in studying the history of the Mirzachol oasis is determined based on the analysis of sources. Also, ideas are put forward on the study of sources in studying the history of the Mirzachol oasis in history lessons in the late 19th and early 20th centuries, dividing them into 3 groups.

**Keywords:** Mirzachol oasis, press materials, archival documents, sources, periodicals.

**Kirish.** Bugungi kunda yangilanayotgan O‘zbekistonda qadimiy an’analar va milliy qadriyatlarimizni qayta tiklashga, shuningdek, jamiyatimizninng ijtimoiy - siyosiy jarayonlarini xolisona tahlil qilish orqali tarixiy haqiqatni yuzaga chiqarishga

va eski mustabid tuzum asoratlarini yangicha tahlil qilishga doir ko‘p ishlar qilinmoqda. Ammo o‘zbek xalqining tarixiy o‘tmishini haqqoniy yoritib berish uchun hali ko‘plab ilmiy tadqiqotlar olib borilishi lozim.

Mustaqillik yillarida o‘zbek xalqining o‘z ajdodlari tomonidan yaratilgan tarixiy merosni tiklash, saqlash, o‘rganish, bugungi hamda kelajak avlodning ma’naviy mulkiga aylantirish davlat siyosati darajasiga ko‘tarildi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. M. Mirziyoev tomonidan 2017-yil 24-mayda imzolangan “Qadimiy yozma manbalarni saqlash, tadqiq va targ‘ib qilish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” [1] gi qaror bu boradagi muhim vazifalarni belgilab berdi. Vatanimiz tarixini chuqurroq o‘rganishda nafaqat qo‘lyozmalar, arxiv hujjatlari, balki o‘sha davr matbuoti sahifalaridan ham juda muhim ma‘lumotlarni olish mumkin.

**Asosiy qism.** Tarix darslarida Mirzacho‘l vohasi tarixini o‘rganishda matbuot materiallari va arxiv hujjatlarining o‘rni va ahamiyatini manbalar tahliliga asoslanib belgilash mumkin. XIX asr oxiri – XX asr boshlari Mirzacho‘l vohasi tarixini o‘rganishda manbalarni quyidagi 3 guruhga ajratish mumkin: arxiv hujjatlari; davriy matbuot nashrlari va rasmiy hisobot va statistik ma’lumotlar.

Birinchi guruhga kiritilgan manbalar O‘zbekiston Respublikasi Milliy arxivi (O’z MA) ning Rossiya imperiyasi mustamlakachiligi davriga oid I-1, 7, 16, 17, 18, 21, 33, 36, 40, 69, 87, 113-fondlari hujjatlaridir. Bu arxiv hujjatlari mustamlaka ma’muriyatining vohada yer va suvdan foydalanishdagi o‘zgarishlar tizimini ko‘rsatib beradi. Chunki aynan ushbu turdagi manbalarda mustamlaka ma’muriyati amaldorlari Turkistonda, shu jumladan Mirzacho‘lda yuritgan siyosati to‘g‘risida o‘z fikrlarini bildirishgan.

O’zbekiston Milliy arxivi (O‘zMA)da saqlanayotgan bir qator jamg‘armalar o‘rganilib, tahlil qilindi. Xususan, O‘zbekiston Milliy arxivining “Turkiston general-gubernatorligi kantselyariyasi” (f.I-1), “Samarqand viloyati boshqarmasi” (f.I-18), “Jizzax uezdi boshlig’i boshqarmasi” (f.I-21) kabi fondlardagi materiallar muhim manbaviy asos bo‘lib xizmat qildi. Sirdaryo va Jizzax viloyati arxivlarida Mirzacho‘lning sovet davri tarixiga tegishli hujjatlar mavjud bo‘lib, tadqiq qilinayotgan davrga tegishli hujjatlar yo‘qligi sababli mazkur arxiv fondlaridan magistrlik dissertatsiyasini tayyorlash jarayonida foydalanilmadi. Mirzacho‘lning o‘zlashtirilishi, ko‘chirish harakati, vohada tashkil topgan rus qishloqlarining ijtimoiy-iqtisodiy ahvoliga tegishli materiallar O‘zMAning 1, 7, 16, 18, 21, 33, 269-fondlaridan olingan. Knyaz N. K. Romanov ishlari boshqarmasiga tegishli 40-fond materiallaridan Mirzacho‘lda Rossiya imperiyasining olib borgan mustamlakachilik siyosatiga oid ma’lumotlar batafsil ko‘rsatib o‘tilgan.

Ikkinchi guruhga oid manbalar qatoriga asosan 1870-yildan 1917-yilgacha nashr etilgan davriy matbuotdan olingan materiallar kiradi.

Turkistonda davriy matbuot uch guruhga gazetalar, jurnallar, ilmiy jamiyatlarning nashrlariga bo‘lingan. Gazeta va jurnallar materiallarni etkazib berish usuli ko‘ra faqr qilgan. Jumladan, gazetada kichik hajmdagi ma’lumotlar nashr qilingan. Oyda bir nashr qilinadigan jurnallarda esa, umumlashtiruvchi ma’lumotlar, muammoviy va tahliliy xarakterga ega bo’lgan maqolalar chop etilgan. Turkistonda 1870 – 1890 yillarda faqatgina rasmiy gazetalar chop etilgan. XIX asrning 90-yillardan boshlab esa xususiy gazetalar chop etila boshladi. Demokratik yo’nalishdagi o’zbek milliy matbuotining namunalari esa 1906-1907 yillarda asos solindi. Turkistonda chop etilgan jurnallarda ilmning hamma sohalariga oid ma’lumotlar aks etgan.

Ayniqsa, O’rta Osiyoning tarixi, arxeologiya, geografiya, topografiya, statistika va etnografiyasiga oid ilmiy maqolalar chop etilgan. Shuningdek mahalliy bibliografiya va e’lonlar nashr etilar edi. Jurnallardagi materiallardan mahalliy aholining turmush tarzi, moddiy ahvoli, madaniy hayoti, ijtimoiy holati haqida bilib

olish mumkin edi. Gazetaning o‘ziga xos xususiyati voqea va jarayonlarni yoritishdagi tezkorligi hozirjavobligidadir. Darhaqiqat gazeta va adabiyot har bir xalqni o‘ziga xos shakllantiruvchi eng asosiy ko‘rsatgich, sifat, xususiyatidir.

**Ilmiy adabiyotlar tahlili va tadqiqot metologiyasi.** O‘zbek davriy matbuotining tasnifi qoidalariga ko‘ra, Turkiston matbuotini quyidagicha guruhlarga bo‘lish mumkin. Xususan, birinchi guruhga davriylik bo‘yicha Turkiston matbuotida haftasiga bir yoki bir necha marotaba hamda har kuni chop etiladigan gazetalarni kiritish o‘rinlidir. Jumladan, Turkistonda muntazam va uzoq vaqt nashr etilgan gazetalar “Turkestanskiy vedomosti “va “Turkuston viloyatining gazetasi“ edi. Ikkinchi guruhga hududiy belgisiga ko‘ra ajratish mumkin. Masalan, Turkiston matbuoti viloyat va uezdda chop etiladigan gazetalardan iborat bo‘lgan. Asosan Toshkent shahrida nashr etilgan, keyinchalik Samarqand, Toshkent,Qo‘qon, Andijon, Buxoro, Farg‘ona va boshqa shaharlarda nashr qilingan.Uchinchi guruh nashrlarning tili bo‘yicha tasniflangan. Xususan, Turkiston matbuotida o‘zbek, rus, fors va qozoq tillarida gazeta va jurnallar chiqarilgan. To‘rtinchi guruhga esa nashr turi bo‘yicha kiritish mumkin. Ya’ni gazeta va jurnallar rasmiy va xususiy bo‘lgan. Masalan, 1870-1917-yil fevraligacha hududda Turkiston general-gubernatorligining rasmiy organi bo‘lgan, “Turkestanskiy vedomosti “va “Turkiston viloyatining gazeti uzluksiz nashr etilgan. Turkiston o‘lkasida milliy gazetalar ham ko‘plab chop etilgan. Shu o‘rinda “Taraqqiy“ gazetasi 1906-yil 27-iyundan 1906-yil 20 avgustga qadar faoliyat yuritdi. U haqiqiy ma’noda taraqqiyparvar mahalliy xalq manfatini ifoda etgan milliy gazeta edi. “Samarqand“ gazetasi Samarqand ma’rifatchilarining bosh gazetasi bo‘lib Mahmudxo‘ja Behbudiy ma’sul muharirligi ostida 1913-yil apreldan chiqa boshlagan. Turkiston o‘lkasi matbuoti tsenzuradan xoli bo‘lmagan. Hukumat senzura masalasiga jiddiy yondashgan, gazeta nashrlaridagi axborotlarni nazorat qilishga uringan. O‘lkadagi gazetalar orasida faqatgina rasmiy nashrlar senzuradan ozod bo’lgan. Lekin, xususiy gazetalar doimo ta’qib va nazorat ostida edi. Bundan tashqari, yashirin ravishda chiqqan gazetalar ham bo‘lib, bular mavjud siyosiy partiyalarning matbuot idoralari nashrlari edi. Mazmun va yo‘nalishi jihatidan Turkistondagi gazetalari asosan adabiy–ijtimoiy va siyosiy yo‘nalishda faoliyat olib borgan. O’lka hayotida doimo muhim ahamiyat kasb etgan.

Rossiya imperiyasi Turkistondagi yer resurslaridan o‘zlarining iqtisodiy manfaatlari yo‘lida foydalanishga harakat qildi. Shu sababli davriy matbuot sahifalarida agrar sohaga doir maqolalar muntazam ravishda chop etilgan [2]. Tadqiqot davomida XIX asr oxiri – XX asr boshida chop etilgan davriy matbuot materiallaridan unumli foydalanishga harakat qilindi. Bu guruhga doir manbalarni o‘z navbatida yana ikki qismga bo‘lish mumkin. Birinchi qismga mustamlaka ma’muriyati ixtiyorida bo‘lgan gazeta va jurnallar kirsa, ikkinchi qism mahalliy taraqqiyparvarlar tomonidan chop etilgan davriy matbuot materiallarini o‘z ichiga oladi. Birinchi guruhdagi materiallar aksariyat holatlarda qishloq xo‘jaligi mutaxasislari tomonidan yozilgan. Shuningdek, ularda Mirzacho‘ldagi kanallar ochilishi va natijada vujudga kelgan yangi yerlarning o‘zlashtirilishi to‘g‘risida ma’lumotlar tez-tez chop etilib turgan. Xususan, “Turkestanskie vedomosti” gazetasi, “Turkestanskoe selskoe xozyaystvo” jurnali hamda “Turkestanskiy sbornik” to’plamidagi mavzuga oid materiallar o’rganib chiqildi hamda mavzuning mohiyatini ochib bera oladigan ma’lumotlar dissertatsiyaga kiritildi.

Bu davrda Turkiston jadidlari va taraqqiyparvarlari tomonidan chop etilgan ilk mahalliy gazetalarda Turkistonni va jamiyatni rivojlantirish uchun tanqidiy maqolalar chop etilgan. Bunday holat agrar sohaga oid materiallarda ham ko‘zga tashlanib turadi. Jumladan, mahalliy ziyolilar Turkistondagi dehqonchilik ahvoli yildan-yilga pasayib borayotganligi aytib, ushbu sohani rivojlantirishning yo‘llarini ko‘rsatib o‘tadi. “Sadoi Turkiston” va “Sadoi Farg‘ona” gazetalari shu turdagi maqolalarni chop etgan davriy matbuot materiallari hisoblanadi.

Jumladan, Rossiya imperiyasi ma’muriyatining rasmiy nashrlari bo‘lgan «Turkestanskie vedomosti», «Tashkentskiy kurer», «Sredneaziatskaya jizn», «Russkiy Turkestan» gazetalari va «Turkestanskoe selskoe xozyaystvo» jurnalida [3] chop etilgan voha tarixiga oid qiziqarli maqola va kichik xabarlar, shuningdek «Turkestanskiy sbornik» to‘plamidan o‘rin olgan turli davriy nashrlar materiallari sinchiklab ko‘rilib, ulardan Mirzacho‘lda tashkil topgan qishloqlarning ijtimoiy-iqtisodiy ahvoli, ko‘chib kelgan aholining mahalliy aholi bilan munosabatlari masalalariga tegishli ma’lumotlar olindi.

Xususan, «Turkestanskoe selskoe xozyaystvo» jurnalida nashr etilgan I. Kashkin, K. N. Vladimirov, A. Miroshnichenko, M. M. Bushuev maqolalarida Mirzacho‘l vohasi tarixiga oid turli mazmundagi ma’lumotlar keltirilgan. I. Kashkin Turkiston irrigatsiyasiga bag‘ishlangan ishida Hind, Ganga vodiylari va Turkistonda amalga oshirilgan o‘zlashtirish ishlarini taqqoslagan, jumladan 1907-yilgacha Mirzacho‘lni o‘zlashtirish to‘g‘risidagi turli loyihalar xususida o‘z fikrlarini bildirgan. Ammo, bu ishlarni ko‘chib kelgan aholining ijtimoiy-iqtisodiy ahvoliga qanday ta’sir ko‘rsatishi mumkinligiga to‘xtalmagan.

K. N. Vladimirov Turkiston o‘lkasining Rossiya imperiyasi uchun nafaqat strategik, balki xalq xo‘jaligi jihatidan ham muhim ahamiyatga ega hudud ekanligini ta’kidlab, o‘lkada dehqonchilik va chorvachilikni rivojlantirish imkoniyatlari, ko‘chib kelgan aholi bilan mahalliy aholi o‘rtasida turli masalalardagi munosabatlariga o‘z fikrlarini bildirgan. Jumladan, Mirzacho‘l vohasida istiqomat qilayotgan mahalliy va ko‘chib kelgan aholining xo‘jalik yuritishlarini o‘z kuzatuvlari natijasida qiyosiy tahlil qilib bergan. Shuningdek, muallif Sirdaryo bo‘ylab Bekoboddan Chinozgacha bo‘lgan masofada joylashgan rus qishloqlari haqida ayrim ma’lumotlarni keltirib o‘tgan [4].

A. Miroshnichenkoning «Turkiston qishloq xo‘jaligi» jurnalida Turkistonda, jumladan Mirzacho‘lda tashkil etilgan rus qishloqlarining ijtimoiy-iqtisodiy ahvoliga doir bir necha maqolalari nashr etilgan bo‘lib, muallif bu ishlarida Mirzacho‘lda amalga oshirilgan sug‘orish ishlarining ahvoliga baho berib, bu yerdagi barcha rus qishloqlari aholisi suvdan foydalanishda teng imkoniyatiga ega emasligi, xususan «Nijniy Volinskiy» qishlog‘i aholisining suvdan foydalanishda mavjud bo‘lgan muammolariga to‘xtalgan. A. Miroshnichenko nafaqat o‘zlashtirish va sug‘orish masalalariga, balki ko‘chib kelganlarning ma’naviy qiyofasi, mahalliy muhitga moslashuvi jarayonida ro‘y bergan ayrim salbiy holatlarga ham e’tibor qaratgan. Jumladan, ko‘chib kelgan aholining ichkilikka mukkasidan ketishi ularning ma’naviy qiyofasiga salbiy ta’sir ko‘rsatishidan tashvishlanib, bu holatni davriy nashrlarda doimiy ravishda yoritishga e’tibor qaratish zarurligini ta’kidlagan [5].

Turkistonni va xususan Mirzacho‘lni tekshirgan rus olimlari P. Semenov-Tyanshanskiy, V. Massalskiy, N. Ulyanov, N. Ivanov, Aminov va boshqalarning ayrim ishlari ham “Turkestanskie vedomosti” gazetasi sahifalarida e’lon qilingan.

Rossiya imperiyasi Turkistondagi yer resurslaridan o‘zlarining iqtisodiy manfaatlari yo‘lida foydalanishga harakat qildi. Shu sababli davriy matbuot sahifalarida agrar sohaga doir maqolalar muntazam ravishda chop etilgan [6].Bu guruhga doir manbalarni o‘z navbatida yana ikki qismga bo‘lish mumkin. Birinchi qismga mustamlaka ma’muriyati ixtiyorida bo‘lgan gazeta va jurnallar kirsa, ikkinchi qism mahalliy taraqqiyparvarlar tomonidan chop etilgan davriy matbuot materiallarini o‘z ichiga oladi. Birinchi guruhdagi materiallar aksariyat holatlarda qishloq xo‘jaligi mutaxasislari tomonidan yozilgan. Shuningdek, ularda Mirzacho‘ldagi kanallar ochilishi va natijada vujudga kelgan yangi erlarning o‘zlashtirilishi to‘g‘risida ma’lumotlar tez-tez chop etilib turgan. Xususan, “Turkestanskie vedomosti” gazetasi, “Turkestanskoe selskoe xozyaystvo” jurnali hamda “Turkestanskiy sbornik” to‘plamidagi mavzuga oid materiallar o‘rganib

chiqildi hamda mavzuning mohiyatini ochib bera oladigan ma’lumotlar magistrlik dissertatsiyasiga kiritildi.

**Tahlil va natijalar.** Milliy matbuot nashrlarida Rossiya imperiyasidan Turkistonga ko‘chib kelgan aholi bilan mahalliy aholi o‘rtasidagi munosabatlarga doir xabarlar berilgan, ammo bu materiallarda aynan Mirzacho‘lga ko‘chib kelgan aholining ijtimoiy-iqtisodiy ahvoliga bevosita aloqador ma’lumotlar juda kam. Xususan, «Kengash» gazetasida Yettisuv va Turkistonning boshqa viloyatlarida mahalliy aholiga nisbatan ma’muriyat vakillari tomonidan qiliingan zo’ravonlik siyosati o‘z aksini topgan, lekin Mirzacho‘lda bunday siyosatning namoyon bo‘lganligi haqida ma’lumot berilmagan. Faqat, «Ulug‘ Turkiston» gazetasida «Golodnoy stepda zemledeliya upravleniyasi (davlat mulklari va dehqonchilik ishlari boshqarmasi idorasindan 12 ming desyatina yerni g‘alla ekmak uchun tezdan dehqonlarg‘a berilsin (bunga tayyor talabgorlar bor)» mazmunidagi xabar berilgan. Mirza Qo‘qonboy Abduxoliqzoda Samarqandiy o‘z esdaliklarida Rossiya imperiyasi Turkistonning boshqa qismlarida bo‘lgani kabi Mirzacho‘lda ham dehqonchilikka ahamiyat bermaganligini qayd etadi. Jumladan, u bu to‘g‘risida quyidagilarni aytadi: “Chor hukumati yarim asrlik istilosi davomida turkistonliklar uchun nima qilgandi? Dehqonchilik ishlarini engillashtirish va hayvonot zotini yaxshilash uchun biror ish qilindimi? Yo‘q! Hech ish qilinmadi!”[7].

Bu davrda Turkiston jadidlari va taraqqiyparvarlari tomonidan chop etilgan ilk mahalliy gazetalarda Turkistonni va jamiyatni rivojlantirish uchun tanqidiy maqolalar chop etilgan. Bunday holat agrar sohaga oid materiallarda ham ko’zga tashlanib turadi. Jumladan, mahalliy ziyolilar Turkistondagi dehqonchilik ahvoli yildan-yilga pasayib borayotganligi aytib, ushbu sohani rivojlantirishning yo’llarini ko‘rsatib o‘tadi. “Sadoyi Turkiston” va “Sadoyi Farg‘ona” gazetalari shu turdagi maqolalarni chop etgan davriy matbuot materiallari hisoblanadi.

Bu holni tushungan mahalliy taraqqiyparvarlar aholini dehqonchilikni yuksaltirishga chaqiradi. Chunonchi, Rauf Muzaffarzoda “endi bizim dunyodan eng oxirgi nasibamiz bo‘lg‘on shul tuprog‘imizga e’tibor bermovimiz aqlsizlik… ulug‘ bir jinoyatdur... Agar bu kundan e’tiboran tuprog‘imizning qadrini bilub ziroatg‘a yopushsak, el ichida xayolimizga ham kelmagon saodatga erishmog’imiz tabiiydur”, deb yozadi. Shu sababli ushbu taraqqiyparvarlar dehqonchilik ishlariga ahamiyat berishni, suvsiz erlarga ariq qazib suv chiqarishni, erlarning unumdorligini oshirish uchun o‘g‘itlardan foydalanishni tavsiya qiladi.

Uchinchi guruhga tegishli manbalarda tadqiq etilayotgan davrda Mirzacho‘lda Rossiya imperiyasi hukumati tomonidan olib borilgan mustamlakachilik siyosatining ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy jarayonlari aks ettirilgan jihatlari, mirzacho‘lda olib borilgan o‘zlashtirish va ko‘chirish siyosati, bu jarayonlarga munosabat masalalariga to‘xtalib o‘tilgan. shuningdek bu manbalarda Mirzacho‘lda rus qishloqlarining paydo bo‘lishi tarixi, ularning ijtimoiy-iqtisodiy ahvoli, ko‘chib kelgan aholining muhitga moslashuv jarayonida vujudga kelgan muammolar, shuningdek, rus qishloqlari aholisining milliy va diniy tarkibi bilan bog‘liq jarayonlar yoritilgan.

O‘lkaga ko‘chirish harakatining natijalarini o‘rganish uchun yuborilgan A. A. Polovtsev Mirzacho‘ldagi Nadejdinskiy, Romanovskiy, Nikolaevskiy, Obetovanniy va Dalvarzinda tashkil topgan Sretenskiy qishloqlarini o‘rganib, faqat Sretenskiy qishlog‘i haqida batafsil ma’lumot bergan [8]. Rus agronomi P. V. Poznyakov 1898-1899 yillarda Mirzacho‘lda tashkil topgan rus qishloqlarida bo‘lib, bu qishloqlarning tashkil topish jarayoni haqida ma’lumotlarni keltirib o‘tgan.

1908-1909 yillarda Turkiston o‘lkasi irrigatsiyasi ahvoli, ko‘chirib keltirilgan aholining yer va suvdan foydalanish imkoniyatlari, o’lkadagi dehqonchilik va chorvachilik xo’jaliklarining umumiy ahvoliga tegishli ko’plab ma’lumotlar graf K.K.Palen boshliq taftish komissiyasi hisobotlarida keltirib o’tilgan[10]. Shuningdek, hisobotda Rossiya imperiyasini Turkistonda amalga oshirgan ko‘chirish siyosatining

ahvoli haqida tegishli ma’lumotlar berilgan, jumladan Mirzacho‘lni o‘zlashtirilishi, vohada mavjud 8 ta rus qishloqlarining ahvoli, ularning yer maydonlari, chorva mollari haqida batafsil ma’lumotlar berilgan. K. K. Palen o’lkaga rus aholisining ko’chirib keltirish ishiga general-ad’yutant K. P. Kaufman tomonidan asos solinganligini ta’kidlab o‘tgan.

A. V. Stanishevskiy tomonidan tayyorlangan to‘plamda Mirzacho‘lning 1867-1917-yillar oralig‘idagi ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy tarixining turli jabhalariga doir arxiv hujjatlari va davriy matbuot materiallari e’lon qilingan, ammo bu manbalar tahlil etilmagan, faqat Mirzacho‘l vohasi tarixining 1917-yilga qadar bo‘lgan muhim sanalarini xronologik tartibda keltirib o‘tgan.

